

N.Otajonov, M.Mirsaydullayev, U.Abdurasulova

MUBORAK DASTXATLAR

**(Zahiriddin Muhammad Boburning saodatmand Mirzo farzandlariga yo‘llagan
xayrli holnomalari)**



Namangan 2021

**N.OTAJONOV, M.MIRSAYDULLAYEV,
U.ABDURASULOVA**

MUBORAK DASTXATLAR

**(Zahiriddin Muhammad Boburning saodatmand Mirzo
farzandlariga yo‘llagan xayrli holnomalari)**

Namangan 2021

UO‘K: 821.512.133

KBK: 99.1

Mazkur monografiyada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati davomida otasi Umarshayx Mirzodan olgan maktubi va o‘z farzandlari Humoyun Mirzo, Komron Mirzolarga bitgan xat va vasiyatnomalari tahlil qilingan.

Monografiya mutaxassis-pedagoglar, mustaqil tadqiqotchilar, tarixchi, adabiyotshunos va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

В данной монографии анализируются письма, полученные от великого правителя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура от его отца Умаршайха Мирзы в течение его жизни и карьеры, а также письма и завещания его детям Хумаюн Мирза и Комрон Мирза.

Монография предназначена для педагогов, независимых исследователей, историков, литературоведов и широкой общественности.

The monograph analyzes the great King and Poet Zahiriddin Muhammad Babur’s letter received from his father Umarshaikh Mirza during his life and career, as well as his own letters and wills to his children Humayun Mirza and Komron Mirza.

The monograph is intended for educators, independent researchers, historians, literary critics and the general public.

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Z.Teshaboyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Qurbanov

Ushbu monografiya Namangan davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2021-yil 10-dekabrdagi 12-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

«Boburnoma» va uning xorijiy tarjimalari, esse, roman, «Ajoyib kishilar hayotidan» turkumida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida gap borganda xat, noma, maktub, muammolariga munosabat bildirmaslikning iloji yo‘q.

Birovga xat yozish botiniy ruhiy ehtiyojdan tug‘iladi. Bu juda ham o‘ziga xos dil izhordin. Maktubnavislik o‘zi bir san’at. Insho, munshaot ham ijod. Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiyning bir-birlariga va boshqa insonlarga yozgan maktublari nihoyatda nozik va zarif, nuktadonlik va mehribonlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan. Biz bu singari hazrati insonlardan yozib qoldirgan nafis, go‘zal badiiy asarlari uchungina emas, balki bir-birlariga yozgan xatlari va ularning maxsus majmua holiga keltirib, biz avlodlarga tuhfa etganliklari uchun ham toabad minnatdor bo‘lishimiz lozim. Sababi yuksak badiiy ijod sohiblari xatda yozib bo‘ladigan qalb sirlarini boshqa biror vosita bilan ifoda eta olmas edilar, holbuki, ijod qanchalik murakkab bo‘lsa, ijodxona mo‘jizalari, iqror va inkor, tasdiq va raddiya, muhabbat va nafrat shu xatlarning qatiga bitilgan bo‘ladi, zero bular singari zukko insonlar, mutafakkirlar, yozuvchi va shoirlarni biz qanchalik chuqur o‘rganmaylik ularni hech kim o‘zlarichalik bilmaydi, bila olmaydi ham.

Noma, maktub, xat adiblarning ikkinchi ijodi. Bu ijodning boshlanishi, ijod jarayoni tahlili va davomi. Biz yuqorida adiblar o‘zlar haqida gapira olmaydilar, dedik. Ular ixtiyorida har qalay kichik bir imkoniyat bor. Bu o‘z yaqinlari, do‘stlari, farzandlariga, ya’ni o‘zlariga eng sirdosh va habib insonlarga, hatto raqiblariga yozgan xatlaridir.

Yozuvchi ma’naviy dunyosining ich-ichiga kirib borishni istagan kishi uning xatlarini o‘qisin.

Muallif o‘z asarini ichiga yashiringan bo‘ladi. Uni oshkor etuvchi narsa uning xatlari, kundaligi va xotiranomalari. Ba’zan badiiy ijodning o‘zi ham noma, maktub, xotira shaklida yoziladi. Firdavsiyning «Shohnoma»si, Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si, Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si, Muhammad Solihning «Shayboniynoma»si, Muqimiyning «Sayohatnoma»si va boshqalar kabi.

Xat, maktub, noma shunchaki bir shaxsning boshqa bir shaxsga bitgan dil izhorlarigina emas. Bu katta, qamrovdor va zalvorli, murakkab va ziddiyatli mushtarak muammodir. Bu ma’noda olaylik: Alisher Navoiyning «Xamsa»day bir salmoqdor beshligi ham o‘ziga xos bir «xat». Buyuk Navoiyning dastxati. O‘z xalqiga dil izhori. O‘z tilida – turkiyda mustaqil, fasih va sahih «xat yozish» mumkinligini isbotlash uchun bunyod etilgan shukuhli adabiy-tarixiy shahodatnomadir.

I BOB. MUBORAK DASTXATLAR

Otaning o‘g‘ilga nasihati

Hozirgi kunda «O‘zbek tilida maktub yozish mumkinmi yoki yo‘qmi?» degan masala ko‘tarilsa, hamma birdek yelka qisishi tabiiy, chunki daf’atan mantiqsizlikni ko‘rvuchi odamlar topiladi. Aslida esa masala qanchalik oddiy va jo‘n ko‘rinmasin, shunchalik murakkab. Masalan, o‘sha savolga ko‘pgina kishilar, bиринчи galda bizning ziyolilarimiz inkor javobini beradilar. Gap «maktub», «noma», «xat» so‘zlariga qanday ma’no berilayotganida. Axir Navoiy hazratlaridek buyuk zot oldida ham ana shunday inkor ma’nosidagi tasdiq turar edi-da! Inkorni inkor etib, tasdiq javobi olish uchun «Lison ut-tayr» singari asar yozish lozim edi, biroq bu kifoya qilmasdi. Nazariya zo‘r, ammo amaliyot ham zo‘r. Amaliyot nazariyasiz ham amaliyot bo‘lib qolaveradi, lekin nazariya amaliyotsiz mavhumdir.

Adabiy til sifatida turkiy tilning zo‘rligi va mustaqilligini uzil-kesil isbotlagan dalil mana shu «Xamsa» bo‘ladi. Mantiq, ifoda, isbot, kalom, insho, izhor, majoz, atama, muammo – bari turkona. G‘ayri arabiy, g‘ayri forsiy, g‘ayri yunoniy, «sof» turkiy xat emas, albatta, zero «sof turkiylik» da’vosining o‘zi mantiqsiz tushuncha, ammo uslub, grammatika, alfoz, ifoda va nafosat turkona edi.

Mana endi buyog‘i – «Boburnoma», «Humoyunnoma», «Akbarnoma», «Taboqati Akbar Shohiy», «Ravzatus safo» va boshqa xotiralar. Mazkur «noma»lar orqali biz bu fotih va jahongir, inson va adiblarning hayotini baayni ichidan va tashidan bilib olamiz. Chunonchi, Gulbadan begin, Abulfayz Allomiy, Mirxon va boshqa ulug‘ muarixlarning asarlaridan Boburning qanday tabarruk va fidoyi,

mo‘tabar zot bo‘lganligi ayon bo‘ldi, biroq biz dovyurak «arslon», temuriyzoda, hindiy ta’biri bilan aytganda, *notiqlik va ilm ma’budi, musiqa va she’riyat homiysi* Sarasvatining suyukli, arzanda o‘g‘lining (Rohul San Kriatian) kimligini, qilgan barcha ulug‘vor hamda mardud ishlarini, mamnuniyati-yu pushaymonlari, orzu-armonlarini «Vaqoye»dan bo‘lak biron manbadan topa olmaymiz. Bu onhazrat Bobur Mirzoning o‘z qo‘li bilan yasagan shunday ko‘zguki, bu oynada uning ixtirochisi bor bo‘y basti bilan ko‘rinadi.

Biz hozir tilga olgan nomlarning donishiy ahamiyati borasida to‘xtaldik. Chunonchi, «Vaqoye» yoki «Boburiya» yoxud «Boburnoma» deb atalmish manbaning ichki xos jihat – Bobur Mirzoning ijodxonasi hamda ijodkor sifatidagi o‘ziga xos olamiga chuqur kirib borishida beba ho ish ekanligini aytdik. Bugina emas, bu narsa Bobur davri, moddiy turmush tarzi, uch mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoldidan darak beruvchi chinakam qomusiy asar ekanligi tayin. Bulardan tashqari masalaning uchinchi, yanada muhim jihat borki, bu taffakur va til bilan chambarchas bog‘liq.

Tilga ishlov berish yozuvchilarning zimmasidadir. Bu borada ham turkiy tilning ravnaqi, hozirgi adabiy tilni boyitish, ayniqsa, atamashunoslikda «Boburnoma»ning o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Bunda tilning lug‘aviy bisotidagi har xil qatlamlar, iborasozlik, maqol va matalchilik, turli-tuman kasb-kor so‘zlari, ma’muriy-idoraviy istilohlar, milliy va tarixiy tushunchalar mavjud. Biz mavzu doirasida Bobur xatlarining forscha, inglizcha nussxalari, uslubi bilan tanishar ekanmiz, tarjimalarda ularning qay tarzda ifodalanganini kuzatamiz, ingliz

sharqshunos olimlari, boburshunos Henri Beverij hamda Anetta S.Beverij xonim tajribalarini, ayrim izoh va qaydlarini tahlil qilamiz.

Ma'lumki, Mirzo Bobur ota, yaxshi do'st, podshoh maqomida juda ko'p odamlarga xat bitgan. Bu maktublarning har biri tarix. Bu xatlardan asrlar osha uning o'ktam ovozi, odobi, fikr-mulohazalari, tajribasi, mijozining sajiyasi bizgacha yetib kelgan. Bu maktublarni takror-takror o'qiyamiz, to'ymaymiz. Ularda buyuk bir inson holidan zorlanadi, Humoyunga, Komronga, Xoja Kalonga va boshqalarga nimalarnidir tayinlaydi, nasihat qiladi. Ammo o'sha «boshqalar» aslida boshqalar emas, balki biz. Uning ota sifatida o'z farzandlariga cheksiz mehribonligi hamda nasihatি-yu vasiyatlari xuddi xalqiga, bizga atalganday jaranglaydi.

Bobur va boburiylar haqidagi ko'plab asarlarning dunyoga kelishida «Boburnoma» va «Humoyunnoma» asarlarining xorijiy tillardagi tarjimalari katta o'rinn tutadi. «Boburnoma»dan ta'sirlanib yozilgan asarlar qatoriga Harold Lembning «Bobur – yo'lbars», Vilyam Rashbrukning «O'n oltinchi asr bunyodkori» ilmiy-tadqiqot asari, avstriyalik nemiszabon yozuvchi Frits Vyurtlening «Andijon shahzodasi» (Bobur – yo'lbars) qissalarini kiritish mumkin. Rumer Godenning «Gulbadan» asari esa «Humoyunnoma»dan ta'sirlanib yozilgan. Darhaqiqat, tarjima turli millat va xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda asosiy vosita bo'lib kelayotgani aniq.

Avstriyalik olim va yozuvchi Frits Vyurtlening «Bobur – yo'lbars» (Bobur, der Tiger) qissasi o'zbek tilida «Andijon shahzodasi» nomi bilan nashr etildi. Harold Lembning asari ham «Bobur – yo'lbars» deb atalgani uchun ularni bir-biridan farqlash maqsadida shunday

qilindi. Kitob 1947-yilda Avstriyada («S.JorgI & Co», nashr., Vena) bosilib chiqqan. Uning ilk sahifasida quyidagi ma'lumotni o'qiyimiz: «Ushbu qissaning yosh qahramoni Zahiriddin Muhammad XVI asr boshida yashab, davlatni boshqargan. U 12 yoshida Farg'onaga podshoh bo'lган. Hindistonda bir necha asr davomida hukmronlik qilgan sulola uning nomi bilan bog'liq. Bobur o'z boshidan kechirgan voqealarni ona tilida, ya'ni turkiy-chig'atoy tilida kitob qilib yozadi. Bu kitob «Boburnoma» deb ataladi va qo'lingizdagi qissa shu asosda yaratildi»¹. Ushbu asarda Umarshayx Mirzoning o'g'li Bobur Mirzoga yozgan vasiyat maktubi bugungi kun uchun ham behad dolzarb bo'lib, yoshlar tarbiyasida katta o'ringa ega. Matn shunday bayon etiladi:

«O'g'lim senga Ollohnинг o'zi yor bo'lsin. Otangning gaplariga quloq sol. Bilasanki, men tinchlikni yaxshi ko'raman, chunki tinch mamlakat baxtli mamlakat hisoblanadi. Biroq menga xabar keldiki, Shayboniyxon, ilohim Allohnинг o'zi uning jazosini bersin, xalqimizni qul qilish, o'tloqlarni sahroga aylantirish, mollarimizni haydar ketish maqsadida yurtimizga bostirib kelish uchun qo'shin to'playotgan mish. Shuning uchun qo'lingdan kelgancha o'qib o'r gan, qurol ishlatishni tinmay mashq qil, kim biladi, qachon bilim va kuch-quvvatingni ishga solasan. Ammo senga aytmoqchi bo'lgan gapim faqat bu emas. Tag'in bir gap qulog'imga yetib keldi, ya'ni kimdir mening hayotimga qasd qilgan mish. Men Axsi xalqining sadoqatiga ishonaman. Mabodo menga biror gap bo'lsa, hamisha yodingda bo'lsin: kim vaqt sinovlariga dosh bera oladigan uy qurishni istasa,

¹ Фриц Вюртле. Андикон шаҳзодаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – Б. 4.

g‘ishtni to‘g‘ri tersin, qorishmani ezilgan xalq ko‘z yoshida tayyorlamasin! Muqaddas kitobimizda yozilgan gapni yodingda tut: Olloh Yer va osmonni bizga ermak uchun yaratmagan!

Hamisha tajribali va oqil kishilarining maslahatiga quloq tut, yengiltaklik qilib ularni e’tiborsiz qoldirma. Biroq maslahat bergen har qanday odam ham tajribali hisoblanavermaydi. Sen esa mening o‘g‘lim va merosxo‘rimsan, sen yoshsan, jasursan, hamisha aqlli va mulohazali bo‘l. Ajrashmasimizdan oldin otangning ham yurtimizga podshoh bo‘ladigan davr uchun bir maslahatini ol. Kimki podshohni ko‘rganda shahzodani ko‘rgandagiga nisbatan xushmuomalaliroq bo‘lsa, unday odamning aqlsiz boshini uzdirib tashla. Kim senga hamisha sadoqat bilan xizmat qilsa va xushomadgo‘ylik qilmasa, unday odamni yoningda saqla va maslahatiga quloq sol. Bu o‘zing uchun ham, xalq manfaati uchun ham foydali»².

Kitobda bunday purma’no fikrlar, kitobxon yodida muhrlanib qoladigan hikmatlar juda ko‘p. Masalan, «*Shoh bo‘lish haqiqiy erkak bo‘lish degani. Haqiqiy erkak bo‘lish – og‘riqni yenga olish degani*», «*Podshoh bo‘lish – birinchi bo‘lish degani, nafaqat oson, balki og‘ir damlarda ham*», «*Haqiqat noyob va qimmat molga aylanib qolsa, hamisha ishlar yomonlashadi*» va hokazo.

Chuqur mulohaza qiladigan bo‘lsak, maktubning yozilishiga sabab Bobur Mirzoga Andijonni berilgandan keyingi oylarda bo‘lgan ayrim noxush xabarlar Umarshayx Mirzoga yetib kelgandan keyin yozilgan, desa bo‘ladi. Maktubda ota o‘g‘liga kattalarga bo‘lgan hurmat kabi murojaatdan boshlaydi: «*O‘g‘lim senga Ollohnng o‘zi yor*

² Фриц Вюртле. Андижон шаҳзодаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011.- Б- 4.

bo‘lsin». Shundan so‘ng Bobur Mirzoni hushyorlikka chaqiradi: «*Otangning gaplariga qulq sol. Bilasanki, men tinchlikni yaxshi ko‘raman, chunki tinch mamlakat baxtli mamlakat hisoblanadi».* Oldin jang ko‘rmagan, vayronalik nima, xo‘rlik nimaligini bilmagan o‘g‘li Boburga otasi dushman kelsa ahvol yomon bo‘lishligini yaqqol bostirib kelishi aniq bo‘lgan dushman nomi bilan tushuntiradi: «*Biroq menga xabar keldiki, Shayboniyxon, ilohim Allohning o‘zi uning jazosini bersin, xalqimizni qul qilish, o‘tloqlarni sahroga aylantirish, mollarimizni haydab ketish maqsadida yurtimizga bostirib kelish uchun qo‘shin to‘playotganmish».*

Farzandini doimo hushyor bo‘lishga, ilm olish bilan birga harb ishini ham mukammallashtirib turish zarurligini ta’kidlaydi: «*Shuning uchun qo‘lingdan kelgancha o‘qib o‘rgan, qurol ishlatishni tinmay mashq qil, kim biladi, qachon bilim va kuch-quvvatingni ishga solasan».*

Umarshayx Mirzo Farg‘ona poytaxti Axsi xalqiga va atrofdagi xos beklarga ishonishi bilan davlat ichida g‘animlar ham borligiga urg‘u berganday bo‘ladi. Suiqasd bo‘lishi haqidagi ayrim ma’lumotlar borligi ham shunga da’vat etgan bo‘lsa kerak: «*Ammo senga aytmoqchi bo‘lgan gapim faqat bu emas. Tag‘in bir gap qulog‘imga yetib keldi, ya’ni kimdir mening hayotimga qasd qilganmish».* Umarshayx Mirzoning o‘limiga sabablardan biri ham suiqasd bo‘lganligi haqida yuqorida fikr almashgan edik. Maktubda xalqning undan keyingi hayoti, taqdiri ham xavotir tuyg‘ulari bilan bayon etilayapti: «*Mabodo menga biror gap bo‘lsa, hamisha yodingda bo‘lsin: kim vaqt sinovlariga dosh bera oladigan uy qurishni istasa, g‘ishtni to‘g‘ri tersin, qorishmani*

*ezilgan xalq ko‘z yoshida tayyorlamasin!». O‘g‘lini imon-e’tiqodda mustahkamligini bilgan ota yana bir bor esiga solish maqsadida shunday yozadi: «*Muqaddas kitobimizda yozilgan gapni yodingda tut: Olloh Yer va osmonni bizga ermak uchun yaratmagan!*».*

Otasi Axsidan Andijonga qo‘sib bergen ahli donishlarni hurmat qilishni, atrofiga yangi to‘plangan chapanilardan ehtiyot bo‘lishga chaqirib: «*Hamisha tajribali va oqil kishilarning maslahatiga qulog tut, yengiltaklik qilib ularni e’tiborsiz qoldirma*», deydi.

Biror bir ish bo‘lib qolsa, Umarshayx Mirzo o‘zidan keyingi valiahd Bobur Mirzoligini esiga solib, hushyorlikka chaqirib, shunday deydi: «*Sen mening o‘g‘lim va merosxo‘rimsan, sen yoshsan, jasursan, hamisha aqli va mulohazali bo‘l*». Albatta, podshoh bo‘ladimi, sarkarda bo‘ladimi urush xavfi boshlanganda oila a’zolariga vasiyatlar qilish avvaldan odat tusiga kirib qolgan. Umarshayx Mirzo ham xavfni sezgandan so‘ng yosh o‘g‘li Bobur Mirzoga yuborgan maktubi bir tomondan maktub tariqasida bo‘lsa-da, uning negizida vasiyat ham bayon etilgan.

Umarshayx Mirzo aqli, uzoqni ko‘ra oladigan va hayotning juda ko‘p so‘qmoqlaridan yurgani bois Bobur Mirzoga qisqa, ammo juda mulohazali maktub bitgan. Esizki, uning o‘z yaqin-yiroqlariga turli munosabatlar – davlat ishlari, shaxsiy ahvolot, oilaviy munosabatlar, xalq-xush, odob, raftu omad, osoyish va oroyish yo‘riqlarida bitgan «nimarsalari», bu rang-barang, ulkan boylik muntazam yig‘ib borilmagan, «*munshoat*» shakliga keltirilmagan. Ko‘pdan-ko‘p narsalar saqlanmagan, alg‘ov-dalg‘ovlarda yo‘qolib ketgan. Shunisi borki, biz yana Boburning o‘zidan minnatdor bo‘lishimiz kerak, ya’ni uning bir

qancha xatlari «Vaqoye»dan joy olgan. Bundan bir necha yil muqaddam yana bir muborak maktub topilib matbuotda e'lon qilindiki, bu «**Nasihatnomai Bobur ba farzandi xud**» deb nomlanadi.

Bobur Mirzoning o‘g‘li Humoyun Mirzoga
o‘zining zaharlanishi tafsilotlarini
bayon etuvchi maktubi

«Odina kuni rabiul-avval oyining o‘n oltisida g‘arib voqeа dast berdi: nechukkim, Kobulg‘a bitigan kitobatda mashruh bitilib edi. Ul kitobatni - o‘q beziyoda va benuqson munda kelturildi. Ul kitobat budur: Voqeai uzmoqim³, jum‘a kuni rabbiul-avval oyining o‘n oltisida tarix to‘qquz yuz o‘ttuz uchta ro‘y berdi, tavsili budurkim, Ibrohimning onasi bu badbaxt eshiturkim, men Hinduston elining eligidin nima yeydurman. Bu qissa mundoq edikim, uch-to‘rt oy bu tarixdin burunroq Hinduston oshlarini chun ko‘rmaydur edim. Dedimkim, Ibrohimning bovurchilarini kelturdilar. Ellik-oltmishcha bovurchidin to‘rtini saqladim. Bu kayfiyatni bu eshitib, Ahmad choshnigirkim, Hinduston eli bakavulni choshnigir deydurlar. Atovag‘a kishi yiborib kelturtup, bir dodak ilgiga chorsuta qilg‘on qog‘ozda bir to‘la zahr berur, to‘la ikki misqoldin bir nima ko‘prak bo‘lur, nechukkim, burunqoq maskur bo‘ldikim, Ahmad choshnigirga bergay, Ahmad bizning bovurchixon dag‘i Hindustoni bovurchig‘a berib, to‘rt pargana va’da qilurkim, har tavr qilib, mening oshimg‘a zahrni solg‘ay. Ul dodakdinkim, zahrni Ahmad choshnigirga yiborurki, yana bir dodaknianing so‘ngicha yiborurkim, ko‘rgay, ul zahrni beradurmu yoki yo‘qmu? Yaxshikim, qozong‘a solmay,

³ uzmo – katta, ulug‘

tabaqqa solur. Bu jihattin qozong‘a solmaskim, bakavullarga ta’kidlar qilib edimkim, Hindustoniylardin hozir bo‘lg‘aylar, qozonda osh pishurur mahalda tottururlar ermish. Osh tortarda bizning bedavlat bakavullar g‘ofil bo‘lurlar. Chiyni ustiga yupqa nonni solur va non ustiga ul qog‘azdagi zahrning ozroq yarmini separ, zahrning ustiga yog‘luq qaliyani solur. Agar qaliya ustiga sepsa edi yo qozong‘a solsa edi, yomon edi. Dast-pocha bo‘lub, zahrning ulug‘ yarmini o‘choqqa tashlar.

Odina kuni kech namoz digar osh torttilar. Tovushqon oshidin hiyla edim. Bu Hindustoniy zahrlik oshining ustidin bir-ikki tikka maylu qildim, qaliya olib yedim, hech noxush maza ma’lum bo‘lmadi. Qoq go‘shttin bir-ikki tikka oldim. Ko‘nglum barham urdi, o‘tgan kun qoq go‘shtni yeganimda bir noxush maza anda bor edi, ko‘nglumning barham urg‘onin andin xayol qildim. Yana bir ko‘nglum qo‘zg‘onib ketdi. Dasturxon ustida ikki-uch marta kunglum barham urub, qusayozdim. Oxir ko‘rdumkim, bo‘lmas, qo‘ptum. Obxonag‘a borguncha yo‘lda bir navbat qusayozdim. Yana bir navbat qusayozdim. Obxonag‘a borib, qalin qustim. Harg‘iz oshdin so‘ng quスマs edim, balki ichkanda ham quスマs edim. Ko‘nglumg‘a shubha kechdi. Bovurchini sahlatib buyurdimkim, ul qayni itga berib, itni sahlag‘aylar. Tonglasig‘a bir pahraga yovuq it beholroq bo‘lub, qorni dam qilg‘ondek bo‘ldi. Har necha tosh bila urdilar, evrushtilar, ko‘pmadi. Kun tushgacha bu holi bor edi, andin so‘ngra qo‘pti, o‘lmadi. Bir ikki chuhra ham bu oshdin yegandur. Tonglasig‘a alar ham qalin qusdilar birisining hud holi xarob edi, oxir bori xalos bo‘ldilar.

Misra: «*Rasida bud baloe, vale bahayr guzasht*»,
(Mazmuni: Bir balo yetishgan edi, biroq yaxshilik bilan
kechdi).

*Tengri manga boshdin jon berdi. Ul dunyodin keladurmen,
onadin emdi tug'dum. Men xasta o'lub edim, tirildim. Jon qadrini,
billoh emdi bildim. Sulton Muhammad baxshig'a buyurdimkim,
bovurchini ehtiyot qilg'ay. Qiying'akimtutar, mazkur bo'lg'ondek
birin-birin sharhi bila aytur.*

*Dushanba kuni devon kuni buyurdimkim, akobir va ashrof va
umaro va vuzaro devonda hozir bo'lg'aylar. Ul ikki er kishini va ikki
xotun kishini kelturub so'rg'aylar va bayoni voqi'ni sharhi va basti*⁴
bila ayttilar. Ul choshnigirni pora-pora qildurdim. Bovurchini tiriklay
terisidan so'ydurdim. Ul xotunlardin birisini fil ostig'a soldurdim.
Birini ehtiyot qildurdim. Ul ham o'z amalig'a giriftor bo'lub, jazosig'a
yetgusidur.*

*Shanba kuni bir ayoq sut ichtim. Yakshanba kuni ham bir ayoq
sut ichtim, «tili maxtum»ni va «taryoqi foruq»ni ezib ichtim.
Dushanba kuni sut ichimni xili surdi. Shanba kuni, avvalg'i kuni
safroyi suxtadek qora-qora nimalar daf' bo'ldi. Shukr holo hech
qissa yo'qtur. Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim,
ul misra borkim:*

«Kim o'lar holatqa yetsa, ul bilur jon qadrini».

*Har qancha bu voqiai hoila xotirimg'a kelsa, bexost holim
mutag'ayyir bo'lur. Tengri taoloning inoyati bor ekandur, manga*

⁴ bast – to'lalik, tafsilot

yangi boshdin jon bag‘ishladi. Munung shukrini na til bila qilg‘ayman. Xotirlarg‘a taraddud kechmag‘ay deb, har ne voqa’ bo‘lg‘onni sharhi va basti bila bitidim. Agarchi tilga, og‘izg‘a siqqusiz qo‘rqqudek voqem edi, shukr tengrig‘a yana kun ko‘rarin bor ekandur. Xayr xo‘bluq bila o‘tdi. Hech dag‘dag‘a va taraddud xotirlarigizg‘a kechur mang deb, seshanba kuni rabiul-avval oyining yigirmasida chahorbog‘da erurda bitildi.

Bulardin forig‘ bo‘lub, bu bitilgan xatni Kobulg‘a yiborildi. Chun mundoq ulug‘ gunoh bu badbaxttin sarbar urdi. Yunus Ali bila Xojagiy Asadg‘a buyuruldikim, naq va jins qul va dodakini olg‘ondin so‘ng, Abdurrahim shig‘ovulg‘a topshuruldikim, ehtiyyot bila sahlag‘ay. Buning nabirasi Ibrohimning o‘g‘linikim, xili ta’zim va ehtirom bila nigohdosh qilunur edi, chun mundoq qasde bu tabaqadin sodir bo‘ldi. Ibrohimning o‘g‘lini munda saxlamoqning salohini ko‘rmay, panjshanba kuni rabiul avval oyining yigirma to‘qqizida Mullo Sarsong‘akim, Komron qoshidin ba’zi ishkuch uchun kelib edi, qo‘shib Komrong‘a yiborildi (375-377)».

O‘zimni o‘zgalar orqali anglayman

Bu voqeal tasviri bir qancha jihatdin muhim. Har bir unsur va mayda tafsilot ham katta ahamiyat kasb etadiki, uni tashlab ketish yoki orttirish, tusmollab o‘girish yoxud ma’nosini o‘zgartirish, shuningdek, tushunmaganlik uchun tarjimasiz qoldirish anglashilmovchilik tug‘ilishiga olib keladi. Vaholanki, gap odatdagi biron voqeal emas, Boburning hayot-mamot tasviri hamda bayoni haqida bormoqda. Ovqatga zahar qo‘shib bergen oshpazlar qanday qilib yemakxonaga o‘rnashib qolgan? Ul nobakor oshpaz nimaning evaziga

bunday suiqasdga rozi bo‘lgan? Zahar nima sababdan qozonga yoki qaylaga emas, nonning ustiga sepilgan? Ovqatga zahar solingani qanday isbotlangan? Suiqasddan maqsad? Suiqasd qilganlarga qanday chora ko‘rilgan? Va hokazo. Matn ichida shunday xos so‘zlar, ibora va birikmalar, atamalar borkim, ular hozir eskirgan, bir qismi hindlarning turmush tarzi va tafakkuriga daxldor bo‘lgani bois, boshqa millat kishilari tugul, bizning bugungi o‘quvchiga ham tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Bir qism kalimalar to‘la anglashiladi. Ayrimlarini hech kim yoki ko‘pchilik bilmaydi. Bir xil so‘zlarning ma’nosи esa o‘zgarib ketgan. Qizig‘i shundaki, ayrim hollarda gap nima haqida borayotgani yoki so‘zning tagida qanday ma’no va ishoralar yashiringanini o‘zimizning maxsus lug‘atlarimizdan ham topib bo‘lmaydi. Bunday muammolarga xorijiy tarjimalardan javob olish mumkin. Chunonchi, inglizcha tarjimalar o‘zining aniqligi bilan, turkcha tarjima bizning moddiy va ma’naviy hayotimizga yaqinligi bilan yordamga keladi. Ruscha tarjimaning ham o‘z afzallikkari bor.

In’ikos va in’ikos in’ikosi

Zaharlanish voqeasi yana bir sababga ko‘ra diqqatni tortadi. Chunonchi, xuddi shu manzara yozuvchi Primqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida ham keltirilgan. Demak, «Vaqoye» bilan roman o‘rtasida uzviy bog‘lanish, o‘ziga xos «ko‘prik», «tanakor» mavjud. Bu uzviylikning tarx-tarovatini taqriban shunday ifodalash mumkin:

Hayot – Xotirot – Tarjima.

Hayot – Xotirot – Adabiyot – Tarjima.

Sado va aks sado. In’ikos va in’ikosining in’ikosi. «Boburoma» – xotirot, vaqoye, tuzuk hosilasi o’laroq, badiiy «qayta ishlovga», badiiy tahayyulotga o‘rin qoldirgan, zero bu «Vaqoye»» o‘z tabiatiga ko‘ra ilm bilan badiiy adabiyot o‘rtasida turadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, har ikkalasining ajib bir tarzda qo‘shilishi va omuxtalashuvidan iborat. Bu yerda aniqlik, tahlil bilan birga obraz va obrazlilik, tasvir va tasviriylilik, ichki insoniy tuyg‘ular, ilmiy tafakkur bilan badiiy manzaradorlik ham muhayyo. Ammo «Vaqoyenomai Boburiy» muallifining ustaligi shundaki, asarda tarix va ilm qayerdan boshlanadi-yu, badiiy adabiyot qayerda o‘z intihosini topadi – buni ilg‘ash qiyin. Ba’zan oddiy yoki mayda turmush tafsilotlaridan nogahonda chuqur falsafa kelib chiqadi. Demak, Bobur Mirzoning maqsadi o‘z hayotidan biron roman yoki qissa yozish emas, balki xotira so‘zlab berish ekan, bu xotiralar asosida kelajakda qachonlardir ko‘lamdor badiiy asarlar yozilishini u bilganmikan? Bunisi Boburning o‘zigagina ayon. Ammo u hayotlik chog‘idayoq o‘zining buyuk shaxs ekanini shubhasiz bilgan. Nima bo‘lganda ham «Boburnoma» xotirot sifatida qomusiy bir asar bo‘lgani sezilib turadi. Eng zaruriy, hayotiy «ikir-chikirlar»da muallif joy ayamaydi. Vaqtini tejamaydi. Chunki bular ulkan zarralar, ko‘lamdor manzaralar, sermazmun tafsilotlar. Bunda irmoqlar ham, daryolar ham, dengizlar ham bor. Irmoqlardan daryolarga, daryolardan dengizlarga, dengizlardan yana daryolar va irmoqlarga qarab taralish jarayoni aks etgan. Birgina «zaharlanish» manzarasida do‘stlik va raqobat, odamiylik va mal’unlik, urush va intiqom, insonning ziddiyatlarga to‘la ichki dunyosi o‘z aksini topgan. Darvoqe, xotirot (memuar) va roman bahsida aytish kerakki, mazkur adabiy tur (janr)ga xos qomusiy ixchamlik bag‘rida keng tasvir

imkoniyati yashirinib yotar ekan, dunyo yozuvchilari bu imkoniyatdan foydalandilar. Ha, foydalandilar, lekin to‘liq foydalandilar, deyolmaymiz. Movarounnahr tarixi, xalqlarining «ishlari», o‘tmish madaniyatimiz, shu jumladan, allomalarimiz: Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hoja Ahror, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Furqat kabi ko‘plab mutafakkir, sarkarda, shoirlarimiz nihoyatda ko‘p badiiy tajassum, rassomchilik va kino san’ati asarlariga ozuqa berishi shubhasiz.

«Boburnoma» va «Yulduzli tunlar». Bu roman «Vaqoye»dagi ko‘plab «bo‘sqliqlar» va «kemtiklar»ni to‘ldirgan, ayrim voqealarni asoslagan. Bu ma’noda ham mazkur kichik parcha va bundan keyin keltiradiganimiz turmush tafsilotlari hamda adabiy lavhalarning muqoyasaga olinish zaruratini paydo qiladi. Parchada yigirmadan ziyod so‘z, atama, jumla va birikmalar borkim, hozirgi o‘zbek tilida ma’nolari mavhum, yo noaniq, qo‘pol, yo bo‘lmasa soxta muqobil holatiga kelib qolgan. «Tarjimonning soxta do‘stlari» deganda «ayni bir xil» so‘zlarning turli tillarda, aksar qardosh tillarda, turlichal, boshqa-boshqa ma’no anglatishi nazarda tutiladi. Bu yerda bo‘lsa, boshqa hodisa anglashiladi. Ma’noviy soxtakorlik turli tillarda emas, balki «Boburnoma» misolida ayni bir turkiy tilda (eski va hozirgi o‘zbek tili) so‘zlarning ma’nolarida ayrichalik holati paydo bo‘lgan.

So‘z ma’nolarida tarixiy turfalik

Matndagi mana bu so‘zlarga e’tibor qaratamiz: **g‘arib, kitobat, mashruh, uzmo, bovurchi, choshnigir, bakovul, to‘la, pargana,**

bedavlat, chin, qaliya, tikka, chuhra, ayoq, qissa, naqd, jins, qul, dodak, tug‘moq, qo‘pmoq, chili maxtum, taryoq, foruq.

Grammatik shakl va mazmunan g‘alat hodisa: *tug‘moq*. Eski o‘zbek tilida ikki ma’noni anglatmish: 1.Tug‘ilmoq (onadan tug‘ilmoq); 2.Chiqmoq, ko‘rinmoq, tulu’ etmoq (quyosh va oy haqida) (NAL. 619). «*Ul dunyodin keladurmen, onadin emdi tug‘dum*». Erkak jinsidagi kishining «*tug‘dum*» deyishi hozir juda g‘alati eshitiladi. Bobur tilida bo‘lsa bu odatiy ibora: majhul darajadagi «*onadan tug‘ilmoqni*» anglatadi. Qizig‘i, *tug‘moq* fe’lining o‘sha ko‘hna ma’noviy ifodasi hozirgi turk tilida ham saqlanib qolibdi: «*Ben o bir duniyadan geliyorum: annemdan simdi dogdum*». *Tug‘dum – dogdum!*

G‘arib voqeа dast berdi. Hozirgi tilimizda ham barcha so‘zlar muhayyo. Bovujud «g‘arib voqeа qо‘l berdi» desak, hech narsa anglashinilmaydi. Zero «u so‘zlar» bor, «u ma’nolar» yo‘q. «G‘aroyib voqeа ro‘y berdi» deyish kerak. Haqiqatan ham, bu kalima va iborasozlikda g‘aroyib hodisa ro‘y bergen. Chunonchi, 1.G‘arib (ko‘pl, g‘urabo). Musofir boshqa joydan kelgan, kimsasiz. 2.G‘arib... Ajoyib, qiziq, kamyob. G‘aroyib. Qiziq narsalar, qiziqliklar, kamyob narsalar. Shunday qilib «*g‘arib*» so‘zining birinchi ma’nosi to‘la saqlangan holda ikkinchi ma’nosi yo‘qolgan. «*G‘aroyib*» so‘zi ham hozir aynan o‘ziday. ***G‘aroyib*** baayni ***g‘arib*** so‘zining ikkinchi ma’nosi bilan muqobil (ekvivalent) bo‘lib qo‘llangan. ***Dast bermoq*** birikmasidagi forscha ***dast*** o‘zbekcha ***qо‘l*** bilan almashsa, tamomila boshqa ma’noga ko‘chadi: ***Qо‘l bermoq*** 1) Muridning Pirimqul Qodirov esa aftidan mazkur so‘zni boshqacha izohlagisi kelgan. Chosh+nagir (ko‘p olma). Til uchidagina yoki bir xo‘plam tatib

ko‘rishni nazarda tutgan shekilli. Qizig‘i, Xarold Lemb bilibmi-bilmaymi tag‘in uchinchi talqinni ilgari surgan: chash+nigor. Bu «ta’mni nazorat qilib turish», ta’m olishga ko‘z qulqoq bo‘lib turish ma’nosini anglatgan. Chosha+nigir (Gulbadan Begim: S.Azimjonova), Chosh+nigor (Xarold Lemb), Chosh+nagir (Pirimqul Qodirov).

Bir to‘la zahar jumlasini o‘qigan kishi hozir to‘lani istiloh emas so‘z (ravish) deb anglaydi. Bobur o‘sha jumladan keyin mazkur kalimani matn ichidayoq izohlaydi: to‘la ikki misqoldin bir nima ko‘praq. Demak, o‘lchov birligi. Turkchada aynan to‘le deb olingan.

O‘zga bir olam!

Ajoyib-g‘aroyib voqealar. Hindiston o‘lkasiga Bobur ko‘zi bilan qaraylik: «Hinduston avvalgi iqlimdin va ikkinchi iqlimdin va uchinchi iqlimdindur. To‘rtunchi iqlimdin Hindustonda yo‘qtur. G‘arib mamlakate voqe’ bo‘lubtur. Bizning viloyatlarg‘a boqa o‘zga olamedur» (342). G‘arib mamlakate! Turfa mamlakatlarning manfaatlari, har xil millatlar, el-elatlar, dinlar, an’analar uchrashgan va duchlashgan diyor.

O‘zga bir olam. Tabiat, iqlim, hayvonot, ziroat, tirikchilik, odamlarning yashash tarzi va ma’naviyati, bari-bari o‘zgacha. Shunisi qiziqliki, bu o‘lkaga xorijdan kelib qolgan kishilar undagi o‘ziga mo‘jizaday bo‘lib ko‘ringan har bir narsa va voqeaga o‘z mavqeい hamda nuqtayi nazari bilan qaragan. Buddaviy borliq va hodisotga islom ummatlarining tushunchalari-yu didlari bilan qaraganda, chindan ham asl g‘aroyib ko‘ringan narsalar yanada sehrliroq mazmun va mundarija kasb etadi.

Dunyoning juda katta qismida hozirgi vaqtida Ovrupo (nasroniy) xalqlarining o‘lchov birliklari hukmron. Shu bois bizda hozirda

aksariyat musulmon va budda o‘lchovlarini bilishmaydi. Biroq Bobur o‘zga mamlakat, boshqa xalqlarning moddiy va ma’naviy qadriyatlariga ular qanday bo‘lsa, shundayligicha qarashdan tashqari, islom dini va madaniyati, mantiqi va tushunchalari, tamoyillari bilan muqoyasaga keltiradi. Natijada juda ajib va jozib muqoyasaviy tarxi yuzaga keladi.

Miqdor va raqamlar tilga kirganda...

Masalan, o‘lchov birliklarini olaylik: *Yana har girini oltmis
bo‘lubturlar har birini pul debturlarkim, bir kecha-kunduz uch ming
olti yuz pul bo‘lg‘ay. Yana har bir pul miqdorini oltmis qatla ko‘zni
yumib ochkuncha depturlarkim. Kecha-kunduz ikki yuz o‘n olti ming
ko‘zni yumib ochkuncha bo‘lg‘ay. Bir pulni tajriba qilildi, taqriyban
sekkiz qatla «qulhuvalloh»ni «bismilloh» bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay* (359). Juda oddiy tuyilgan bu talqin-u atamalarni boshqa tillarga o‘girishda nihoyatda ko‘p xilma-xillik va chalkashliklar uchraydi. Avvalo, o‘lchov birligining nomlanishi pul (359) turkchaga: **pel** (pel. 228), ruschada: **pal** (334), inglizchada: **pal** (**pal, Leyden-Erskin, 240**), fransuzchada: (**pal, Bakye-Grammon, 338**) deb o‘girilgan.

Pul (pul),

Pul (o‘zb)

Pel (turk),

Pal (ingl., fr., r).

Endi: sekkiz qatla «*qulhuvalloh*»ni «*bismilloh*» bila o‘qig‘uncha hamda 28.800 «*qulhuvalloh*»ni «*bismilloh*» bila o‘qiguncha o‘tgan vaqt ni qanday talqin qilish mumkin? Chunonchi professor R.R.Orat: ...bir pelde sekiz defa Kulhuvallah suresi? Bismillah ile birlikde okunabildi... ve...28.800 defa Kulhuvallah ile birlikte okunabilir (328).

O‘zbekchada **Kulhuvalloh** bilan **Bismillohni** o‘qishni turkchaga **Kulhuvalloh** surasi deb talqin qilish, ya’ni birgina sura so‘zining qo‘shilishi bilan «vaqt o‘lchovi»ning uzun-qisqaligini haddan tashqari, qariyb yigirma ming martadan ziyod o‘zgargan (o‘zbekchada kam, turkchada ortiq). Ingliz tilida (Leyden-Erskin va L.U.Kingda) bu tushunchalar keng izohlangan: **By experiment. I found that one pal admitted of the kulhuvullah and bismillah being repeated nearly eight times, so that space of a single night and day, they admit of being repeated twenty-eight thousand six hundred times.**

Satr ostida **Kulhuvalloh** bilan **Bismillohga** shunday izoh beriladi: *The bismillah is the third. and the qulhuwallah the fifth prayer of the standing(qiyam) posture Bismillah is the abbreviated from of the ajaculation (tasmieh)in name of God the Compassionate the Marefu lQulhuwallah are the appening words of the 112 th chapter of the Quran (suratulikhlas) which runs say he is God alone: God the Internal: He begetteth not nor is begotten and there is none like unto Him Hughes Dict of Islam (240).*

Izoh va sharhlar xorijiy kishilar aniqlashlari uchun nihoyatda zarur ma’lumot beradi. Hozirgi o‘zbek o‘quvchilari ham garchi shunday sharh va talqinlarga va undan ko‘lamli matnga, qo‘shimcha ma’lumotlar olishga muhtoj bo‘lsalar-da, biz bu borada hanuzgacha ular darajasiga ko‘tarila olganimiz yo‘q. Matn ichida **Qur'on** atamasi **Kulhuvalloh** buzib yozilgan: **kulhuwallah** tarzida. Bu qo‘pol xato. Izohda L.U.King tuzatgan **qulhuwallah**. Umuman, islomiy atamalar Qur’oni Karim istilohlarini ham ruscha tarjimalarda noto‘g‘ri talqin etilgan. Chunonchi, asarning qayta ishlangan ikkinchi nashrida ham (1993) o‘qiymiz:

Basmala (**Bismila**) – вступление, которого начинается Коран вообще всякое дело сочинение и тп слов (398) D.G.Voronovskiyning yuqoridagi sharhi nashrdan-nashrga tuzatilmay ko‘chirilgan.

To‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525) yil voqealarida «Vaqoye»da o‘qiymiz: *Ya’ni Hind eli vazrlarni tavre tayin qilibturlar: sekkiz rati bir mosha, to‘rt mosha bir tongkim, o‘ttiz ikki rati bo‘lg‘ay. Besh mosha bir misqolkim qirk rati bo‘lg‘ay. O‘n ikki mosha bir to‘lakim to‘kson olti rati bo‘lg‘ay. O‘n to‘rt to‘la bir ser. Bar xud muqarrardurkim, har yerda qirq ser bir botmon bo‘lur, o‘n ikki botmon bir moni bo‘lur. Yuz monini bir minosa derlar. Javohir va marvoridni tong bila tortarlar* (359).

«Boburnoma»da o‘qidik: Bir to‘la zahr... to‘la ikki misqoldin bir nima ko‘praq (376). Bobur Mirzo o‘ziga mo‘ljallangan zahar miqdorini aniq-tiniq qayd etgan. Biroq mavjud tarjimalarda bu miqdor nihoyatda mavhumlashib ketgan. Hatto «aniq» hisob-kitoblarda ham tafovut bir necha barobar ziyod yoki kam. Boshqacha aytganda, shunday bo‘lib chiqadiki, har bir tarjimon Boburga o‘zicha oz yoki ko‘p miqdorda zahar beradi. Chunonchi, Gulbadan begim «Humoyunnomma»da yozishicha, badbaxt Bayda o‘z kaniziga qo‘liga bir to‘lcha zahar tutqazib, shuni Ahmad choshnigir qo‘liga berib aytgilki, shu zaharni qanday qilib bo‘lmisin podshohning xos oshiga solsin. Buning evaziga Bayda suiqasdchilarga ko‘p va’dalar qiladi. Satr ostida mutarjim to‘lcha-jindak deb izoh bergen bo‘ladi (49).

Erskin-Leydenda: *a tola of poison* berilgan bo‘lib, keyingi jumla tushib qolgan. Shorih satr ostida to‘ldiradi: *Add (a tola has been stated above? Is a little more than two miskals).* Shundan so‘ng tola

quyidagicha izohlanadi: *The tola is about the weight of a silver rupee (about 3 drams)*. Mazmuni: tola bir *kumush rupiy* og‘irligicha keladi (3 dirhamga yaqin). Harold Lembda: *A coin’s weight of poison* (267). Mazmuni: tanga og‘irligidagi zahar. Bakye-Grammonda: *Un tula de poison ..(un tula vant un pen plus de deux misqal.comme it a e’t precedemment explique) (351)*. Pirimqul Qodirov: *ikki misqolgina* (454). «Bobur» romanining Yuriy Surovsev tarjimasida: *ikki chimdim*. Яда было мало всего двух щепотки (422). *Михаил Салиеда: тола яда-тола, как упомянуто раньше, несколько больше двух мискалов* (351). So‘ngra mazkur ruscha tarjimada (izohda) quyidagi raqamlar keltiriladi:

8 рати – 1 майса ок. 0.2г
4 майса – 1 танк – 32 рати ок 0.8 г
5 майса – 1 мискал 40 рати ок. 4.1 г
12 майса – 1 тула - 96 рати ок 10.2г
14 тула – сир 143.5 г
40 сир – 1 манбан 5.74 кг
12 манбан – мани 73 кг
100 мани – минаса 729.8 кг (469).

Prof. Rashit Rahmati Oratda: *Tule (trs.s329) hindistan`da kullanilan bir agirlik olcusu (tule = 12 mase = 96 reti miskal`dan bir az fazla ...657)*.

Musulmon o‘lchov va vaznlarining metrikaviy birliklarda ifodalanishi: «tol» hindiy vazn birligi bo‘lib, «tolcha» deb ham yuritiladi. XVI asrda Akbar Mirzo zamonida 12 mosh 1 tolaga teng

bo‘lgan. Binobarin 12.0504 g. (40). Avvalo, bu o‘lchov birligi yozuvda har xil shaklda keladi: to‘la (to‘lcha): tola: to‘la.

<i>1 tula</i>	→ <i>jindak (GB:SA)</i>
<i>(to‘lcha)</i>	→ <i>1 kumush rupiy og‘irligida</i>
<i>zahar</i>	→ <i>yoki 3 dirhamga teng (LE)</i>
	→ <i>tanga og‘irligida (XL)</i>
	→ <i>2 misqoldan oshig‘roq(BG)</i>
	→ <i>2 misqoldan (PG)</i>
	→ <i>2 chimdim (YuS)</i>
	→ <i>2 misqoldan ziyodroq (10.2g)</i>
	→ <i>2 misqoldan ortiqroq (RRO)</i>
	→ <i>12. 0504 g (VX)</i>
	→ <i>11, 232 g (Ibn Sino).</i>

Bobur Mirzoning zaharlanishga qarshi davolashda qo‘llanilgan dorivorlardan gili maxtum taryoqi foruqning ta’rif-tavsif qilinishida tarjimalarda yakdillik sezilmaydi. Leyden-Erskin tarjimasiga izoh bitar ekan L.U.King *gili maxtumni* shunday ta’riflaydi: *Pave de C translates this an intusion of terre sigille wjich is a sort of ochreous earth obtained in the Archipelago Erskine has confused gil (earth) with gul (flawer).* Lyukas King Pave de Kurteylga havola qilib *gili maxtum* lotinchada *terra sigille (zyppe cizille)*deb ataluvchi bir qorishma ekani, bu maxsus gildan (tuproqdan) solib tayyorlanishini tushuntiradi. Shorihning qayd etishicha, Leyden-Erskin tarjimasida *gili maxtumni* «*guli maxtum*» yozib xatoga yo‘l qo‘yilgan. Boshqacha aytganda, *gil (tuproq) gul– flower (chechak)* bo‘lib qolgan. Shunisi qiziqliki, xuddi shunday qusur turklarda ham uchraydi: matn ichida **Gil-mahtum**

yozilib, kitobning «**Not**» qismida ham **Gil-mahtum** deb beriladi-yu, so‘ngra **Gil-mahtum** so‘ziga havola qilinadi (611). «*Gil-mahtum bir nevi okrлу топрак (tera sigilata) olup zehirlenmelere karsi ilak olarak kullanılır krs bir de Sami Kil (frs.gil)* “bas yikamaga yarar, yesilimtrak ve uzucetli bir cins toprak: kil-I mahtum,bunun bir cesidi» (609-610). Ehtimol, gili maxtumni Leyden-Erskin bilan prof, R.R.*Orat gil:gil (gil:gul)* deb yozib chalkashishgan ekan, nuqsonning manbai bir bo‘lishi mumkindir. **Taryoqi foruqni** L.U.King shunday tushuntiradi: *These Terriaks are antidotes used to avert the effects of poison (tiriaki faruk-the finest of antidote (250).. Zaharlanishga qarshi qo‘llaniladigan eng yaxshi dori-darmon.* Harold Lemb buni: *come arak mixed with an antidote* – zaharlanishga qarshi araqqa solib tayyorlangan aralashma deya izohlaydi. Turkcha tarjimada: **Tiryak-I faruk..Babu`un zehirlendi esnada kulandigi ileadan biri bk Sami. Zehre ve bazi emraza karsi istimal edilen bir cins macunun meshur terkibi (655).** Demak, ma’jun sharbatiga solib tayyorlanadi.

II BOB. XAT USLUBI: MURAKKABLIK VA SODDALIK BAHSIDA

Humoyun Mirzoga bitilgan maktub

Odina kuni oyning o‘n to‘rtida xat va kitobatlar tayyor bo‘lib, Bayonshayxqa topshurub, ruxsat berildi. Shanba kuni oyning o‘n beshida Ogradan uzadi.

Humoyung‘a bitilgan xatning savodi:

«*Humoyyug‘a mushtoqliklar bila sog‘inib salom degach, so‘z degach so‘z ulkim, dushanba kuni rabiul-avval oyining o‘nida Bekkina bila Bayonshayx keldilar. Xatlardin va arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holot mushaxxas va ma’lum bo‘ldi.*

Shukr, bermish sanga haq farzande,

Senga farzandu, manga dilbande.

Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro‘zi qilg‘ay, omin yo rabbal-o-lamin. Otini Al’amon qo‘ymishsin. Tengri muborak qilg‘ay. Vale bovujudkim o‘zung bitibsen, mundin g‘ofil bo‘lub senkim kasrati isti’mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o‘zga mundoq alif-lom otga kam bo‘lur. Tengri otini va zotini farxunda va muborak qilg‘ay, manga va sanga ko‘p yillar va bisyor qarnlar Al’amonni davlat va saodat bila tuga bergay.

Tengri taolo o‘z fazl va karami bila bizning ishimizni yasaydur. Bundoq qopu qarnlarda topilmas. Yana seshanba kuni oyning o‘n birida arojif xabar qildikim. Balx eli Qurbonni tilab Balxqa kiyurmishlar.

Yana Komrong‘a, Kobuldan beklarg‘a farmon bo‘ladikim, borib sanga qo‘shulib, Hisor yo Samarqand yo har sorig‘akim saloxi davlat bo‘lsa yurugaysiz. Tengrining inoyati bila yog‘ilarni bosib, viloyatlarni

olib, do 'stlarni shod, dushmanlarni nigunsor qilg'aysiz, inshoollohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringuzdur. Qopuda kelgan ishni taqsir qilmangiz. Garonjonliq bila kohilliq podshohlik bila rost kelmas.

*Jahongire tavaqquf bar nayobad,
Jahon onro buvad ko‘ beh shitobat,
Hama chiziziro ‘i kadxudoi.
Sukun meyobad illo podshoyh.*

(Mazmuni: Jahongirlilik to‘xtab turmaydi, kim yaxshi tirishsa, jahon o‘shaniki bo‘ladi. Hayotda har bir narsa to‘xtashi mumkin, ammo podshohlik to‘xtamaydi).

Agar tengri inoyati bila Balx va Hisor viloyati muyassar va musaxxar bo‘lsa, Hisorda sening kishing bo‘lsun, Balxta Komronning kishisi bo‘lsin. Agar tengri inoyati bila Samarqand ham musaxxar bo‘lsa, Samarkandta sen o‘lturg‘il, Hisor viloyatini inshoolloh, xolisa kilg‘umdur. Agar Komron Balxni ozirg‘ansa, arzodasht qiling, inshoolloh, aning kusurini o‘shal viloyatlardin – o‘q rost qilg‘umizdur. Yana sen o‘zing bilib edingkim, doim bu qoida mar’iy edi: olti hissa senga bo‘lsa, besh hissa Komrong‘a bo‘lur edi. Hamisha bu qoidani mar’iy tutib mundin tajovuz qilmang. Yana ining bila yaxshi maosh qilg‘aysen. Uluqlar ko‘tarimlik kerak, umidim borki sen ham yaxshi ixtidod qilg‘aysen. Aning ham mutasharri’ va yaxshi yigit qo‘yibtur, ul ham mulozamat va yakjihatlikta taqsir qilmag‘ay. Yana sendin ozroq ginam bor, bu ikki-uch yildin beri bir kishing kelmadi. Men yiborgan kishi ham rost bir yildin keyin keldi. Mundoq bo‘lurmi? Yana

xatlariningda yolg‘uzluk yolg‘uzlukim, deb sen podshohlikta aybdur, nechukkim debturlar.

*Agar poy bandi rizo pesh gir va
gar yaksuvori sari xesh gir*

(Mazmuni: Agar oyog‘ing band bo‘lsa, rizoni oldinga qo‘y, agar tanho suvori bo‘lsang, o‘z boshingcha bor, ya’ni jahonga bog‘langan bo‘lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo‘l, agar hech narsaga bog‘lanmagan kishi bo‘lsang, yo‘lingdan qolma, keta ber).

Hech qayde podshohliq qaydicha yo‘q tur. Podshohlik bilan yolg‘uzluq rost kelmas. Yana men degandek, bu xatlariningni bitibsen va o‘qimaysen, ne uchunkim agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘quyolmas eding. O‘qiy olmagandin so‘ng albatta tag‘riy berur eding. Xatingni hud tashvish bila o‘qisa bo‘ladur, vale asru mug‘laqtur. Nasre muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni “to” bila bitibsen. Qulunjni “yo” bila bitibsen. Hatingni hud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsad tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat bitirda kohillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo‘lur va o‘qug‘uchig‘a.

Yana uluq ish ustiga borasen, ish ko‘rgan, ray va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so‘zi bila amal qilg‘aysen. Agar mening rozimni tilarsen, xilvatnishinlikni va el bila kam ixtilotlikni bartaraf qilg‘il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig‘a qo‘ymay, qosningg‘a chorlab, har maslahat bo‘lsa, kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so‘z unga qaror bergaysen. Yana Xoja

Kalon mening bila gustohona ixtilot qila o'rganib edi, sen dog'i nechukkim ixtilot qilgaysen. Tengri inoyati bila ul sorilar ish ozroq bo'lsa, Komrong'a ehtiyoj bo'lmasa, Komron Balxta mazbut kishilarni qo'yub, o'zi mening qoshimga kelsun. Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo'ldi, Kobulni shugun tutubturmen; ani xolisa qildim. Hech qaysingiz tama' qilmag'aysiz.

Yana yaxshi boribsen, Sulton Vaysning ko'nglini olibsen, ani koshingga kelturub, aning ra'yı bila amal kilg'aysenkim, ish bilur kishidur. Cherikii yaxshi yig'ib yurgaysen. Og'iz so'zlaridin Bayonshayx sohib vukufdur, ma'lum bo'lg'usidur, deb mushtoqliklar bila salom. Panjshanba kuni rabiul-avval oyining o'n – uchinda bitildi. Komrong'a va Xoja Kalong'a dag'i ushbu mazmun bilan o'z ilgim bila xatlar bitib yibordim» (420-422).

Matnda ma'nosini hozirgi vaqtida anglash ancha dushvor bo'lgan so'zlar bor: **uzamoq, savod (xatning savodi), arzadosht, mushaxxas, ro'zi, Al'amon, Alomo, El Amon, farxunda, qarn, qopu, arojif, yog'i, nigunsor, garonjliq, qohillik, musaxxar, xolisa, ozirg'anmoq, maosh, ko'tarimlik, ixtilot, mutasharri', qo'ymoq (yigit qo'ymoq), qayd, tag'yir, asru, mug'laq, nasri muammo, alfoz, mafhum, ray, gustoh, sori, mazbut, shugun ...**

Nasriddin Muhammad Humoyunga yo'llangan maxfiy vasiyat

Biz Germaniyaga qilgan ilmiy-tadqiqot safarimiz davomida Berlin Davlat kutubxonasidan mazkur xatning inglizcha, forscha nusxalarini, maqola muallifi, sharqshunos, boburshunos olim Henri Beverijning ayrim izoh va qaydnomalarini qo'lga kiritdik. Ushbu maqolada mazkur

xatning mazmunini, matnni aynan o‘zini keltirib, olimning haqiqat va faraziyaga oid fikrlarini o‘rtaga tashlashni niyat qildik.

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z o‘g‘illari (uning Humoyun, Komron, Hindol, Askariy ismli o‘g‘illari bo‘lgan)ga va boshqa kishilarga yozgan maktublarining ayrimlari uning «Boburnoma» asariga kiritilgan. Lekin bir qator maktublari va vasiyatnomalari hech qaysi manbalarda uchramas edi.

2000-yilning oktabr-noyabr oylarida Xalqaro Bobur fondi tashabbusi bilan Zokirjon Mashrabov boshchiligida yangidan ekspeditsiya uyuşhtirilib, Hindiston, Pokiston bo‘ylab Bobur qadamjoylariga ziyorat qilib qaytildi. Ekspeditsiya a’zolari Bobur haqidagi yana ko‘pdan-ko‘p yangi materiallarni olib qaytishdi. Bu materiallar orasida katta ilmiy qimmatga ega bo‘lganlaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning katta o‘g‘li Nasiriddin Muhammad Humoyunga atab yozgan maxfiy vasiyatnomasıdır. Humoyun Boburning katta farzandi bo‘lib, 1506-yilda Qobulda tug‘ilgan. Bobur sevimli xotini Mohimdan tug‘ilgan bu farzandini juda yaxshi ko‘rgan. «Boburnoma»da uning sha’niga juda ko‘p iliq so‘zlarni yozib qoldirgan. Bobur uni o‘ziga valiahd qilib tayinlash bilan birga, unga davlatni boshqarishni tinmay o‘rgatib borgan. Yozgan xatlarida ham (bu xatlarning ayrimlari «Boburnoma»da berilgan) odamlar bilan, ukalari bilan, bek, amaldorlar, sarkardalar bilan muloqotda bo‘lish haqidagi yo‘l-yo‘riqlarini bayon qilgan.

Z.M.Bobur mamlakat iqtisodiyotining asosiy belgilovchi omillari, soliq siyosati va boshqa muhim masalalar haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi «Mubayyin» asarini ham Humoyunga atab, mamlakatni idora

etishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi dastur-ul amal sifatida yaratgan. Humoyun ham otasiga sadoqatli farzand sifatida padari buzrukrori ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlarga amal qilgan. U Panipat jangida ajoyib sarkardalik mahoratini namoyon etgan. Agrani egallagan. Humoyun boshqa o‘ljalar qatorida mashhur «Ko‘hinur» deb ataluvchi sakkiz misqolli olmosni qo‘lga kiritadi. U olmosni otasiga taqdim etadi. Bobur esa olmosni Humoyunning o‘ziga tortiq etadi. Bugina emas, Bobur o‘lim to‘sagida yotgan Humoyunning boshidan uch marta aylanib, Alloh taologa iltijo qiladi, o‘z jonini o‘z o‘g‘li uchun, o‘g‘lining dardi uchun berishga tayyorligini aytadi. Bu hol Boburning o‘z o‘g‘li Humoyunni naqadar sevishligini, unga bo‘lgan chuqur va samimiy muhabbatini aks ettirishi bilan birga, Boburning mehribon ota sifatidagi qiyofasini ham belgilaydi.

Ma’lum bo‘lishicha, Bobur Humoyunni davlatni boshqarish ishlariga tayyorlash uchun og‘zaki yo‘l-yo‘riqlar berish, maktublar yozish, unga atab risolalar yaratishdan tashqari, maxfiy vasiyatnomalar ham bitgan ekan. Z.M.Bobur Xalqaro fondi ekspeditsiyasi a’zolari tomonidan qo‘lga kiritilgan vasiyatnama ana shulardan biridir. Bu vasiyatnama 1529-yil 11-yanvarda (hijriy 935-yil jumodul avval oyining birinchi kuni) Agra shahri yonidagi Nilufar bog‘ida dam olayotgan paytda Bobur tomonidan yozilgan. Mazkur maxfiy vasiyatnama «Boburnoma»ga kirmagan. U uzoq vaqt Hindistondagi Bopal davlat kutubxonasida saqlangan. 1921-yili 11-dekabrda tarixchi olim Nat janoblari undan nusxa ko‘chirib olishga erishadi. Keyinchalik eronlik professor Shervani ham bu bilan qiziqib, bu nusxani o‘qishga muvaffaq bo‘ladi. Professor Nat janoblaring «Hindiston Bobur

nigohida» risolasida bu «**maxfiy vasiyatnama**»ga alohida o‘rin berilgan. Quyida «**maxfiy vasiyatnama**» matnini keltiramiz.

نصیحت نامه ترکی

حضرت بابر پادشاه غازی طاب ثراه از هندوستان
بقدنهار بهیرزا کامران فرستاد.
فرزند ارشد ارجمند سعادت نشان مجدد کامران بهادر کا
سلام محبت انجامدین سونگک اول کیم کولکاتاش و
ایملشاش و ایچکی لارنیک بیلان سبق او قورغه رجوع
کیلتوروب آیرمیش سین بوجهه تین کونکوله سرور و خاطره
حستور بیتب بسیار خوشحال لیق بوزیری تنکری تعالی
ذی درین کاعده اسیدیم بارکیم جمیع قابلیت و صلاحیت
باید اکامل و مکمل بولوب کمالغه بیتکای سین همیشه او شهرو
طربقندی مرعنی توتوب زنهار تقدصیر قیلماغای سین نیچوک

و در شوره خار و خس ♦ حضرت مولانا جامیدین بوقطعه
 مشهور دور ♦ هر که ناکس بود در اصل سرشت پتقالیب
 دهرکس نشود ♦ سک مکس را اکرکنی مقلوب قلب او غیر
 سک مکس نشود ♦ و تاقی ماورا النهار ایلی بسیار ساده لوح
 ایلدورلار هرینچه نی قابلیت بولسده لار الارکا اعتماد قیلسه بولور
 پتحضیص اول قرص شبستانی نینک شمع انوری و ریاست
 کلستانی نینک عندلیب سخنوری حضرت خواجه عبید
 الله خواجه کیم امداد قیلیب تورلار تا غایت بوالیشك لارنی
 دولتی اول عزیزلار نینک همتی دین دور اول سلسله نینک
 مرید و اصحابی پادشاه زاده دیب سنکا کیلسه لار زنهار
 اکرام و اغوار لارینی مرعی توتوب الارنینک باره سیدا تقصیر
 قیله اغای سین الار کیم عشق بابیندا بولور لار سیوار لار نینک
 آتینی هم سیور لار تاقی هندوستان کیفیتی نی فتح نامه دین
 معلوم قیلغونک دور ابراهیم کیم هندوستان پادشاهی بولگای
 آنینک اوغلی قولغه توشو بتور انى سین فرزند دلبند کا
 پیبار بلدی نیجوك کیم آنینک احوالیدین خبردار بولوب
 او زونک مقید بولگای سین موندین سونک کیم هر واقعه
 بوز پیر سه ارسال قیلغومیز دور و السلام ♦

Lettre conteñant les conseils envoyés par sa majesté Bâbour, le monarque victorieux (qui repose en paix), de l'Hindoustan à Quandahar, à Mirza Kâmrân.

A mon brave et excellent fils, le signe du bonheur, *Mohammed Kâmrân Behader*, après l'avoir salué amicalement.

En premier lieu, c'est avec contentement, avec espérance et une joie intérieure que j'apprends ton retour. Tu es arrivé, cette nouvelle a ravi mon ame et l'a comblée de plaisir. Dieu le très-haut nous a procuré un grand bonheur. En t'écrivant cette lettre, j'espère que tu te trouves dans un bien-être complet, dans une conservation parfaite, et que tu parviendras à la plus grande perfection. Aye soin de suivre la route qui y conduit; prends garde de ne commettre aucune erreur, car l'excellent *Khodja Hafidz* a dit : « Les vieillards parlent par expérience; je te dis : Sois attentif, ô mon fils, deviens vieillard et prête l'oreille au conseil. »

J'ai entendu dire du peuple de *Djagatai*, qui resta après l'auguste sulthan *H'ussein Mirza* (que ses fautes lui soient pardonnées et qu'il soit bienheureux), qu'une grande partie de ce peuple avait contracté des alliances avec celui du *Khô-*

rassân. Il montre beaucoup de capacité et d'intelligence, et il n'est pas dépourvu de douceur. Mais bien que les habitans du Khôrassân soient doués d'un assez bon caractère, et qu'il n'y ait rien à dire sur leur sagacité, il y a cependant du doute dans leur croyance et dans leurs sectes. Ils sont turbulens; les enfans se séparent des pères et les pères de leurs enfans; leurs paroles, quoique agréables, sont trompeuses. Ainsi, pour ton propre intérêt, ne les laisse pas sortir de la soumission.

Parmi la nation turque il y a la famille de *Toura Gourgân*, dont le père était *Qoul bachlaghan*, et la mère *Touy bachlagan* (1). Leurs ancêtres étaient au service de nos pères; ils leur étaient très-dévoués, et ne les quittèrent pas un seul instant, ni dans le chaud ni dans le froid, ni dans la guerre ni dans le repos, les servaient avec zèle et se rendaient très-agréables. Comme la fidélité de cette famille est éprouvée, tu ne manqueras pas de te concilier son attachement, et de leur accorder toute ta confiance.

Pour ce qui est des jeunes gens, il faut éviter avec le grand soin d'agir d'après leurs paroles,

(1) *Qoul bachlaghan* et *Touy bachlagan* sont vraisemblablement deux noms de charges à la cour. Le premier peut signifier *chef des domestiques*, et l'autre, *surveillante du garde-manger*.

et ne leur confier aucune affaire difficile. Tiens conseil avec les *Beg*; réunis les gens d'un esprit éminent, s'ils sont bien disposés pour ton bonheur. Ne rejette jamais les bons offices et les conseils salutaires de ceux qui sont parfaitement au fait des affaires importantes, et qui conduisent bien les grandes entreprise, dis - leur plutôt : « Soyez bienvenus. » Quant à ceux qui veulent te tromper par de belles paroles, et qui feignent d'être bien disposés pour toi, s'ils disent quelque chose qui peut contribuer au bonheur général, entends, vois, et t'en pénètre; mais si devant toi ils ne te disent que des flatteries, ne leur accorde pas de récompenses, si tu t'aperçois que ce ne sont que de faux éloges. Enfin beaucoup de gens veulent être le tambour qui conduit l'armée; mais le proverbe dit : « Ce qui fait pleurer l'ami, fait rire l'ennemi. » Ainsi si tu reconnais un ami ou un ennemi, agis d'après cette maxime : « Avec la rose, sois rose ; avec l'épine, épine. »

L'armée de *Qandahar* est obéissante; cependant n'y fais pas entrer un cavalier, qu'il ne soit recommandé d'un petit ou d'un homme honorable. En cas d'accident, cherche la porte et sois à cheval.

Si tu commences une affaire, si tu convoques un conseil, prends garde que tout se traite d'après

les lois , et fais une bonne disposition. En donnant ton cœur à ceux qui te veulent du bien , en leur parlant avec bonté , et en adressant au reste du peuple des paroles agréables , tout ira parfaitement bien.

Ne te mets pas en marche sans avoir mûrement réfléchi ; car en entendant et voyant , on peut tirer du profit de ce qui est loin et près .

Quant aux gens d'une basse extraction , quoiqu'ils aient de bonnes mœurs et du talent , il ne faut pas , après avoir soigné leur éducation , les employer dans les affaires du royaume . Aussi l'illustre *Cheikh-Saadi* dit : « L'homme vil ne devient pas noble par l'éducation ; ô sage ! dans le jardin croît la tulipe , et sur le terrain aride , l'épine et le chardon . » De même le distique de l'excellent *Mewlana Djami* est très-connu et dit : « Chaque homme brut l'est dans le fond de sa nature , et par aucun changement il ne deviendra homme du monde . Si tu retournes سگ مکس sag meges (c'est-à-dire *mouche de chien*), retourné il ne sera autre que *sag meges* (1) . »

(1) La mouche qui pique les chiens , qui sont les animaux les plus méprisables chez les mahométans , est naturellement regardée par ceux-ci comme l'insecte le plus vil . Cette mouche s'appelle *sag meges* ; si on lit ce mot à rebours , il reste le même et il a toujours le même sens .

Podshoh Bahodir G‘oziy Zahiriddin Muhammad
Bobur, 933 hijriy.

Alhamdulillah.

Mamlakat (sultanat)ning poydevoriga yozilgan. Ey, farzand: Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollohu va taolo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatgaadolatli bo‘l. Xususan, sigirni Qurban qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilg‘in. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir, zulm tig‘i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko‘zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e’tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan holi bo‘ladi.

Hazrat Sohibqiron Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingda bo‘lsin. Shunda davlating ma’mur va puxta bo‘ladi. Biz yetkazib qo‘yamiz xolos .

Jumodul avval oyining birinchisi, 935 hijriy sana.

Maxfiy vasiyatnomaning matnidan ma’lum bo‘ladiki, Bobur Hindistondek ulkan mamlakatda turli din va mazhabdagi xalqlar yashashini ta’kidlab, ularning urf-odatlarini hurmat qilish, ichki ishlariga aralashmaslik, xususan, hindlar tomonidan e’zozlanuvchi sigirlarga tegmaslik, ularni so‘ymaslik kerakligini uqtiradi. U har bir ishda adolatli bo‘lishga, xalqqa behuda zulm qilmaslikka chaqiradi. Islom dinini zo‘rlik bilan emas, balki xayr-ehson qilish yo‘li bilan yoyish

mumkinligini ta’kidlaydi. U hatto islom dinidagi sunniy va shia oqimlarining ichki ishlariga aralashmaslikni, hamma din va e’tiqoddagi kishilar ni teng tutish lozimligini ta’kidlaydi. Z.M.Bobur o‘g‘liga vasiyat qilarkan, uning har bir ishda bobokaloni hazrat Amir Temurning ish uslubidan o‘rganish lozimligiga e’tiborni qaratadi.

Ushbu maxfiy vasiyatnomasi ulkan davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatni boshqarish usullari, diniy mazhab va e’tiqodlarga bo‘lgan munosabati o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu vasiyatnomada ilgari surilgan ilg‘or siyosiy qarashlari Bobur va uning vorislari tomonidan izchillik bilan hayotga tadbiq etilgan. Xususan, bu tamoyil Boburning nabirasi Akbar hukmronlik qilgan zamonda keng qo‘llangan. Natijada butun Hindiston birlashib, jahonga yagona mamlakat sifatida tanilgan, Akbar esa musulmonlarnigina emas, hindlarning ham sevimli hukmdoriga aylangan.

Komron Mirzoga xat

Hind – uniki, u – Hindniki edi

«Boburnoma» kemtiklari haqida gapirganda, olampanohning o‘z o‘g‘illari va o‘ziga yaqin-yovuq kishilariga turli yillarda bitgan maktublari orasida ajoyib-g‘aroyib bir nastihatnomasi borki, bu farzandi Komron Mirzoga yo‘llangan va buni to‘la keltirmaslik, maxsus tahlildan o‘tkazmaslikning iloji yo‘q. Tabiiyki, Bobur zaharlanishi to‘g‘risidagi tafsilotlardan o‘ziga yaqin kishilarini xabardor etgan.

Ma’lumki, Bobur podshoh hazratlari insoniy olijanobligi, shoirona mijozи va darveshona kayfiyati orqasida o‘zining kechagi qattol g‘animi bo‘lmish Ibrohim Lo‘diyning oilasini himoya ostiga oladi. Onasi bibi

Baydani va o‘g‘lini o‘limdan saqlab qoladi. Baydani o‘z onasi o‘rnida ko‘rib, shunga muvofiq muomalada bo‘ladi. Shunisi tahsinga sazovorki, Baydani bir emas, ikki marotaba qatl etishdan saqlaydi. Biri – Lo‘diyning halokatidan so‘ng. Yana biri – aynan o‘sha Bayda Boburning joniga suyiqasd uyuştirganidan keyin. Birgina mana shu hodisaning o‘ziyoq Bobur Mirzoning qanday inson va nechuk shoh bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. Ayolning bu qadar g‘addorlik qilishi nari tursin, ehtimol, birgina «gunohi» – Ibrohim Lo‘diydek bir zolimning Hind tuprog‘iga «hadya» etgani-tuqqani uchun lo‘diylar saltanati barham topganidan keyin eng oliy jazoga munosib bo‘lganidir. Biz shoh va shahzodalar o‘rtasidagi manfaat mantiqiga ko‘ra aytayapmiz bu gapni. Chunki qonli tarix sahifalarida alalxusus, boshqalardan ham ko‘ra aynan temuriyzodalar «tajribasida» bunday hollar juda ko‘p uchragan. Mo‘min Mirzo, Gavharshod begin, Mirzo Ulug‘bek va boshqalarning fojeali taqdiri, Abusaid Mirzo, Abdullatif, tag‘in o‘zga o‘nlab qotil podshohlarning ishlari buning jonli guvohi emasmi? Mag‘lub bo‘lgan podshoh, amir, lashkarboshilarining oilalari: onalari, zavjalar, opasingillari, aka-ukalari osilgan, kesilgan, quvilgan va tahqirlangan. Manfaatlar to‘qnashgan joyda ota o‘z bolasini, o‘g‘il padari buzrukvorini, aka esa ukasini ayamaydi: o‘ldiradi, ko‘ziga mil tortadi, quvadi, zindonband qiladi. Turgan gapki, bunday yo‘l tutganida har qancha zabardast, aql-idrokli va noyob nodir sohibi, iste’dodi bo‘lganiga qaramay Bobur Bobur bo‘lmasdi. Ne tong! Onhzrat hatto raqibi uning joniga qasd qilib turganida ham boshidan tanasini judo qilmadi. Zotan dushmanidan qasd olish odatiy hol, tushunarli, balki lozimdir ham. Buning uchun insonga katta aql kerak emas, ammo bunday qilmaslik,

g‘animga ham uning jonini hadya etish uchun chindan ham teran idrok, saxiy qalb kerak. Buning uchun Bobur kerak. Bilmadik, olampanohni favqulodda bu yanglig‘ qaror qabul qilishga qanday holat va sababiyat undadi ekan? Balki Baydaning ayol kishi bo‘lganligidir. Ehtimol, ona bo‘lganligi. «Shunchaki» ona emas, o‘z raqibining onasi bo‘lganligi! Mayli-da, kimning qanday onasi bo‘lishidan qat’i nazar ona – bu ona. Ajabmas, bir zamonlar o‘z onasi Eson Begim, singlisi Xonzoda Begimning Shayboniyxon tomonidan ozod qilingani ko‘z oldiga kelgandir? Muhammad Shayboniy ham qasd-qasos yuzasidan Bobur xonadonini tag-tugi bilan yo‘qotib, zer-zabar qilib yuborishi mumkin edi-ku. Bunday qilmadi. Endi nega Ibrohim Lo‘diyning onasi va farzandlariga nisbatan bunday qilishi kerak. Nima, uning Shayboniyxonchalik himmati yo‘qmi? Bobur Mirzoning ishlarini tushunish, unga baho berish uchun buni bilish kerak. Bu insonning vujudida ikki shaxs yashar edi: shoh va darvesh, sarkarda va shoir, donishmand va ojiz banda... Ojiz? Nechuk-ojiz?!

Turkona oliyanoblik, temuriy g‘urur

Bobur o‘ziga, zotiga, nasl-nasabiga shu qadar fidoyi va sodiq ediki, o‘ziga o‘zi qarshi kurasha olmasdi, ammo bunday o‘ziga, o‘zligiga sadoqat aslida ojizlikmi yoki sobitlik? Gap faqat shaxsiy nafsoniyatda ham emas, balki turkiy saltanat, turkiy nasl-nasab haqida borardi. U ko‘pmillatli bir ulkan mamlakat podshosi sifatida o‘z qo‘l ostidagi barcha millatlar va elatlarga bosh hamda mas’ul. **Hind – uniki, U – hindniki edi.** Binobarin, hind tuprog‘ida u nimaiki bunyod etibdi, barini shu mamlakat sha’n-shavkatni uchun qildi. Ezgu maqsad yo‘lida uyushgan odamlarni «**seniki**» – «**meniki**» – «**o‘zimniki**» – «**begona**»

degan toifalarga ajratmadidi. Ayni vaqtida milliy sulolaviy hamda shajaraviy mansublik tarafidan bul zot turk o‘g‘li edi va bu bilan faxrlanardi. Turkiy mansublik uning uchun shunday sharaf shohsupasi ediki, bunga dog‘ tushirishga, isnod keltirishga aslo toqat qilolmasdi. U o‘z davrining farzandi edi. Ammo u inson edi. Matlabi – inson. Inson bo‘lganda ham, hamma davr kishilari: xoh arab yoki ajam, xoh ingliz, farang, olmon bo‘lsin uni tushunadigan va ulug‘laydigan bir zot edi.

Vaziyat insonning o‘zidan ham kuchli, deydilar. Agar hamma inon-ixtiyor unda bo‘lsaydi! Ie, u shoh edi-ku, Xudo yarlaqagan banda. Hamma joyda ham amri podsho vojib. Yana nechuk inon-ixtiyor?! Alloh baniy Odamni shunday yaratdiki, uning uchun shoh-u gado barobar. Botinan har bir kishi o‘ziga o‘zi shoh. Binobarin, har bir shohda bir inson yashamasligi mumkin, ammo har bir shaxsda o‘ziga xos bir podshoh yashaydi! Ha, Alloh taolo va taqdiri azal qarshisida podshoh ham ojiz. U ham barcha xom sut emganlar qatori bir odam. O‘zining barcha oliyjanob xislatlari, ojizliklari bilan. Uning telbaligi bilan butun bir xalqning yostig‘i qurib ketishi mumkin. Ammo o‘zi bitta chumoliga ham jon ato etolmaydi. Faqat nomi Shoh. Shuning uchundirki, «*boyonlar ham yig‘laydilar*»-da.

Bir tushkun kayfiyat, bir so‘nik xayol, bir umidsiz, achchiq qismat jilvasi asnosida, yodingizda bor, u yozmishdi:

*Kishini jonig‘a dushman, balodir boshig‘a bu el,
Agar boshin tufayl aylab va gar jonin nisor etsa,
Diyori yordin Bobur jafou javr ko‘p ko‘rdi,
Xush ulkim yordin qat’ aylabon tarki diyor etsa.*

Ammo u o‘z elidan yuz o‘girishga, o‘z yoru diyorini tark etishga yuz tuta turib ham, bir umr ularga sodiq bo‘lib qoldi. Shu turkiy el-ulus, vatan, shu yurt, shu iqlim, cho‘l, tog‘-tosh, dala-tuz uchun yashadi.

Jono Xoliqdin o‘zga so‘z yo‘q

«Nasihatnomai Bobur ba farzandi xud» (Boburning o‘z farzandiga nasihatnomasi) nomi bilan mashhur bo‘lgan xat 1527-yil 4-yanvarda Mulla Sarson degan kishi orqali Komron Mirzoga yuborilgan. Hikmatu nasihatlar bilan sug‘orilgan bu maktub nechundir «Boburnoma»ga kirmay qolgan. Ingliz sharqshunosi Henri Beverijning ma’lumotiga ko‘ra bu juda muhim xat, Bobur Mirzodan Komronga yuborilgan bu maktub haqidagi ma’lumot biron bir, hattoki, Yevropa adabiyotida, na biron bir qo‘lyozmada uchramaydi. Xatning topilish tarixi shunday.

Xat asliyatning (Bobur o‘z qo‘li bilan bitgan xat) o‘zi emas, balki uning ko‘chirilgan nusxasi. Unda anchagina g‘alatliklar ham bor ekan. 1972-yili Qozon dorilfununi kutubxonasida saqlanayotgan o‘zbek adabiyoti namunalarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, daf‘atan Boburning o‘g‘li Komronga yozgan xatiga duch kelib qoldik, – deb xabar beradi filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov. Mazmuniga ko‘ra, bu o‘sha Mulla Sarsondan yuborilgan maktub edi. Maktub....1272-T raqami ostida «Nodir qo‘lyozmalar bo‘limi»da saqlanmoqda. Qozon dorulfununi dotsenti, taniqli tatar adabiyotshunosi Xatib Minigulov iltimosimizga ko‘ra, mazkur maktubning fotonusxasini yubordi. Biz ham, o‘z navbatida, uning inglizcha nusxasini qo‘lga kiritib, forsiy nusxasi bilan solishtirib, tahlilga tortdik. Bu muhim topildiq kim tomonidan, qayerda va qachon ko‘chirilgani ma’lum emas.

**TRANSLATION, FROM THE TURKI, OF THE
HORTATORY LETTER SENT FROM INDIA BY
KING BABUR THE GHAZI, R.I.P., TO HIS SON
MIRZA KAMRAN AT QANDAHAR**

«My dear, honoured and auspicious son Mirza Kamran Bahadur.

After sending you my love, I desire in the first place to express the peace of my soul and the delight of my heart at hearing that you yourself, your foster-brothers, your saddle-comrades, and your other intimates, have returned to your old studies⁵.

I record in this paper a hundred thanks to Almighty God for this favour. I trust that you will continue in your good way and that you will acquire abilities and graces and eventually attain to excellence. See that you fall not away from the good course and that you bear in mind the words of his holiness Khwaja Hafiz. «*Old men speak from experience*». «*Yes, I say unto you, my child, give ear to the instructions of the aged*».

I hear that those Chaghatais who stayed in Herat after the death of Sultan Husain Mirza, R.I.P., became yet more allied with the people of Khurasan, and so became alienated (qupub-: from their old ways in Transoxiana). They developed much ability, and acquired graces, (but) thought the Khurasanis are a pleasant folk, and there can be no question about their cleverness, there is doubt about their religion and their principles, and they are a nation of make-bates and agitators. The sons are alienated from the fathers, and fathers from the sons. Do not be deceived by their plausible ways, and for your own safety's sake, do not let them get out of hand.

⁵ Sabaq aqüryha. I am not sure of the meaning.

Among the Turkish tribes there is a house which observes the Gurgan customs (tora gurgan) and in which the fathers have been for generations the chiefs⁶ of actions, while the mothers have been the chiefs of domestic matters. They have served our family with life-long devotion. In heat and in cold, at home and abroad, they have not for a minute, or the twinkling of an eye, swerved from their duty, and have always done good service. Study this family, proceeding steadily along like a good roadster⁷ and select from it, after examination, your chief minister (vakil matlaq). Do not neglect this. As for young men, do not let yourself act according to their words and don't put any affairs into their hands. Act according to the opinions of thoughtful Begs who are of lofty mind, and who honestly express their opinions (*qarājīi*. See P.de C.Dict., p.417s.v. *qarajīi*). Never neglect the sentiments of those who have been versed in business, and in deliberations, and discussions! Be not misled by flatterers and plausible people. Should they chance to say anything to the purpose, hear it, see it and perpend it. It may, however, happen that what at first looks sound turns out to be a quite old drum and so a thing to furnish sorrow to friends and laughter to foes. (Perhaps there is an allusion to the story of the Fox and the Drum Anwārī Sohailī. Eastwick's translation, Story VII of Chap.I.)

Discriminate (tanib, having recognised) between friends and foes. As the verse has it, «*In the flowerbed, a flower, in the thorn brake, a thorn*».

⁶ Quil bashlaghan. See P.de Courteille's Dict., pp. 150.151 s.v. bashlamaq. The word bashlagan occurs again, p. 150. of zklaproth's article nine lines from foot. Can the family have been that to which Bairam Khan belonged, and be descended from the 5 or 6,000 Turkamans who entered the service of Babur's grandfather? Can the two women who accompanied Babur's flight from Samarkand in 1502 (Haid, f.95) have belonged to it?

⁷ Sabaq aqüryha. I am not sure of the meaning.

As regards (*tāqī*, again, item) the Qandahar army, it is a militia (*ihshām*). Do not accept a recruit on the recommendation of an ordinary⁸ person of no particular importance, but in case of necessity appoint any one that you think fit. Observe the procedure of the leaders of assemblies, follow the rules and ceremonies of the Gürgāns (*tora tawaqa gürgān tuzük*) see P.de C. Dict.240, s.v. *tawaqa* and Haid MS., 237^b); be hearty and frank with your well-wishers, and speak politely to people in general. Set out on an expedition after full preparation. Listen to everybody, and get acquainted with everybody whether they are far off or near at hand. As for insignificant and meanly-born people, do not educate them or employ them in state-affairs, even though they be well-dispositioned and possessed of ability. As his Excellency Shaikh S'ādi has said: «*A nobody doesn't become somebody being educated. Tulips grow in gardens, weeds and thorns in saline soil*». *Hazrat Maulānā Jāmirs verse is well known*: «A really worthless person doesn't become efficient by change of circumstances. Transpose the words sag magas». (dog fly) the heart (of the beast) still remains sag-magas.

The people of Transoxiana are simple, but when they have brains they are worthy of trust and of office. By the incitement of that orb of the night, that candle of light and majesty, that eloquent nightingale of the flower garden-Hazrat Khāwja Ubaid Ullāh, who has rendered help, through them (the people of Transoxiana) you have become a disciple and a companion, and been called the son of a Pādshāh. See that you do them due honour and that you make no shortcoming in this. (For)

⁸ Qul bashlaghan. See P.de Courtelle's Dict., pp. 150.151 s.v. bashlamaq. The word bashlagan occurs again, p. 150. of zklaproth's article nine lines from foot. Can the family have been that to which Bairam Khan belonged, and be descended from the 5 or 6,000 Turkamans who entered the service of Babur's grandfather? Can the two women who accompanied Babur's flight from Samarkand in 1502 (Haid, f.95) have belonged to it?

«They who dwell within the portals of Love love even the name of the Beloved».

As for the affairs of India, you will learn them from the Bulletin of Victor. The son of Ibrāhim who was the king of India, has fallen into our hands. I have sent (the Bulletin) to you, my dear son, in order that you may become acquainted with its contents. Here after whatever occurs will be reported to you. Goodbye.

**Наставления Бабуршаха собственному сыну
Послание Его Величества Бабуршаха, борца за веру из
Хиндустана в Кандахор, достойнейшему сыну**

Посылая с любовью написанное сие умному и блаженному сыну наисчастливейшему Мухаммаду Комрону бахадур, отмечаю что ты с молочными братьями и близкими вместе, оказывается, проявляешь большое усердие в приобретении знаний. Оно чудно, душа переполнилась радостью от услышанного. Надеюсь на самого Всевышнего, что своим умением и старанием ты достигнешь совершенства во всем. Следя всегда этим путем, не будеш ошибаться. Ведь сказано его высочеством Хожа Хафизом:

*Великие говорят, только опираясь на свои опыты.
Эй, сын мой, послушай наставление мое,
даже если ты и велик.*

Дошло до слуха моего, что чигатайский народ, оставленный всепрощенным и покойным Его Величеством Султаном Хусайном Мирзо, проживая вместе с народом Хорасана, проявил недюжинное умение и ему не чуждо чувство изящного. Хотя людям Хорасана присущ добрый нрав, нету слов, они способны, но в их толках и

верованиях наблюдается затруднительность. Любящий сеять смуту народ. Интригами разлучают сына и отца, мать и сына. Будучи завороженным их словами, не забывай об осторожности, будь осмотрителен. Они видали, кто такой владыка, их отцы находили опору и помощь со стороны тюрского народа, матери ихправляли свадьбы, их отцы служили нашим отцам и дедам всей душой и телом, были вместе в радостях и горестях, походах и оседлости, не расставаясь ни на мгновение. Оказывали услуги достойные, исполняли наставления. Выбирая кого-нибудь из этого люда, открывая для него доступ ко своему двору, делая его абсолютно доверенным, как бы не допустил оплошности. Если тот молод, то брать с него советы и следовать им не слишком это важное занятие. Следуй советам благоразумных беков и высокопоставленных сановников государства, которые всегда в курсе архиважных событий. Когда же поддаться словам угодливых льстецов, и государственные мужики, узнав об этом и созерцая все, придут к тебе и скажут дерзко в лицо, то на них не надо обижаться. Хотя это тебе покажется дерзким, но обернется благополучием впоследствии. Как в пословице: друг говорит колко, а враг – потешая. Руководствуясь этой мудростью в отношении друзей и врагов.

Будь цветком для цветка, ключкой-ключке.

Еще. Плотным и сильным видится кандахарское войско. Не нужно направляться в его сторону, следуя словам любого встречного. Если встанет такая необходимость, то операйся на опытнейших государственных мужей, сведущих в законах и

правилах, деловых, благожелательных, рассудительных и предусмотрительных, участвовавших много раз в мажлисах, на полях сражений. Направляйся, укрепившись всецело, всенародного оглашая от души похвальные слова в адрес своего войска, находясь рядом с искренними друзьями, у которых способность и умение безупречно. Пусть услышать все обо всем это и из близких, и из дальних расстояний.

Еще. Негодных и с сомнительным прошлым людей не стоит воспитывать и втягивать в дела управления страной, надеясь на способности их и равение. Его светлость Шайх Саади рек:

Невозможно бесчестного, подлого поднять до уровня человека путем воспитания, эй, хаким.

Гляди: цветок ракрываеться в саду, а на солончаковой земле только сухая травинка.

У его светлости Мавляна Джами имеется достойнейший стихи:

*Кто от роду подлы, низкий,
То его исправит невозможно, родной.
Если даже он станет человеком,
Душа-то останется прежней.*

Еще. Люди Мовареннахра чересчур простодушны, хотя они являются неодаренными, на их можно положиться. В особенности, упомяну красноречивого словья сада жизни, ярчайшего светоча неба, его светлость Хожа Убайдуллаха. Ибо расцвет дел государства зависит от великодушия таких высокочтимых людей. Если мюриды и сподвижники из этой династии обратятся к тебе,

как к царевичу, то отнесись к ним с высоким почтением и уважением, не допуская при этом не молейшей ошибки. Те которые связаны узами любви, то они полюбят и собак любящих тоже.

Еще. О положении дел в Хиндустане навещу в послании о победе. Попался в плен сые Ибрахима, царя Хиндустана. Он послан к тебе, милому сыну. Увидя его, сам убедишься в вышесказанном. Впредь буду сообщать о каждом случившемся событии. Вот и все. Вечно сопутствует нам желание глядеть на твою несравненную красу. Нет нужных слов. Самое нужное слово вот это: «*Знай, нет слова, кроме Бога*».

Перевод со староузбекского Мухаммад Али

Tabdil. Hazrati Boburshoh G‘oziyning Hindistondan Qandahorga saodatmand Mirzo farzandiga yo‘llagan xayrli holnomasi

Dono, qadrli va saodatli farzand Muhammad Komron bahodirga muhabbatli salomdin so‘ngra bulkim, qondosh, jondosh va sirdosh amaldorlaring bilan birga saboq o‘qishga sa’y-harakat boshlabsen. Bu vadhdin ko‘nglim ko‘tarilib, dilim yayradi, bisyor quvondim. Tengri taolo dargohidin umidvormenkim, jamii qobilyat va salohiyat bobinda barkamolu serob bo‘lib, kamol topgaysen. Hamisha shu tariqa ish ko‘rib, aslo xatoga yo‘l qo‘ymagaysen. Zero, hazrati Xoja Hofizdin naql bo‘lmish:

*Piron suxan zi tajriba go‘yandu, guftamat,
Xon (ey) pisr, ki pir shavi go‘sh kun.*

Mazmuni: Ulug‘ odamlar o‘z tajribalariga suyanib gapiradilar. Ey o‘g‘il, har qancha ulug‘ bo‘lsang ham, nasihatimga qulqoq os.

Voqif bo‘ldimkim, hazrati rahmatlik va marhum Sulton Husayn Mirzo vafotidan keyin qolgan chig‘atoy eli bul tariqa yashaydurkim, ular aksariyat Xuroson eli bilan birga yurib, birga turib bisyor qobiliyat va layoqat paydo qilmishlar, latofatdin xoli ermamishlar. Garchi Xuroson eli tab’i yoqimli eldurlar, layoqatlariga taraf yo‘q. Ularning so‘ziga mahliyo bo‘lib, hushyorlikni qo‘ldan bermagaysen. Turk ulusidin otasi qo‘l ochgan, onasi to‘y boshlagan tartib-intizomli kishilar borkim, ularning otalari ota-onamizga xizmat qilib, jon nisor aylab, issiq-sovuq, safar va o‘troqda birga bo‘lib, bir lahma ham bizni tashlab ketishmagan. Ularning xizmati shoista, pand-nasihatlari jo‘yalik. Ular orasidan so‘rab-surishtirib, dargohingga yo‘l berib, o‘zingga yaqin olib yur, g‘ofil bo‘lmaq‘aysen. Yoshlari kichik bo‘lsa, ular bilan ham kengashib, maslahatlashib, ularning so‘ziga amal qilib, aslo va mutlaqo nomatlub ishlarda ishtirok etmagaysen. Mulohazakor beklar bilan senga xayrxoh bo‘lgan odamshavanda oddiy kishilarkim bor, qaysiki yoningga hamisha muhim ishlar yuzasidan maslahatga kelib turarlar, ularning savol-javoblaridan o‘zingni tortmagaysen va kengashlaridan chiqmagaysen. Xushomadgo‘ylar so‘ziga aldanib, xayrxohlar borkim, davlatga munosib so‘zlarni eshitib, ko‘rib-bilib, yoning kelib betingga (bor gapni qanday bo‘lsa shundoqligicha) filhol malol kelsa-da, oqibati xayrli bo‘lur.

Masala borkim, do‘sst yig‘latur, dushman kuldurur. Do‘sst bilan dushmanni tanib, shunday bir maqomda amal qilg‘aysenkim...

Misra: *Joye gul-gul bosh va joye xor-xor.*

Mazmuni: *O‘rniga qarab: gulga-gul, tikanga-tikan bo‘l.*

Tag‘in, Qandahor lashkari dolzarb keladi. Har nechuk ushog‘ odamlarning gapi bilan ular ustiga otlanuvchi bo‘lmaq‘aysen. Mabodo

zarurat tug‘ilib, lozim bo‘lsa, ishbilarmon, majlis ko‘rgan, qonun-qoidadan xabardor, tartib-intizomli xayrxohlaringga ko‘ngil yozib, yaxshi gaplarni tayinlab yubor. Elga yaxshi so‘z aytib, dilxoh bo‘lib, iste’dodi mukammal insonlar bilan hamdam bo‘lgaysen. Uzoq-yovuqdin eshitar quloqqa va ko‘rar ko‘zga yaxshi. Tag‘in: nojins, zoti past o‘laroq, har qancha yoqimtoy va qobiliyatli bo‘lsalar, tarbiyat qilib, mamlakatni idora qilishga imdod bermagansenkim, hazrati Shayx Sa’diydin qoladigan gap bor:

Nokas bo tarbiyat nashavad, ey hakim, kas,

Dar bog‘ lola ro‘yad vdar sho‘ra xoru xas.

Mazmuni: *Nokas borki, tarbiyat bilan inson qilib bo‘lmas, ey hakim, bas, Bog‘da gul unadi, sho‘r xoqda xoru-xas.*

Hazrati mavlono Jomiydin bu qit’a shoyon bo‘lubtur:

Harki nokas buvad dar aslu sirishta,

Munqalib natavon kardan, ey jigar.

Nokasero agar kuni maqbul,

Qalbe o‘ g‘ayre basta kay nashavad.

Mazmuni: *Har kimkm asli nokas bo‘lib yaralmish,*

Uni tuzatib bo‘lmaydi, jigarim.

Mabodo o‘shal nokasni harchand o‘zgartirganda ham,

Uning qalbi o‘zgarmay qolaveradi.

Tag‘in Movarounnahr eli ko‘p sodda bo‘ladi. Har qancha qobiliyatsiz bo‘lsalar ham ularga ishonsa bo‘lur. Alalxusus, ul falak doirasi zulmatining yorug‘ charog‘i, hayot bo‘stonining suhanvor bulbuli hazrat Hoja Ubaydullohkim imdod qilmish ekanlar, toabad bu ishlarning saromadi ul azizlarning himmatidindur. (Vaqtiki) ul

sulolaning murid va hamrohlari, podshohzoda tortib senga kelsalar, zinhor izzat-hurmatlarini joyiga qo‘yib, ularning huzurida biron qusurga yo‘l qo‘ymag‘aysen. (Xotirlarini ranjida qimag‘aysen). Ularkim, ishq bobinda bo‘lalar, sevarlarning itini ham sevarlar.

Tag‘in: Hindiston kayfiyatini fathnomada ma’lum qilurmen. Hindiston podshohi Ibrohimkim, o‘g‘li qo‘lga tushibtur. Uni sen jonajon farzandimga yuborildi. Inchunin, uning hol-ahvoldidan xabardor bo‘lib, voqif qilg‘umdir. Vassalom. Husnu jamoling tarovatiga payvastamiz. Boshqa gap yo‘q. Jono, **O‘zidan o‘zga karam yo‘q**.

Ba’zi qaydlar

Har qanday tarjimaga yoki tabdilga kirishishdan oldin matnni tarjimon ko‘zi bilan qarab, maxsus tarjimaviy tahlildan o‘tkazish kerak. Bular: asliyatdagi so‘zlar, **so‘z birikmaları, atamalar, ohang, uslub, xat** mazmuni va hokazo. Albatta, birinchi galda – ma’no. O‘girilayotgan narsaning nima, qanday asar ekanligiga qarab, qayd etilgan unsurlarning o‘rni, vazni salmog‘i o‘zgarishi mumkin. «Boburnoma» qomusiy asar ekan, uning tarjimasi ham o‘z mazmun-mundarijasiga ko‘ra qomusiy bo‘lishi kerak. Boshqacha aytganda, qomusiy asar tarjimasiga qo‘yiladigan talabga javob berishi lozim. Ayni vaqtida bu bizning hozirgi tushunchamizdagi «qomus» emas, balki ta’bir joiz bo‘lsa, badiiy-qomusiy asar. Uni podshoh, sarkarda, jahongashta-sayyoh, olim, butun bir yangi saltanat negizini yaratgan fotihgina emas, shu sifatlarining barchasini qo‘shib olganda, tag‘in nozikta’b shoir, zukko nosir, didli so‘z musavviri yozgan. Bu kitob butun boshli shajara. Ajdodlar va avlodlarning nomlari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, qaysi bek, amir, sulton, sarkarda, zabit, malika, xonzoda, kanizak, shahzoda va hokazo

shaxslarning qachon, qaysi xonadondan, nechuk taqdir bilan parvoz qilgani, qayerga qo‘ngani, oshyon qurgani bu yerda jamuljam. Asar bir kishi yozganiga (bu «kishi» har qancha zukko bilimdon bo‘lgan taqdirda ham!...) ishonib bo‘lmaydigan darajada aniqlik bilan yozilgan. Ulkan ilmiy-adabiy jamoa ham bunyod etishi qiyin bo‘lgan ish. Tarjimon ana shu mas’uliyatni chuqur his etishi kerak.

Mutarjim, hamonki muallif singari, Mirzo, temuriyzoda, g‘oziy, podshoh, sarkarda, shoir, sohibi saltanat emas ekan, loaqal qomusiy bilim egasi, tinib-tinchimas, izlanuvchi-tadqiqotchi, uslubchi-kashshof, didli va nuktadon adib bo‘lmog‘i darkor. Bundan tashqari, yozuvchi va tarjimonning xohish-istagidan qat‘i nazar, vaqt mezoni tushunchasi bor. Vaqt, keng ma’noda, asliyat taqdirida ham, tarjima taqdirida ham g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, keyingi yetmish yillik davr o‘zbekning moddiy turmush sharoitidagina emas, uning tafakkurida ham bir necha asrlarga teng iz qoldirdi, tilda ham o‘z asoratini qoldirdi. Buni «Boburnoma» mutoalasida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Bu kitobda Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda yashayotgan turli-tuman xalqlar, el-uluslar, urug‘ va qabilalarning ichki ruhiy kayfiyatları, kuchli hamda zaif tomonları oynaday tasvirlangan. Bobur biror yurtga cherik tortishdan oldin ana shu nozik omil, o‘sha yerda yashayotgan nufusning kayfiyatini o‘z odamlari orqali obdon o‘rgangan va shunga qarab muomala qilgan, tadbir qo‘llagan. Asarni diqqat bilan o‘rgangan kishi buni payqamay qolmaydi. Zotan, u o‘zining barcha qobiliyatları bilan barobar, o‘ta chapdast, tadbirkor shaxs ham edi. Hind kim, lo‘li kim, fors, turk, o‘zbek kim buni yaxshi bilar edi. O‘z do‘stlari va sodiq kishilarini ajrata olar, shunga qarab «maxsus» muomala qilardi. Shu

bilan birga, u oila a'zolari, farzandlari, qavm-qarindoshlari, saroy muhiti bilan birga, xorijni-raqiblari va qattol g'animlarini ham yaxshi tanir edi. Har bir shaxs bilan uning o'ziga munosib muomala qila bilardi. O'z ta'biri bilan aytganda, *gulga-gul, tikanga-tikan bo'lish, o'z sevgan odamlarining faqat o'zini emas, itini ham sevishni-da bilardi!*

Tushunarli bo'lgani uchun tushunarli emas

Til, nom, atamachilik, iborasozlikda Bobur Mirzo yashagan davr bilan bizning zamonamiz o'rtasida yastangan besh asrlik vaqt sezilarli tafovutlarni paydo qildi. Asarni o'qigan kishi darhol payqaydiki, bundan, har uchta so'zdan bittasi arabiyligiga, forsiy, mo'g'uliy, qadimgi turkiy yoki hindiy so'zdir. Bu kalimalarning hammasi bo'lmasa-da, juda katta qismi uncha tushunarli emas (albatta, tushunarilik yoxud tushunuksizlik o'quvchining kimligiga ham bog'liq. «Vaqoye»ni mutolaa qiluvchilar orasida uni to'la tushunib-biluvchilar ham, unga deyarli butunlay tishi o'tmaydiganlar ham bor, albatta). Ammo ayrim unsurlarning tanish emasligi kitobni o'qishga monelik qila olmaydi. Negaki, matn, parcha, abzas, gap yoki jumlaning umumiy ma'noviy iqlimiga (kontekstga) qarab, o'sha tushunarsiz kalimalarni ham farosat bilan, tusmollab tanib olsa bo'ladi. Biroq shunisi borki, ba'zan o'zimizning asl qadim, o'sha «tanish» so'zlarimiz pand beradi. E'tibor qilaylik, bitilgan xatning savodi. Bari so'zlar bus-butun tushunarli. Ayni vaqtida, xatning...savodi? Bu nima degani? Xatning ham savodi bo'ladimi? Shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatda ham shunday «g'alat» bor: «xatimdek chiqsa imlovu savodim». Xat nima ekanligi ma'lum. Xo'sh savod nima? Bu o'zimizning hozirgi ma'nodagi so'zimizmi yoki boshqa so'zmi?

Mana: Savod: 1.O‘qish-yozishdan xabardorlik; xat-savod. 2.Ko‘chma. Biror sohadagi eng zaruriy bilim, ma’lumot. Savodli: 1. O‘qish-yozishni biladigan, xat-savodi bor. 2. Biror sohada eng zaruriy bilimga ega bo‘lgan; ma’lumotli. Savodsiz: 1.O‘qish-yozishni bilmaydigan, xat-savodi yo‘q. 2.Yetarli bilimi, ma’lumoti yo‘q; chalasavod. Savodxon: O‘qish-yozishni biladigan, xat-savodli odam (O‘TIL, P-9). Qiziq: 48 ming so‘zni o‘z ichiga olgan mukammal turkcha-ruscha lug‘atda (M: Русский язык) savad yoxud sevad so‘zi yo‘q. O‘z so‘zimizning ma’nosini o‘zimizga begona ekan, tarjimalarga murojaat etamiz (asli o‘zi, mantiqqa ko‘ra, aksincha bo‘lmog‘i darkor!). Mana professor R.R.Orat: yazilan mektubun sureti (395)/ Chig‘atoy-turkiy (asli arabcha) savod hozirgi turk tiliga-sureti (surat) bo‘lib o‘tibdi. Demak, Bobur o‘g‘liga o‘zini emas «suratini» yuboribdi-da? Inglizlarda bu: copy (копия)-nusxa. Bunga ko‘ra, maktubni ko‘chirtirilgan nusxasi yuborilgan. Михаил Салйеда (1993): «Вот черновики письма, написанного Хумаюну» (340). Ruscha savod «xatning qoralaması» bo‘lib o‘tibdi. Черновик: qoralama. Bu fikr bir jihatdan to‘g‘ri, boshqa jihatdan noto‘g‘ri. Buni quyida ko‘ramiz.

III BOB. XAYRLI HOLNOMALAR YEVROPALIK OLIMLAR NIGOHIDA

«Boburnoma»ning Buxoro qo‘lyozmasi

Komron Mirzoga yuborilgan va nasihatlar bilan sug‘orilgan xayrli holnomani chig‘atoy tilida ommalashtirishda sharqshunos olim, birinchi «kashshof» Julius fon Klaprot oldida dunyo olimlari doimo burchdormiz. Birinchi bor u «Osiyo» jurnalining 2-qism, 148-151-sahifalarida, 1826-yili esa Parijda turkiy asliyatda ushbu maktubni e’lon qiladi⁹. Undan avvalroq 1810-yili Peterburgda «Osiyo adabiyoti arxivi» jurnalining 1-qismida «Boburnoma» haqida maqola e’lon qilib, birinchi bor Farg‘ona tasvirining tarjimasini beradi¹⁰. Yana boshqa bir rus sharqshunos olimi Doktor Georg Yakob Ker esa Klaprotdan 100 yil avvalroq Komron Mirzoga yuborilgan maktubni ko‘rganligini esdan chiqarmaslik kerak¹¹. «Boburnoma»ni yevropalik olimlar ichida birinchi bo‘lib o‘rgangan, u yuzasidan ko‘plab ilmiytadqiqot ishlarini amalga oshirgan Kerning xizmatlari yuksakligini qayd etish lozim. Albatta, bu haqida A.S.Beverij xonim «Osiyo jamiyati» jurnalida¹² bir necha e’tiborli maqolalar bilan chiqish qilgan. U 1692-yili tavallud topgan. 1731-yili Peterburgda Sharqshunoslik sohasi bo‘yicha professor unvoniga sazovor bo‘lgan. 1737-yili u «Boburnoma»ning to‘liq turkiy qo‘lyozmalaridan nusxa olishga erishadi, chunki asliyat mavjud emas edi. Ushbu olingan turkiy qo‘lyozmalarning nusxalari, 1857-yilda Ilminiskiyning Qozon nashri, Pave de Kurteyni fransuzcha tarjimasi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Ilminskiy nashridan

⁹ Relatives a L’Asie, vol II.p. 148-151, Paris, 1826.

¹⁰ R.A.S.B, 1909, p.454.

¹¹ R.A.S. S, 1900, p.467.

¹² R.A.S. S, 1908, p.828.

ikki yildan keyin, Ker «Boburnoma»ni (1502-1503) yil voqealari – Boburning xavf-xatardan qutulishi bilan bog‘liq parchani lotin tilida chop qiladi. «Osiyo» jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, mazkur tarjima hozirgi kunda Peterburgda saqlanmoqda. U ikki qismdan iborat bo‘lib, Ker davridagi muhim manbalar va ma'lumotlar kiritilgan. Klaprot Komron Mirzoga yuborilgan xayrli holnomani ko‘zdan kechirgan bo‘lishiga qaramay, Bobur tomonidan Komron Mirzoni o‘gay onasiga yuborilgan ushbu muborak maktub haqida biror joyda lom-lim demaydi¹³. Bunga sabab, ehtimol, ushbu parcha faqatgina Kerning loitinga tarjimasida borligi uchundir. Ker, Klaprot ham «Boburnoma»ni noma'lum shaxs tomonidan qanday qilib paydo bo‘lib qolganligi haqida 957- (may, 1550) yili bir qator muhim ilmiy maqolalar e’lon qilishadi, noyob izoh va sharhlar berishadi. «Boburnoma» yuzasidan e’lon qilingan Klaprotning ikki maqolasi, ayniqsa, 1826-yilda chop qilingani qiziqarli, e’tiborliligi bilan biz uchun muhim. Unda Boburning Komron Mirzoga yuborgan nasihatnomasining asliyati hamda fransuzcha tarjimasi bilan bирgalikda berilgan. Afzalligi shundaki, «Buxoro qo‘lyozmasi» haqida o‘ta muhim ma'lumot keltirilgan va «Boburnoma»ning eng eski, dastlabki qo‘lyozmalaridan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Klaprot maqolasining 135-sahifasida berilgan turkiy izohga qaraganda Buxoro qo‘lyozmasi 1550-yilning may oylarida ko‘chirilganligidan dalolat beradi. Bu Bobur vafotidan 20 yillar chamasi keyin paydo bo‘lgan, degan g‘oyani ilgari suradi. Yomon tomoni, izohda keltirilgan yil bo‘yicha, «noma'lum sayohatchining» ismini

¹³ R.A.S. S, 1908, p.830.

aniqlash birmuncha qiyin bo‘lgan. Bizningcha, noma’lum sayohatchi qo‘lidagi qo‘lyozma bilan birga, Buxoro tomon safar qilgan. Yana bir turkiy izohda bir necha yildan keyin Buxoroda, 1721-yili Buyuk Pyotrning elchisi deb o‘zini tanishtirgan shaxs Florio Benventum tomonidan sotib olingan, degan ma’lumot keltirilgan. Dalillar o‘ta muhim bo‘lgani uchun qo‘lyozma haqida endi bir qator yangi ma’lumotlar keltiramiz.

«Boburnoma» qo‘lyozmalarini izlab topish, ilmiy tadqiq qilish va nashr etish ishlari Bobur Mirzoning vatanida XVIII asrning boshlariga qadar, jahon sharqshunosligidan ancha avvalroq boshlanganini kuzatish mumkin. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida «Boburnoma» ning Buxoro qo‘lyozmasini kitobat sanasi 1709-yil ekani ayon bo‘ldi. Mazkur qo‘lyozmani qo‘lga kiritgan yirik ingliz olimi, inglizlarning Hindistondagi davlat apparati amaldori Monstyuart Elfinston bu haqda quyidagi ma’lumotni bergen edi: **«1813-yil 10-noyabr Buxoroga, Mir Izzatullohga «Boburnoma»ning turkiy qo‘lyozmasini so‘rab maktub bitdim. 1814-yil 14-fevralda «Boburnoma»ning forsiy qo‘lyozmasini turkiy asli bilan solishtirish uchun yana Buxoroga maktub yo‘lladim. Asli nusxa Jon Leyden tomonidan birinchi inglizcha tarjima uchun foydalanilgan bo‘lib, forsiy tarjimadan katta farq qiladi. Shu bois kutubxonadagi barcha qo‘lyozmalarni yana bir bor ko‘zdan kechirib chiqayotirman¹⁴».**

«Boburnoma»ning buxorolik savdogar Nazarboy Turkistoniyga tegishli Buxoro nusxasi mavjudligi 1813-yiliyoq Hindistondagi sharqshunoslarga ma’lum bo‘lib, uni janob Elfinston ingliz tarjimoni

¹⁴ A.S.Beveridge. The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II. JRAS, 1906, No. IV. The Buk-hara MS., p.79

J.Leyden do'sti, Jon Vilyam Erskinga nusxa ko'chirib olish uchun yuboradi va qo'lyozma to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni 1813-yildan beri o'rganayotganini ma'lum qiladi. «Mazkur qo'lyozmani menga 1900-yili professor S.Zaleman bergen edi. Amir xonadonida saqlanib, yuqori baholangan «Boburnoma»ning Buxoro qo'lyozmasini janob S.Zalemanga Turkistondagi do'stlari hadya qilgan edi»¹⁵.

«Boburnoma» qo'lyozmasining Buxorodan chiqib ketishi tarixi quyidagicha bo'lgan: Temur Po'lat o'zining Buxoroga qilgan 1714-yilgi safari davomida «Boburnoma»ning Buxoro nusxasini qo'lga kiritadi va 1725-yili uni Hindiston tashqi ishlar vazirligi hay'atiga topshiradi. Keyinchalik ana shu nusxadan rus sharqshunos olimi Georg Yakob Ker bir qancha nusxalar olib, ma'ruzalarida foydalangan. Mazkur qo'lyozmaning afzalligi shundaki, hijriy 936-937-(1529-1530)yil voqealaridagi uzilishlarni to'ldiruvchi «Husayn Boyqaroning xususiy askarlari, ularning xizmatkorlari ham oladigan haqlari» deb nomlangan bob London, Qozon bosmalarida yo'q. Bu Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filiali fondida saqlanayotgan D-685 raqamli qo'lyozmada, ya'ni Buxoro qo'lyozmasida mavjuddir. Diqqatga sazovor jihat, mazkur fondda «Boburnoma»ning yana 3 ta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ular **D-685-1 (№ 370), D-685-111, D-117** raqamlari ostida saqlanadi¹⁶.

Buxoro qo'lyozmasi haqida Beverij xonim bunday yozadi: «Haydarobod qo'lyozmasiga oid fikrlarga oydinlik kiritish uchun ko'p

¹⁵ «Boburnoma» qo'lyozmalari ichida Osiyo xalqlar instituti kutubxonasida saqlanayotgan Professor Ker tomonidan 737-yilda ko'chirilgan qo'lyozma xarakterlidir. Bu eng eski qo'lyozmalardan biri hisoblanadi. U qora siyoh bilan varaqning bir tomoniga yozilgan bo'lib, varaqning ikkinchi tomoni lotin tiliga tarjima qilish uchun qoldirilgan.

¹⁶ Каарлсин: Дмитриева А.С., Муминов А.. Муротов А. Описание тюркских рукописен института народов Азии. Москва, Изд-во «Наука», 1965.

ishlashimga to‘g‘ri keldi. Buxoro qo‘lyozmasining yoshini aniqlash unchalik qiyin emas. Mendagi ma’lumotlar u 1709-yili ko‘chirilganiga shubha tug‘dirmaydi. Bu haqda janob Senkovskiyning ma’lumotlari ham mavjud»¹⁷.

Professor Ker o‘zidagi mavjud manbalarning janob N.Ilminskiy va professor Smirnov tomonidan o‘rganilish sanalarini hijriy 1126- (1714) yil deb ko‘rsatadi. Sankt-Peterburg universiteti fondida saqlanayotgan qo‘lyozmada dog‘lar bo‘lishiga qaramay, undagi sanalar ham Ker tomonidan 1126-(1714) yilda o‘qib, o‘rganib chiqilganidan dalolat beradi. Shularning o‘ziyoq Buxoro qo‘lyozmasiga avvaldanoq qiziqish katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Eng yaxshi dalil unda bir oz shikastlangan «lavhalar»ning mavjudligidir.

1900-yili chop qilingan «Osiyo» jamiyatining jurnalida «Senkovskiy «Boburnoma»si deb nomlangan maqolada quyidagi muhim ma’lumot e’lon qilingan: «**Known and entitled Waqi‘-nama-i-padshahi (Record of Royal Acts) this script and composition of Mulla ‘AbduMwahhab-akhwund of Ghajdavan in Bukhara-God pardon his mistakes and the weakness of his endeavour!-was finished on Monday, August 31st, 1709 (Rajab 5, 1121). Thank God!**».

Tarjimasi: «Voqeonomayi podshohiy» nomi bilan mashhur asar hijriy 1121-yil, rajab oyining beshida, dushanba kuni (31-avgust 1709-yil) mulla Abdulvahhab oxund G‘ijduvoniy tomonidan ko‘chirib

¹⁷ Beveridge A.S. The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II. JRAS. 1906. No. IV I he Buk-hara VIS p 80.

tugallandi. Alloh u kishining xato va gunohlarini kechirsin. Allohga hamdu sanolar bulsin!»¹⁸.

1824-yili buxorolik savdogar Nazarboy Turkistoniy Peterburgga keladi. Uning qo‘lida buxorolik mulla Abdulvahhob oxund G‘ijduvoniy tomonidan ko‘chirilgan va hijriy 1121-yil rajab oyining beshinchisida, milodiy 1709-yil 31-avgustda tugallangan «Boburnoma»ning «Voqeanomayi Bobur» nusxasi bo‘lib, uni keyinchalik sharqshunos O.Senkovskiy sotib olgan.

A.S.Beverij xonim «Boburnoma»ning mavjud qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish asosida ularning jadvalini tuzadi. Uning fikricha, Bobur podshohning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan qo‘lyozma yo‘qolgan. A.Beverij Boburshohning o‘zi 1529-yili Samarqandga Xoja Kalon Xoja Yahyoning nabirasiga yuborgan «Vaqoyi» qo‘lyozmasi hanuz Xoja Kalonning oilasida saqlanayotgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Mashhur «Tarixi Rashidiy» asarining muallifi Muhammad Haydar Dug‘latga yuborilgan nusxani esa Koshg‘arda saqlanayotgan bo‘lishi ehtimoli bor, deydi¹⁹.

«I’ Timur-pulad son of Mirza Rajah son of Pay-chin, bought this hook Babur-nama after coming to Bukhara with /the/ Russian Florio Ben Beneveni, enjoy of the Padshah . . . whose army is numerous as the stars . . . May it he well received! Amen! O Lord of both Worlds».

Tarjimas: «Men Temur Po‘lat, Mirzo Rajab poychin o‘g‘li rus Florio Beg Beneveni bilan Buxoroga kelganimda askarlari yulduzlar

¹⁸ JRAS, 1900, p. 474.

¹⁹ Beveridge A.S. The Haydarabad Codex of the Babar-naina. Part II, JRAS, 1906, No. IV. The Bukhara MS.. p.g.

kabi behisob... Podshohning «Boburnoma»sini sotib oldim. Ikki olam sarvariga rahmatingni ato et. Omin!».

Temur Po‘lat kitobni olaturib sotuvchidan Bobur hayoti, tarixi haqida ham so‘ragan. Suhbat davomida asar haqida «Buxoro «Boburnoma»si degan chalkash xulosaga kelgan.

Buxoro nusxasiga oid alohida jadval

A.S.Beverij xonim 1714-yili Temur Po‘lat Buxorodan sotib olgan va Buxoro nusxasi deb yuritiladigan qo‘lyozmaga oid alohida jadval tuzgan. Oltita qo‘lyozmani yo‘qolgan yoki hali toplmagan, deb hisoblangan. A.S.Beverij xonim «Boburnoma»ning quyidagi nusxalarini ro‘yxatga kiritadi:

- 1. Edinburg (Shotlandiya) Milliy Kutubxonasida saqlanayotgin qo‘lyozma (Adv. 18.3.18);**
- 2. Britaniya Muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma (Add. № 26324);**
- 3. Hindiston Jamiyati Indian Office qo‘lyozmasi (№ 178);**
- 4. Bangal Osiyo Jamiyati (Asiatic Society of Bengal) qo‘lyozmasi (M-121);**
- 5. Manchesterdagi Lindeniana kutubxonasi nusxasi;**
- 6. Haydarobod nusxasi;**
- 7. Sankt-Peterburg Davlat universiteti kutubxonasi qo‘lyozmasi (Xa 0.683);**
- 8. Sankt-Peterburg Tashqi ishlar kollegiyasidagi (Hozir Rossiya FA Sharqshunoslik instituti, Sankt-Peterburg bo‘limi) qo‘lyozma (№ 685);**
- 9. Sankt-Peterburg Osiyo Muzeyidagi qo‘lyozma (№ 590);**

10.Senkovskiy qo‘lyozmasi (Hozir Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limidagi) qo‘lyozma (№ 117).

A.S.Beverij xonim mavjud qo‘lyozmalarni qayta o‘rganish jarayonida «Boburnoma»ning asl nusxasiga eng yaqin matnni aniqlash uchun uchta nusxa muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keladi. Bular: Elfinston, Haydarobod va Georg Yakob Ker nusxalaridir. Yapon olimi, professor Eyji Mano «tanqidiy matn»ni yaratishda Elfinston va Haydarobod nusxalaridan asosiy tayanch manba sifatida foydalangani sababi ham shunda.

A.S.Beverij xonim Elfinston qo‘lyozmasiga ishonchsizlik bilan qaragan bo‘lsa-da, «Boburnoma»ga qiziqish Bobur Mirzoning yurtida eng avval boshlanganini tasdiqlashi jihatidan bu qo‘lyozmaning ahamiyagi katta. Bularning hammasi «Boburnoma»ning nodir qo‘lyozma nusxalari faqat Hindistondagina emas, O‘rta Osiyo xalqlari orasida, jumladan, Buxoro, Xiva shaharlaridagi saroy kutubxonalari va shaxsiy kishilar qo‘lida bo‘lganini va XVIII asrdayoq rus sharqshunoslari bu noyob asarga katta e’tibor berib, uni o‘rgana boshlaganini ko‘rsatadi.

Fathnomada ham ishora bor

Buyuk Pyotr 1725-yil 28-yanvar kuni vafot qiladi, unga qadar elchi Florio Beneventum Rossiyaga qaytmaydi. Bu ma’lumotlar Klaprotni 1810-yili e’lon qilgan maqolasidagi turkiy izohda, 957-yildagi «Boburnoma» qo‘lyozmasining so‘ngida keltirilgan. Komron Mirzoga yuborilgan maktubda bu haqda umuman ma’lumot yo‘q. U keyinchalik alohida yuborilgan bo‘lishi ham mumkin. Xatda Boburning zaharlanishi, Ibrohim Lo‘diyning o‘g‘lini yuborgani haqida ham ma’lumotga duch

kelmadik. Boburni zaharlashga harakat 1526-yil dekabrda, Panipat jangidan 8-9 oy o‘tgandan keyin boshlangan. Komron Mirzoga Ibrohimning o‘g‘li va onasi 1527-yili yanvar oyida yuborilgan. Shayx Zayn tomonidan Rono Sango jangi g‘alabasi munosabati bilan bitilgan fathnomada ham bu haqda ishora bor. Qisqa bitilgan mazkur holnama Panipat jangidan avvalroq bitilgan ko‘rinadi, chunki xatning nusxasi «Boburnoma»ga ham kirmagan. Shundan ko‘rinadiki, Komron Mirzoga xat hijriy 932-yili (1526-yilning aprel-may oyida) yozilgan bo‘lsa kerak. 928-yili Komron Mirzoni Qandahorga Bobur Mirzoning topshirig‘i bilan yuborilgandi, shu bois u yerda bir necha yil qolishiga ham to‘g‘ri keldi. Bobur xatni safardan Komron Mirzo Qandahorga qaytgan paytda yuborgan ko‘rinadi. Ehtimol, Rajputlardan mag‘lubiyatga uchragan safari ham bo‘lsa ajab emas. Haydarobod qo‘lyozmalarida keltirilishicha, 935-yili u Balxda bo‘lgan.

Shunday bo‘lgani rost

Klaprotning «Osiyo jamiyati» jurnalida e’lon qilgan maqolasi «Boburnoma»ning Yevropa ahliga tanishtirishda dastlabki qadam bo‘lgan. 1815-yili Rossiya tomonidan sovg‘a qilingan Klaprot arxivining bir qismi, «Osiyo jamiyati»da, yana biri Britaniya muzeyida saqlanayotganining o‘zi katta bir voqeа, deyish mumkin.

«Boburnoma»dan turkiy asliyatda eski katta bir parchani e’lon qilgan ingliz olimi Artur Lamli Deyvidni har qancha tahsinga sazovor shaxslardan biri deyish mumkin. U 1811-yili Xampshirda tavallud topib, 1832-yili vafot qilgan. Qisqa vaqt ichida, vafotidan bir necha hafta oldin «Turk tili grammatikasi»ni chop qilishga ulguradi. Mazkur qo‘llanmada turkiy va chig‘atoy tilidagi ishlardan namunalar beriladi.

«Boburnoma»dagi 903-yil (1497-1498) voqealari bayonidan Samarqand shahrini tasviri o‘rin olganligi barchani lol qoldiradi. Artur Deyvidni vafotidan to‘rt yildan keyin uning onasi ushbu qo‘llanmani, ya’ni biz ko‘rgan va guvoh bo‘lgan yagona nusxani, fransuz tilida chop qilishga erishadi. Qo‘llanmaga kiritilgan ushbu parcha, Hindiston kompaniyasiga tegishli bo‘lgan qo‘lyozmadan olingan bo‘lib, aslida u shoir va tarjimon Jon Leydenga taalluqli bo‘lgan. Hozirda bularning barchasi Leyden kutubxonasida raqamga olingan. Leyden tomonidan qanday qilib qo‘lga kiritilgani haqida ma’lumot keltirilmagan. Bu «Osiyo jamiyatini» Bengal kutubxonasida saqlanayotgan «Boburnoma»ning Musor nusxasi ham bo‘lishi mumkin. Leyden va Musor nusxasi ham Elfiniston nusxasi oldida asliyatga yaqin emasligi bilan farqlanadi. Leyden esa buni e’tibordan chetda qoldirgan ko‘rinadi. Elfiniston esa mazkur qo‘lyozma nusxasini Leyden inglizchaga o‘girishi uchun Erskinga foydalanishga bermagan, deb o‘ylaydi. Shunday bo‘lgani post bo‘lsa kerak!

Ogohlik – davr talabi

«Men Boburni bunchalar mehr bilan Qandahordagi farzandini *ogoh* bo‘lishga chaqirib yozgan maktubini juda hayajon bilan qabul qildim», – deydi A.S. Beverij xonim. – Bu yerda aks etgan Boburga xos tanqidiy fikr-mulohazalar: o‘zaro mehribonlik, totuvlik, ahillik, og‘ir, vazmin bo‘lishga chorlash ayni muddaodir. Har bir ota ham shunday qilishi aniq. Nasihatnama Humoyunga yuborilgan xatdan tubdan farq qiladi. Xatni inglizchaga o‘girish jarayonida. uslubiy-ifodaviy tamoyilda, ayrim so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keldim. Bu borada Klaprotning hamda Pave le

Kurteylning tarjimalariga suyanishga to‘g‘ri keldi, shu bois turkiy lug‘atlarga murojaat qildim. Bu menga juda katta amaliy yordam berdi».

Klaprotning ta’kidlashicha, Peterburgdagi qo‘lyozmada «Boburnoma»ning o‘zida Boburni Komron Mirzoga yuborgan maktubi mavjud bo‘lgan. Maqolaning 135-sahifasida 1550-yil degan izohni keltirib, bu qo‘lyozma sobiq egasi qo‘lidagi «Boburnoma»da mavjud edi, degan fikrni aytadi. Qo‘lyozmaning izohida berilgan «Hoji tosh» so‘zining lug‘aviy ma’nosini topishda juda qiynaldim. Hoji Tosh emas, balki *Hoji bek Tosh* bo‘lishi ham mumkin, deb o‘yladim. U o‘sha «Osiyo Minordan» bo‘lsa kerak, deb taxmin ham qildim. «Simav Tav» ya’ni «tog‘ning qoyasi», bu qishloq yoki tog‘ning qoyasi ham bo‘lishi mumkin. Bu Keyt Jonstonning Osiyo xaritasida bor edi. Noma’lum sayohatchi esa Konstantinopoldan yo‘l olgan kimsa bo‘lishi ham mumkin.

Klaprotning arxivini ko‘zdan kechirish jarayonida lotin, fors, hattoki, kumanlar tiliga oid ko‘plab manbalarni ko‘rib chiqib, hayratdan yoqa ushladim. Qora dengiz sohilining shimoliy qirg‘oqlarida yashovchi kumanlarning tili turkiyga o‘xshab ketishiga birinchi bor duch keldim va Klaprotga tasannolar aytdim.

Faraz va haqiqat

Farazdan haqiqatgacha. Besh muhim dalil.

Asliyatda, forsiy qo‘lyozmalarda hamda V.Erskin-J.Leyden tomonidan 1826-yili chop qilingan, 1922-yili L.U.King tomonidan qayta to‘ldirilgan va tavsiflangan inglizcha tarjimalarda Boburning Axsidan quvilishi, uning keyingi yurishlarini aks ettiruvchi kattagina muhim bir parcha «Boburnoma»ning eng qiziqarli joylaridan

biri, ya’ni 908-yil voqealarining so‘ngi qismini dabdurustdan uzilib qolishi, tadqiqotchi sharqshunos, boburshunos olim Henri Beverijning fikriga qaraganda, «o‘quvchi va tinglovchi xotirasini voqeaning kuchli taassurot qoldiradigan joyida to‘xtatib qo‘yilishi» bir qancha *mubhamliklarni* keltirib chiqargan, bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan. Bu muhim bir parcha na Elfinistonning turkiy qo‘lyozmalari, na biron bir boshqa forsiy qo‘lyozmalar orasida uchramaydi. V.Erskin solishtirib ko‘rgan nusxalarda ham voqeа shu o‘ringa kelganda dabdurustdan uzilib qoladi. Bu nomukammalik turkiy asl nusxada ham, tarjimalarda ham bor. Lekin men o‘z qahramonimni bunday tang ahvolda qoldirshni aslo istamayman, deb iztirob chekadi boburshunos olim. Biz o‘rganib chiqqan barcha qo‘lyozmalarda ham Boburning bog‘da bo‘lishi, umid qilishi, qiyin va xavfli holatda bo‘lgani, jonidan umidini uzib, tahorat olib, ikki rakat namoz o‘qishi, shu asnoda bexosdan uyquga ketishi tasvirlanadi. Turkiy matn ham aynan shu joyga kelganida voqeani ikki yilga qadar uzilishi, Boburning xavf-xatarlardan qutilib, Andijonda xon amakilari yoniga borib qo‘shilish bilan yakun topadi. Turkiy hamda forsiy qo‘lyozmalardagi chalkashliklar, tadqiqotchi Xenri Beverijni Boburning vafotidan keyin noma'lum kotib tomonidan qo‘srimcha qilingan «Boburnoma»dagi to‘rtta muhim uzilishlaridan biri va asosiysi bo‘lgan mazkur parcha Boburning nabirasi Jahongir tomonidan to‘ldirilgan. Bu haqda «Tuzuk-i Boburiy»ning 52-sahifasida ham qayd qilinadi, shu bois men parchadagi qo‘srimchalarni kotiblar tomonidan kiritilganini quyidagicha asoslayman, degan taxminni olg‘a surishga olib kelgan.

Birinchi muhim dalil: Shunday muhim parchani Elfinistonning shaxsiy qo‘lyozmalari hamda «Boburnoma»ning mavjud bo‘lgan forsiy qo‘lyozmalari orasida uchramasligini g‘ayri tabiiy bir holat deb bilaman. Agar «Boburnoma»ning Alvor nusxasining mavjudligiga ishonch hosil qiladigan bo‘lsak, Humoyun davrida ham forsiy tarjimalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, unda parchadagi voqealar Akbar davrida ro‘y bergen, chunki qo‘limizdagi «Boburnoma»ning forsiy tarjimasi Akbar hukmronlik qilgan paytda Abdurahimxon tomonidan amalga oshirilgan va Akbarga sovg‘a qilingan, degan ma’lumotlar ham yo‘q emas. Akbar saroyida bunday qo‘lyozmalarni, ayniqsa, turkiy asl nusxani bo‘lganiga aslo shubha yo‘q. «Podshohnoma»ning 1-qism, 42-sahifa, 2-qism, 703-sahifalarida ta’kidlanishicha, Shohjahon hukmronligi davrida uning saroyida «Boburnoma”ning turkiy nusxasi bo‘lgan. Shu bois, shunday muhim parchaning yo‘qolgani har qanday kishini shubhaga soladi. Ker nusxasini asos qilib olgan Ilminskiy nashrida ham shunday holat mavjud. Albatta, bu qo‘lyozmalarning yoshiga, saqlanganiga ham bog‘liq. Kam deganda ikki yuz yildan ortiqroq bo‘lgani aniq. Elfiniston qo‘lyozmasi ham bundan istisno emas. Ker nusxasidagi barcha yil voqealari mavjudligi jihatidan Jahongir zamonasidagidan qolishmaydi. Ayniqsa, Abul Fazlni «Akbarnoma»siga tarjima qilib kiritilgan «Boburnoma»dagi parchalar ham juda muhim. Agar bizni qiziqtirayotgan o‘sha muhim parcha boshqa biron-bir turkiy qo‘lyozmada mavjud bo‘lsa, unda Farishtaning Bobur hukmdorlik davrini aks ettiruvchi asarida bo‘lishi ehtimoldan holi emas. U «Boburnoma»dan nusxa olganday foydalangan, shu bois turkiyda yozilganga ham o‘xshab ketadi. Farishta o‘z asarida Boburning

Samarqandni ishg‘ol qilishini Sulton Husaynning Hirotni olishi bilan qiyoslab berishi aslo Abdurahimxonning forsiy tarjimasidan unumli foydalangan, degan xulosaga olib kelmaydi. Bu alohida tadqiqot ishi bo‘lishi mumkin. Yana shuni unutmaslik kerakki, Farishta Astrobodda tug‘ilgan, shu bois uning ona tilisi ham turkiy hisoblangan.

Ikkinchи muhim dalil: Parchada keltirilgan hikoya xuddi ertaklardagi xayrli xotimaga o‘xshab ketadi. Bunday holatlar bo‘lmasada, haqiqatga yaqinday tuyuladi. Xoja Ubaydullohning nabiralari Xoja Ya’qubni Bobur Mirzoning tushlariga kirishi, uning bobosi nomidan uyg‘otib, taaddisidan qutqarishi, o‘z navbatida, Boburning sodiq navkarlaridan ikki kishini tushiga ham Xoja Ubaydullohning o‘zlarini kirib: «Bobur podshoh Karnon degan kentdadur, borib qutqaringiz», deyishlari, Boburni bo‘lajak xavfdan ogoh qilishlari xuddi ertakka o‘xshab ketadi. Ikki sodiq navkar Bobo Pargariy va Qutluq Muhammad barlos «Boburnoma»ning biror joyida tilga olinmaydi-ku! Shu bois 906-yil Samarqand voqealarida ishtirok qilgan Xoja Qutlug‘ ko‘kaltosh, shu Qutlug‘ Muhammad barlos emasmikan, degan taxminga ham bordim.

Xoja Yahyoning o‘g‘li, hazrat Xoja Ubaydullohning nabiralari Xoja Ya’qub ham menga notanish shaxsday tuyuldi. Xoja Yahyo va uning ikki o‘g‘li ikki yil avval jangda halok bo‘lishgan, shu bois Yahyoning uchinchi o‘g‘lining ismi Ya’qub bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman. Shunday ekan, Boburni xavf-xatardan qutulishi, uning g‘aroyib tushi menga negadir mavhum bo‘lib qolayapti. Hech bo‘limganda bu haqda Xondamir ham biron narsa qoldirishi kerak edi. To‘g‘ri u «Boburnoma»ni ko‘rmagan, ammo unga, ehtimol, Bobur

Samarqandni olishdan avval *o’sha* g‘aroyib tushning tafsilotini aytib bergeniga shubha qilmayman. Haqiqatan ham, Karnondagi voqealar sodir bo‘lgan bo‘lsa, unda bu voqealar bayonini Shayx Zayndan eshitgan bo‘lishi ham mumkin, chunki bu g‘ayritabiiy holat Samarqandni qo‘lga kiritishdan ham muhim edi.

Uchinchi muhim dalil: Ushbu yil voqealari, parchada keltirilgan ayrim dalillar meni bir oz o‘ylantirib qo‘ydi. Parchada keltirilishicha, Bobur ta’kidlaganday, Qutlug‘ Muhammad barlos bir vaqtning o‘zida Boburdan ajrab ketib, Andijonga yo‘l oladi. Boburning amakilari, xondadalari Andijonga kirib kelishganda, mudrab tush ko‘rishi g‘ayri tabiiy holat. Bir xil tush ko‘rganliklarini Boburning amakilariga aytib berishi-chi! Undan keyin yonidagi sodiq navkarlari bilan qaytadan borib, o‘zini xavf-xatarga qoldirishdan qo‘rqmay, Boburni Karnondan Andijonga olib kelishi-chi! Bobur amakilari va yaqinlari bilan Andijonda to‘rt oy bo‘lgach, Farg‘ona viloyatini tark etishni niyat qiladi. Shu qaror bilan yil voqealari nihoyasiga yetib, 910-yil voqealari, ya’ni Boburning Kobulga yurishi boshlanadi. Avvalgi yil voqealarida ta’kidlanganiday, Boburning so‘ziga qaraganda, u Axsini tark qilgan paytda xon amakilari Andijonda ham emasdilar. Ular Andijonni qo‘lda tutib turisha olmagan. Erskin ta’kidlaganday, ular *o’sha* atrofda bo‘lishgani bois, Boburning ortidan Axsiga navkar yuborishgan. U qal’ani oz vaqt qo‘lda tutgan xolos. Tanbal 23 ming navkar bilan kelib qo‘lga olgandan keyin, Bobur yana o‘z hayoti bilan mashhg‘ul bo‘lib qolgan. Xon amakilari qamalni yorib o‘tishganini eshitgandan keyin Konibodom tarafga qarab ot soladi. Marg‘ilon va Konibodomdan o‘tgandan keyin, Tanbal qo‘lga kiritgan joylardan o‘tishga majbur

bo‘ladi. Ularning tahlikaga tushgan holatini ko‘rgan Tanbal Axsini qo‘lga kiritadi. Natijada Bobur boshqa tarafga yurishga majbur bo‘ladi. Bu holat xonlarni, Boburni bezovta qilgani aniq edi, chunki u Axsini qo‘ldan boy berib bo‘lgandi. Boburning shubhali hikoyasi, amakilarini Andijonda bo‘lmaganligi, Boburning arosatda qolishi rost bo‘lsa, unda asliyatdagi voqealar to‘g‘ri bo‘lib chiqadi.

To‘rtinchi muhim dalil: Agar parchada keltirilgan dalillarni *soxta* deydigan bo‘lsak, unda 908-yil voqealariga oid tavfsilotlar: Bobur va qarindosh-urug‘larini boshiga tushgan kulfatni, avval mag‘lub bo‘lishi, keyinchalik hibsga olinishi, so‘ngra Boburni avval Toshkent, keyinchalik Farg‘onaning janubiy tog‘lariga, undan keyin Nisor tomon qilgan yurishi qalamga olinmagan bo‘lardi. Amu orqali Termizga borib hokim Amir Muhammad Boqiydan maslahat olishi uni Afg‘oniston sari yurish qilishga chorlaydi. «Habibus-siyar»da (318-bet) aytishicha, Bobur shu munosabat bilan Xisravshohning hokimiyati sari yo‘l olgan.

Vamberi o‘zining «Buxoro tarixi» kitobida, «Shayboniynoma»ga tayanib, jang Axsidan besh milya masofa narida bo‘lgan va ikki kun davom etgan, degan taxminni aytadi. Vamberining bu mulohazalariga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki u aytgan fikrlar 911-yil voqealarida ham uchramaydi. «Tarixi Rashidiy»da aytishicha, Axsidagi janglar juda qisqa bo‘lgan. Bobur 910-yili Kobul sari yurish qilib, 911-yili o‘sha yerda bo‘lgan. 909-yil voqealarida keltirilishicha, jangdan keyin uning kichik amakisi, vafot qilgan. Jang 908-yilning so‘nggida yoki 909-yilning boshlarida bo‘lgan. «Tarixi Rashidiy»ning 123-sahifasida shahodat berilishicha, Bobur amakisining o‘limi 909-yilning qish fasliga, ya’ni 1503-yilning oxiri va 1504-yilning boshlariga to‘g‘ri

keladi. Yana 160-sahifada Boburning kichik amakisi 909-yilning oxirida, 1504-yilning aprel-may oylarida vafot qilganligi ta'kidlanadi. Unda turkiy *asliyatdagi voqealar rost deydigan bo'lsak*, bo'lib o'tgan janglarda Bobur amakilarining hibsga olinishi, keyingi voqealarni o'n ikki oydan ko'proq davom etishi qo'lyozmada uzilish borligidan yoki uni yo'qolganidan dalolat beradi. Turkiy asliyatga ko'ra parchaning so'ngida Bobur Andijonda amakilariga kelib qo'shilganini, ular bilan to'rt oy bo'lgach, Farg'onani tark qilishga qaror bergenini ma'lum qiladi. Menimcha, «Boburnoma»da muallifning so'zlarida qarama-qarshilik borga o'xshaydi. Bu albatta, parchadagi uzilish tufayli bo'lsa kerak. Chunki, Bobur jangdan avval Andijonda amakilarimga kelib qo'shildim, deydi. «Tarixi Rashidiy»ning 159-sahifasida Boburning amakilari jangdan oldin Andijonga emas, Farg'ona sari yurishgan, degan dalil keltiriladi. Ular Aksi orqali yurib, mag'lubiyatga uchragandan keyin, ikkinchi bor Andijonga borgunga qadar qo'lga kiritgan bo'lishlari ehtimoldan holi emas. Boburning amakilari bilan Andijonda to'rt oy qolishi, keyin Farg'onani tark etishga qaror qilishi parchadagi voqealarni yakuniga yetkazish, yangi yil voqealarini boshlash uchun *noma'lum kotib* tomonidan o'ylab topilgan, deyish mumkin. Yana bir muhim tomoni, yuqorida keltirilgan dalilarimizga qarshi bo'lsa-da, kotib Shayboniyxon va Boburning amakilari orasida bo'lib o'tgan janglarni tasvirlashda bir oz e'tiborsizlik qilganini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Beshinchi muhim dalil: Boburning Axsidan quvilishi, Karnondagi bog'da bexosdan uyquga ketib tush ko'rishi, forsiy tarjimalarda «akhir (atlast)» -...nihoyat...so'zidan keyin jumla tugagan. Tarjimon V.Erskinning shahodat berishicha, inglizcha tarjimanining

235-sahifasida, 914-yil voqealarining yakunida ham voqea bir xil...*nihoyat*...jumlesi bilan tugaydi. Bu xuddi 1001 kechadagi Shahrizodaning hech tugamas ertaklariga o‘xshab ketadi. «Men ko‘rib va solishtirib chiqqan uchta qo‘lyozma nusxaning aynan shu joyida uzilish bor, bo‘lganda ham bir xil. Elfiniston qo‘lyozmasi (turkiy asliyat) ham, inglizcha tarjimalar ham bundan mustasno emas. Shu bois tarjimon o‘z qahramonini voqeanning eng qiziqarli joylaridan birida tashlab kemaydi-ku», deb xitob qiladi ingliz tarjimoni V.Erskin. Tarjimon ming bor haq. Menimcha, Bobur 908-yil voqealarini so‘ngidagi «*nihoyat*» so‘zidan keyin biron bir narsa yozganida parchani chala holatda qoldirmagan bo‘lardi.

Forsiy qo‘lyozmalardagi uzilishilar, turkiy asliyatga qaraganda g‘ayri tabiiyroq ko‘rinadi. Shunisi e’tiborliki, asliyatdagi jumla forsiy qo‘lyozmadagidan bir xil emasligi bilan ajralib turadi. 914-yil voqealarining so‘ngidagi holat ham bir xil. Asliyatdagi birinchi jumla forsiyda boshqacha, bir xil emas. Rayland kutubxonasidagi qo‘lyozmada yuqoridagi bahsga sabab bo‘layotgan parchani yana bir kotib boshqacharoq uslubda to‘ldirishga harakat qilganining guvohi bo‘ldik. Parchaning so‘ngida Boburning do‘satlari kelib, uni xavf-xatardan saqlab qolgandan keyin ayollar bilan bazmi jamshid qilgani, qo‘shimcha qilib kiritilgan.

Shu bois, men turkiy asliyatni o‘zida ham nuqsonlar bor, to‘la emas, bular Jahongirning «Boburnoma»ni o‘qigandan keyin qilgan to‘ldirishlari bo‘lsa kerak, deb hisoblayman. Ehtimol, vaqtlar kelib mazkur parchani tadqiqotchi, sharqshunos olimlar o‘rganib, «Boburnoma» nusxalarida qilingan qo‘shimchalarni Bobur uslubiga

mutlaqo to‘g‘ri kelmasligini asos va dalillar bilan isbotlashga urinishar. Vaqt kelib, Ilminskiy (Qozon nashri), Pave de Kurteyllarning fransuzcha tarjimasini o‘rganishib, bir xulosaga kelishar. Bu qo‘shimchalar Akbar hukmronligi davridan avvalroq amalga oshirilganiga ishonch hosil qilishar.

Erskin tarjimasining 124-sahifasida keltirilgan fikrlarga qo‘shilgan holda, Bobur Axsidan quvg‘in qilingandan so‘ng Andijonga, xon amakilariga kelib qo‘shilganiga aslo shubha qilmayman, lekin mening shaxsiy fikrim, Bobur Axsidan ketgan kunlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri Andijonga bormagan bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Boburning amakilari Axsida Shayboniyxon dan mag‘lubiyatga uchrab, Farg‘ona viloyati sari yurishgan bo‘lsa kerak. Shu bois Bobur quvg‘inga uchragan paytda uning qarindosh-urug‘lari Andijonda bo‘lishmagan. Buni Boburning yurish yo‘nalishidan ham bilsa bo‘ladi. Boburning xon amakilariga qo‘shilish niyati borligi uchun maslahatgo‘ylari orqali bu ishni amalga oshirishni o‘ylagan. Erskinni inglizcha tarjimasining 121-sahifasida keltirilishicha, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri Andijonga bormasdan, daryoni kesib o‘tib, Xo‘jand sari yo‘l olgan. Baxtga qarshi, bu haqda Boburning o‘zi ham Axsidan qaysi kuni, qaysi oyda ketganligiga aniq biron-bir ishora bermaydi. Erskinni ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, bu quvg‘in qish oyining eng sovuq kunlarida sodir bo‘lgan. Bu voqealarning 908-yil voqealarining so‘ngi kunlariga, ya’ni 1502-yilning dekabr, 1503-yilning yanvar oylariga to‘g‘ri keladi. Ehtimol, keyingi bahordagi Shayboniyxon va xon amakilari bilan bo‘lib o‘tgan jang paytlariga ham to‘g‘ri kelar. Nima bo‘lganda ham bu sarguzashtlar 909-yil voqealarida

ro‘y bergani aniq. Voqealarning qolgan qismi Allohnning o‘zigagina ayon, deydi A.S.Beverij xonim o‘zining risolasida.

Leyden-Erskin tarjimasidagi hijriy 908-(1502-1504) yil voqealari L.U.King talqinida

Bu yil voqealari «Xotiramga keldikim, tokay bu Farg‘ona viloyatida sargardon bo‘lib turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin» (176)jumlesi bilan tugab, hijriy 909-yil voqealari Zahiriddin Muhammad Boburning muharram oyida Farg‘ona viloyatidan Xuroson azimati bila Hisor viloyatiga kelib tushganidan berilgan darak bilan boshlanadi. Yil voqealarining sarlavhasi Qozon bosmasidan olingan. Shuni eslatib o‘taylik, bu juda muhim dalil. Zero, London bosmasida sarlavhaning o‘rni ochiq qolgan. Shu boisdan tarjimalarda yil voqealarini tayin etganda «to‘qqiz yuz o‘n» deb ketishgan.

Mixayil Salye tarjimasida ham 908-yildan keyin 910-yil voqealari boshlangan. Ruscha tarjimaning 452-betidagi izohda ham «bu haqda asl nusxada hech narsa aytilmagan», deb ketilgan. Aslida shundaymikan? Yo‘q, bu yerda qo‘lyozmalar xilma-xilligidan kelib chiqqan chalkashlik yuz bergen. Bu chalkashlik nimadan iborat? Leyden-Erskin tarjimasida ham noaniqlik, to‘g‘rirog‘i, kemtik mavjud. Ammo bu uzilish mazkur inglizcha tarjimaga asos qilib olingan qo‘lyozmalarning chalkashligidan kelib chiqqan. Chunonchi, «Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham ko‘ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo‘lur... » gapidan keyin yil voqealari uzilgan. «Boburnoma»ni forschaga o‘girgan kishi (kotib) «908-yil voqealarining yo‘qolgan qismi faqat Allohnning o‘ziga ma’lum», deb qo‘srimcha qilgan. Leyden ham bu niyatga o‘z xayrixohligini bildirgan. **(Thecopyistadds. The remaining**

transactions of this year, viz. 908, may God grant that they come to hand. In this wish I most heartly join.-Leyden). Janob Lyukast Uayt King fors kotibi bilan ingliz tarjimonlarining fikr va mulohazalariga quyidagicha munosabat bildirgan: Note.-(In P.de C.'s French translation the gap in the Memoirs is filled by a short account of Babur's rescue from his critical position.the authenticity of which, however, is open to doubt (see A).

Mazmuni: Izoh. «Boburnoma»dagi mazkur kemtik Pave de Kurteylning fransuzcha tarjimasida Boburning Karnon kentida yuz bergen mushkul ahvoldan qutilish tafsilotlari bilan to'ldirilgan. Shubhaga o'rin qolmasligi uchun Leyden-Erskin tarjimasining 2-qismi 433-436-betlarida ilova tariqasida berilgan lo'kidon-«Appendiks A»ga qaralsin.

Afsuski, hozirgacha bizda «Boburnoma»ning chinakam ilmiytanqidiy matni yaratilmay kelayotgani bois, asarning e'tirof qilingan mukammal (adekvat) tarjimasini bunyod etish amri mahol. Asarning har bir muayyan qo'lyozma negizida yaratilayotgan tarjimasi aslini idrok etish («egallash») sari qo'yilgan yangi qadamgina emas, balki o'sha asliyatning uchinchi matn tarafidan yaxlitligi va puxtaligini ta'minlovchi omil ham bo'ladi.

IV BOB. «BOBURNOMA»NING FORSIY

QO'LYOZMALARI

Manbaga qaytish so‘qmoqlari

Oyog‘i bormagan joyga qo‘li yetdi...

Bugungi kunda jahon qo‘lyozma jamg‘armalarida «Boburnoma»ning fors tilidagi 68 qo‘lyozmasi mavjud. Forsiy nusxalar orasida Abdurahimxon ibn Bayramxon tarjimalarining qo‘lyozmalari eng ko‘p tarqalgan. Mazkur tarjimaning 32 qo‘lyozmasi Britaniya muzeyida, Parij ilmiy kutubxonasida, Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyida, Viktoriya va Albert (Angliya) muzeyida, Luvr (Fransiya) muzeyida, Amerika Qo‘shma Shtatlarida, Alvor davlat muzeyida (Hindiston), Britaniya muzeyidagi Andar Said Nomad Shoh nusxasi va boshqa o‘nlab yirik muzey hamda kutubxonalarda mavjuddir. Yuqoridagi qo‘lyozmalardan tashqari Bodlean kutubxonasida (2454 raqami ostida), London Sharqshunoslik institutida (46627 raqami ostida), Kembrij universitetida (to‘la emas), Lindisianada bir nusxadan bor. Shuningdek, Edinburgda 4 ta (biri chala), Kopengagenda 1 ta, Lukas Uayt King shaxsiy kutubxonasida 1 ta, Eton Kollinzda 1 ta (faqat Farg‘ona qismi), Pokistondagi Lahor, Panjob universitetlarida 2 ta nusxa (biri hijriy 1021, ikkinchisi 1215-yili ko‘chirilgan). Haydarobodda 3 ta, Patnada 2 ta (biri 1082 yili ko‘chirilgan, ikkinchi nusxa asarning uchdan bir qismini qamraydi), Kalkuttada va Madrasda 1 nusxadan saqlanadi. Bular sharqiy manbalar. Asarning mag‘rib mamlakatlarida o‘rganilishiga doir ba’zi bir kuzatishlar. Bular orasida Annetta Susanna Beverij xonim olib borgan taqdiqotlar fan uchun katta ahamiyat kasb etadi. Uning 100 dan ziyod maqolalari «Royl Aziatik» jurnalining

1900-yildan boshlab, 1923-yilgacha bo‘lgan sonlarida muntazam bosilib turgan. Bu tadqiqotlar orasida «Boburnoma» va uning qo‘lyozmalariga oid bat afsil ma’lumotlarni topish mumkin. Jurnalning 1900-yil iyul sonining 439-480-betlarida «Boburnoma»ning turkiy qo‘lyozmalari xususida A.S.Beverij bir nechta nodir ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Olima asarning chig‘atoyi-turkiy qo‘lyozmalari to‘g‘risida kamyob ma’lumotlar beradi. Bular: Boburning o‘z qo‘li bilan bitilgan qo‘lyozma, Xoja Kalon nusxasi, Humoyun o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan nusxa, janob Manstuart Elfiniston nusxasi, Britaniya muzeyidagi nusxa, Hindistondagi Leydeniana kutubxonasi dagi nusxa, Bengaliyadagi «Osiyo» muzeyida saqlanayotgan nusxa, janob Musor nusxasi, Lindisiana kutubxonasi dagi nusxa, Haydarobod nusxasi, Peterburg univereiteti kutubxonasi dagi nusxa, Peterburg Tashqi ishlar vazirligi ixtiyoridagi nusxa, Peterburgdagi Osiyo muzeyida saqlanayotgan nusxa, Buxoro nusxasi, Nazarboy Turkistoniy nusxasi (439-480). «Boburnoma»ning to‘qqiz yuz o‘ttiz ikkinchi (1525) yil voqealari bayonida o‘qiyimiz: «Rahmat piyodani fathnomalar bilan Kobulga yuborildi. Ushbu yurtta dushanba kuni jumodil-avval oyining yigirma sekkizada oftob hamal burjiga tahvil qildi. O‘n sakkiz yoshda edi, ushbu yurtta Humoyun yuziga ustara yoki miqroz tegurdi, tarix sana 961 bo‘lg‘ay»(333).

Leyden-Erskin tarjimasida xuddi shu o‘rinda mana bunday ma’lumot berilgan: **«Humaiun’s note on the Memoires. At this same station, and this same day. the razor, or scissors, were first applied to Humaiun’s beard. As my honoured father mentions in these commentaries the time of his first using the razor, in humble**

emulation of him, I have commemorated the same circumstance regarding myself. I was then eighteen years of age. Now that I am forty-six, I, Muhammed Humaiun, am transcribing a copy of these Memoires from the copy in his late Majesty's own handwriting» (179-180).

«Ushbu yurtta, dushanba kuni, birinchi marta Humoyun yuziga ustara yoki miqroz tegizildi. Hazratim ushbu kitobda («Boburnoma»-G‘.S.N.O.) birinchi marotaba miqroz ishlatganlarini eelatib o‘tganlariday, men ham hurmatlarini bajo keltirishni ma’qul ko‘rdim. O‘shanda o‘n sakkiz yoshda edim. Men Muhammad Humoyun hozir qirq olti yoshdaman va hazratimning o‘z qo‘llari bilan yozgan esdaliklaridan nusxa ko‘chirib o‘tiribman». Erskin bu dalilni qayd etuvchi manbani Britaniya muzeyida saqlanayotgan ADD. 26.200 raqamli qo‘lyozmadan olgan. Annetta Beverij xonim esa bu ma’lumotni «Boburnoma»ning turkiy qo‘lyozmalarini orasida uchratmay, forsiy nusxalardan topganini aytadi (2.80.97). Shu jurnalning 1905-yil oktyabr, 1906-yil yanvar sonlarida «Boburnoma»ning Haydarobod nusxalari to‘g‘risida mufassal ma’lumot berilgan va bundan muallif Haydarobod nusxalarini aniqlashga harakat qilgan. Yuqorida zikr etilgan manbalardan Annetta Beverij xonim o‘zi ishonchli deb topgan 7 tasini maxsus o‘rganib chiqqan. Vilyam Erskin Abulfazlning «Akbarnama», Muhammad Qosim Hindi Shoh Farishtaning «Hindiston tarixi», Muhammad Hofixonning «Temurning Hindistondagi sulolasি», Mirxonning «Ravzat us-safo» kabi o‘nlab qo‘lyozmalaridan foydalanib va boshqa tarixiy manbalarga suyanib, 908-yil voqealaridagi uzilishlarni quyidagicha bayon qiladi: «Boburnoma»ning eng qiziqarli joylaridan

biri shu yerda dabdurustdan to‘xtatib qo‘yiladi. Kemtik ko‘chirilgan nusxalarning to‘la emasligidanmi yoki muallifning aybi bilan bo‘lganmi, buni hal etish qiyin, deydi V.Erskin. Bunday uzilish Bobur fitnachilarni qo‘lga olish bilan band bo‘lib yurgan paytlari 914-(1508) yil voqealarida ham uchraydi. Bu atayin qilingan kemtikka ham o‘xshaydi. Mutarjim fikricha, o‘quvchi va tinglovchi xotirasini voqeaning kuchli taassurot qoldiradigan joyida to‘xtatib qo‘yilishi bir qancha mubhamliklarni keltirib chiqargan. V.Erskin solishtirib ko‘rgan nusxalarda ham voqea shu yerga kelganda uzilib qoladi. Bu nomukammalik asl nusxada ham, tarjimada ham bor, degan xulosaga keladi ingliz tarjmoni. Lekin men o‘z qahramonimni bunday tang ahvolda qoldirishim aslo mumkin emas, deb iztirob chekadi u. Doktor Jon Leyden foydalangan nusxa ham boshqa qo‘lyozmalarga o‘xshar edi. Garchand juda ko‘p mualliflar Bobur hukmronligi yillarini batafsil yoritishga harakat qilgan bo‘lishsada, «Vaqoe»ning kemtik sahifalarini, undagi sukutlarni boshqa hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Tadqiqotchilar urush va siyosiy voqealarni yozish yoki sharhlash bilan cheklanishgan. Bu ham bizga Bobur hayotining ilk voqealarini tiklashimizga biroz yordam beradi. Memuar hijriy 908-yil voqealariga kelganda to‘xtalib qoladi va 910-yilda yana davom ettiriladi (1502-1504-yilning iyuniga qadar).

Matnshunoslik tarjimaviy ilmiy-tadqiqot ishlarimizning bir qismi. «Boburnoma» tarjimonlari Lyukas Uayt King kabi tadqiqodchi olimlar matnshunoslik bo‘yicha ancha ishlarni amalga oshirishgan. Jumladan, Vilyam Erskin, Abdurahimxon va boshqalarning forsiy tarjimalaridan tashqari, asl nusxaning turkiy qo‘lyozma manbalaridan ham qiyosan foydalangan. Vilyam Erskin va Jon Leyden foydalangan manbalarni

janob L.U.King batafsil o‘rganib chiqadi va «Boburnoma»ning beshta qo‘lyozmasini alohida ta’kidlaydi. Ularni matniy qiymat nuqtai-nazaridan tahlil etib, Pave de Kurteyl foydalangan Ilminskiy nashrining fazilati-yu nuqsonlarini aniqlaydi. Annetta Beverij xonim esa Angliya, Afg‘oniston va Hindiston shaharlaridagi qo‘lyozma jamg‘armalarini birma-bir qidirib, «Boburnoma» nusxalaridan qariyb elliktasini maxsus o‘rganadi. Qo‘lyozmalar orasidan o‘n beshtasini ajratib, ularning xususiyatlari haqida ingliz tilida chop etilib turgan «Royal Asiatic» jurnalida maqolalar bostiradi. Tarjima paytida ulardan foydalanadi. A.S.Beverij Abdurahimxonning forsiy tarjimasi qo‘lyozmalarini ham ko‘zdan kechiradi. Uning «Abdurahimxon «Boburnoma» tarjimonimi? » nomli maqolasida o‘nlab manbalarni tadqiq etgan va mazkur forscha tarjimaning yuzaga kelishi, sifatlari haqida batafsil gapiradi. Abdurahimxonning o‘zi kiritgan ilovalar va o‘zgartirishlar, tushib qolgan joylarni ham aniqlaydi. Bundan tashqari, forsiy tarjimaning kotiblar qo‘lida o‘zgargan joyini tayin etadi. L.U.King fikriga ko‘ra, «Boburnoma»ning qo‘lyozmali orasida Ilminskiy nashr etgan Qozon nusxasi, Erskin o‘z tarjimasida foydalangan Manstuart Elfiniston (M.S.Elphinstone) qo‘lyozmasi va A.S.Beverij topgan Haydarobod nusxasi e’tibor qozonadi. Tolmas va zakovatli Beverij xonim bu nusxani 1905-yilda Londonda nashr ettiradi.

Tarjima va matnshunoslik masalasi ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, asliyat matni ustida ishlash, uning aniq ilmiytanqidiy butunligi, ishonchli nusxasini (variant) yaratish bo‘lsa, ikkinchisi tarjimalar matnini takomillashtirish, tarjima matnini asliyatning ishonchli matniga yaqinlashtirishdir.

Tarjimonlar – milliy madaniyatlarning favqulodda va muxtor elchilari

Ingliz tarjimonlari va olimlarining ishi ikki tomonlama olib borilgan. Masalan, janob King e’tiboriga ko‘ra, u Leyden-Erskin tarjimasini asliyat qo‘lyozmalari bilan qiyoslashdan tashqari Pave de Kurteylning fransuzcha tarjimasi bilan ham chog‘ishtirgan. Shu asnoda bir tomondan, ingliz tarjmoni yo‘l qo‘ygan xatolarini tuzatgan, matnni to‘ldirgan, farqlarini hoshiyada qayd etgan bo‘lsa, farangcha tarjimasi kamchiliklarini ochib, Ilminskiy nusxasidagi xatolarni ham topgan. U yozadi: «Pave de Kurteyl matnida to‘rtta uzun parcha borki, ularning haqiqiy ekanligi shubhasizdir, bu parchalar Leyden-Erskin tarjimasida tushirib qoldirilgan. Nazarimda, bu parchalarni faqat ilova tariqasida bu nashrga (1921) kiritish mumkin». Mazkur parchalarning birinchisida Boburni Kirmonda xavfdan xalos etish, ikkinchisida Humoyunning onasi tomonidan Hindolning farzand qilib olinishi, uchinchisida Qanhavu uchun jang voqeasi oxiri, to‘rtinchisida Humoyunning betobligi va Boburning jon fidoligi (tasadduq) bayon etilgan.

Leyden-Erskin va Beverij tarjimalari orasida matniy farqlar ancha. Biz 1494-yil (hijriy 899) voqealaridan boshlab, 1527-yilgacha (hijriy 934) kechgan voqealarga qadar qiyoslab chiqib, oradagi tafovutlarni aniqladik. Bir-ikki misol. Bobur Umarshayx haqida yozadi: «Burunlar ko‘p ichar edi, so‘ngralar haftada bir-ikki qatla suhbat tutar edi, hushsuhbat kishi edi» (65). Mixayil Salyeda bunday: «В прежние времена он много пил, но позднее устраивал попойки раз или две неделю». Leyden-Erskin tarjimasida «ko‘p ichar edi» jumlasidan keyin

u bo‘za va talarga mukkasidan ketgan edi», deb qo‘sib qo‘yilgan. Keyin tarjimon «bo‘za» so‘ziga izoh berib, talar kalimasining lug‘aviy ma’nosimi topa olmay, «ko‘knoridan tayyorlansa kerak», deb taxminiy fikr bildiradi. Leyden bilan Erskin foydalangan forsiy qo‘lyozmada esa bo‘za va talar haqida hech narsa aytilmagan. Pave de Kurteyl bu o‘rinda «u ko‘p ichar edi» deb qo‘ya qolgan. Nima ichishini aniqlab o‘tirmagan. Yoki Bobur alam bilan yozgan «Andijong‘a bo‘la Samarqandni ilikdin berduk. Andijon ham ilikdin chiqmish edi. Bizga g‘ofil «az injo ronda va az onjo monda», degandek bo‘ldi (g‘ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan, ya’ni aro yo‘lda sarson bo‘lib qolishdan kinoya). Erskin bu gapning yarmini o‘girib, yuqoridagi kinoyani tushirib qoldirgan: «Andijon tufayli Samarqandni qo‘ldan berdik, birni saqlab qolaman deb, ikkinchisi qo‘ldan chiqdi» (1-qism, 93). Nuqsonni Beverij xonim bartaraf etgan. Matniy xatolar, shunday qilib: 1) jumlalarni qisqartirish; 2) keraksiz ilovalar qilish; 3) ma’no qusurlariga yo‘l qo‘yish, noto‘g‘ri izohlar berishdan iborat. Beverij oldingi tarjimadagi matniy ortiqchaliklarni tuzatgan bo‘lsa-da (xuddi U.King kabi), ammo keyingi tarjima ham bu nuqsonlardan xoli emas. Masalan, «Boburnoma»dagi forsiy farmonlar, ayrim hujjatlar, xabarlar Leyden-Erskin tarjimasida ham, Annetta Beverijda ham yo‘q. Pave de Kurteylda bular mavjud.

Davriy farqlar va uslubiy tafovutlar

Ma’lumki, asarda XV asr oxiridan XVI asrning 30-yillariga qadar ro‘y bergen voqealar, o‘n ikki yoshga qadam qo‘ygan Zahiriddin Muhammad Boburning taxtga chiqishidan boshlab, Afg‘oniston bilan Hindistonni egallab, katta sultanatni vujudga keltirishigacha sodir bo‘lgan voqealar izchillik bilan bayon etiladi. Muallif har qaysi yil

voqealarini alohida bir bob sifatida hikoya qiladi. «Vaqoe»ning yozilishi va tartib berish vaqtি haqida turli xil mulohazalar mavjud. Muallifning bu to‘g‘rida aniq bir ishorasi yo‘q. Shunga qaramay, asarni mutolaa qilish, xorijiy tarjima va tadqiqotlarni o‘rganish, asliyatda keltirilgan dalillar, yozilish uslubini diqqat bilaq ko‘zdan kechirish shundan shahodat beradiki, u 1518-1519 yillar orasida intihosiga yetgan. Farang tarjimoni Pave de Kurteyl ingliz sharqshunoslari Leyden bilan Erskinlarning fikriga qo‘silib, «Boburnoma» fotih hayotining so‘nggi yillarida yozilgan, asar chala holda qolgan, degan fikrni ilgari suradi. «Bunga asl nusxa va forsiy tarjimalarning to‘la emasligi dalildir», deydi tarjimon (13). A.S.Beverij: «Tuzuki Boburiy» yoki «Boburnoma» Hindistonda yozilganga o‘xshaydi» (441). «Boburning memuarlari har xil vaqtarda bitilgan ko‘rinadi. Asarning Farg‘ona qismi xotirada tiklanib, Hindistonni ishg‘ol qilingandan keyin tahrirdan chiqqan bo‘lsa, qolgan qismlari xomaki matn asosida yozilgan bo‘lsa ajabmas», deydi Leyn Puul (13-14). Fikrimizcha, bunday mulohazalarning kelib chiqishiga «Boburnoma»ning yozilish nuqtayı nazaridan ikki xil uslubga ega ekanligi sabab bo‘lgan. Boshqacha aytganda, davriy farqlar uslubiy tafovutlarni yuzaga keltirgan. Chunonchi, Boburning vorislik tufayli Farg‘ona viloyati taxtiga o‘tirishidan toki Shayboniyxonadan shikast yeb, Afg‘onistonga yuzlanganigacha bo‘lgan davr o‘n ikki yilni tashkil qilsa, Hindistonni egallab, katta imperiyani vujudga keltirishigacha bo‘lgan voqealar bayoni 22 yilni, hayotining so‘nggi damlarigacha bo‘lgan davr esa 4-5,5 yilni o‘z ichiga oladi.

O‘n sakkiz yillik kemtik

Bu ikki xillikning boisi shundaki, birinchi davr voqealarini ma’lum darajada umumiylarda bayon qilinib, ayrim paytlarda keyingi yil voqealarida sodir bo‘lgan hodisalar ham tilga olinib borilsa, navbatdagi davr voqea va hodisalarini (ayniqsa, asarning Hindiston qismini) yozishda vaqtning aniq ko‘rsatilishi, haftaning qaysi kuni ekanligi, ayrim hollarda esa voqea kunning qaysi paytida sodir bo‘lganligi alohida ta’kidlanishi asar 1525-1530 yillar orasida, Farg‘ona va Kobul qismlari esa xotira asosida bitilganligini ko‘rsatadi. Masalan, muallif 909- (1503-1504) yil Afg‘oniston voqealarini to‘g‘risida so‘zlar ekan, Hindistonda Sulton Ibrohim Lo‘diyni yengganini ham ta’kidlab, uni quyidagicha bayon etadi: «Men aksar Hinduston cheriklarigakim keldim, guzarlar bila o‘ttim. Bu navbatkim, kelib Sulton Ibrohimni bosib olib, Hindustoni fath qildim, Nilob guzaridin kema bila o‘ttim» (189). Bu hijriy 909-(1503-1504) yil voqealarini muallif Hindistonda yozganini yoki avvalgi yozganlarini tahrir qilganini ko‘rsatadi. «Tarix sanam 925 dakim, Chag‘onsaroyni kim kelib oldim, tavof qilib edim». Bu yerda ham Bobur Afg‘oniston voqealarini o‘quvchiga eslatib o‘tgan. Zahiriddin Muhammad Bobur 47-yilu 10 oy (14.2.1483-26.12.1530) umr ko‘rib, shundan 36 yili davlat arbobi bo‘lib turgan. Bas, «Vaqoe’»ning asl nusxasi va ko‘chirilgan qo‘lyozmalarida ana shu 36 yil mobaynida sodir bo‘lgan voqealar aks etishi kerak edi. Lekin shunisi achinarligi, hamma yillarning voqealarini kitobda o‘z ifodasini topmagan. Gap shundaki, ora-oradagi voqealarning qisman, ayrim holatlarda to‘la yetishmasligi tufayli 18 yilga yaqin yil voqealarini bayoni o‘z ifodasini topmagan. Buning natijasida «Voqeot» xronologik jihatdan

kemtikroq bo‘lib qolgan. Masalan, unda 910-hijriy yil voqealari, 915- yildan 924-yilgacha, 927-yildan 932-yilgacha bo‘lgan voqealar va 936-937-yillardagi voqealarning bayoni qisqa yoki umuman aks etmagan.

Tarjimalar va tajribalar

Asardagi uzilishlar olimlarni turli taxmin va gipotezalarga chorlaydi. Turli xil fikrlar o‘rtaga tashlanadi. Bu orada, yuqorida tilga olinganiday, ingliz sharqshunoslaridan J.Leyden, V.Erskin, L.U.King, A.S.Beverij xonim hamda farang tarjimoni Pave de Kurteylning «Boburnoma» voqealarini davr, mazmun va mundarija tarafdan o‘ziga xos tarzda qayta tiklash (restavratsiya qilish) yo‘lida olib borgan mehnatlari tahsinga sazovor. Bular ichida Beverij xonim tarjimasi va tarjibasi alohida o‘rin tutadi. Olima xronologik uzilishlar davomida bo‘lib o‘tgan yil voqealarini tiklashda tarix, etnografiyaga oid 30 dan ortiq, hayvon va o‘simpliklar olamiga oid 20 ga yaqin, 15 dan ortiq ishonchli lug‘at va boshqa noyob manbalarni hamda Boburning harbiy yurishlarini aks ettiruvchi xaritani chizishda 20 ga yaqin ishonchli jug‘rofiy manbalarni o‘rganib chiqib, asarni matniy va mantiqiylar dalillash tomonidan yaxlitligini ta’minlashga erishgan. Shuningdek, U.Kingning ham bu boradagi xizmati diqqatni o‘ziga tortadi. U Leyden-Erskin tarjimasi matnini to‘ldirish, puxtalash, jiddiy tahrirdan o‘tkazib, aniqliklar kiritishdan tashqari, asarniig uzilib qolgan yil voqealarini tiklashga bel bog‘lab, hiyla ilmiy ishlarni amalga oshiradi. Chunonchi, «Humoyun Mirzoning betoblikdan qutqarish uchun podshoh hazratlarining qurbon bo‘lishi», «Boburning o‘z o‘g‘illarini merosdan chetlashtirish rejasi», «Boburning vafoti» boblari shular jumlasidandir.

Bular Bobur va boburiylar tarixini o‘rganishga xizmat qiluvchi g‘oyat muhim manbalardir.

«Bormikan bu dunyoda bir bag‘ri butun... »

Zamon – Adabiyot – Tarjima, Muallif – Mutarjim, Asliyat – Tarjima munosabatlari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda «Boburnoma» juda yaxshi manbadir. Hech shubhasiz, «Vaqoe’» benazir va mukammal bir asar. Shunisi borki, basharti to‘la-to‘kis holda yetib kelganida, buning savobi va karomati tag‘in bir boshqacha bo‘lardi. Keyingi yil ichida Qozon shahridan topilgan va professor Begali Qosimov tomonidan «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati»da e’lon qilingan (19.10.90) «Nasihatnomai Boburshoh ba farzandi xud» maktubining (Boburning Komron Mirzoga xati) mazmuni bilan tanishish, shu kichik bir dalilning o‘ziyoq biz hali-hanuz qanday shohona narsalardan mahrum bo‘lib turganimizni ko‘rsatadi. «Vaqoe’»ning mana shu kemtik joylarini qanday qilib bo‘lmisin qidirib topish, to‘ldirish, buning iloji bo‘lmagan taqdirda turli-tuman bo‘lak manbalar: nomalar, tarixlar, risolalar, xotiralardan foydalanib, loaqlal o‘sha davrda, o‘sha yil, o‘sha kun yoki o‘sha onda qanday voqealar sodir bo‘lganini tayin etish ishtiyoqi ma’rifatli dunyo olimlarini hozirgi daqiqaga qadar band etib kelmoqda. Biz ana shu samimiyl insoniy va ilmiy intilishning ajoyib namunalarini keltirar ekanmiz, bular hech qachon asliyat o‘rnini, Bobur dahosi bilan yaratilgan qalb izhori, iztirob na nidoni to‘la ifodalay oladi, degan fikrdan yiroqmiz. Zotan, vaqtning yemiruvchanlikdan iborat yovuz ishining oqibatiga qarshi turish maqsadida mahobatli, buyuk o‘tmish obidalari, osori atiqalar: masjid va madrasalar, rasadxona va xosxonalarining ko‘chib ketgan qismlari, uzvlari hamda rang-

bo‘yoqlarini «tiklash» maqsadida monand tadbirlar qidirayotganimiz singari, «Boburnoma»ning ham voqeiy yaxlitligini ta’minlashga bo‘lgan urinishlarni tabriklash barobarida, mana shu jarayon tabiatini bilan yaqindan tanishish, bunday ishni o‘zimiz ham besh asr kechikib bo‘lsada, boshlashimiz zarurligiga ilm ahlini iqror qilishdir. Shuni aytish kerakki, Annetta Beverij, Pave de Kurteyl tarjimalari ham so‘nggi mukammal tarjimalardan bo‘lishiga qaramasdan, ba’zi kamchiliklardan xoli emas.

«Qalamlariga hasonat»

Inglizcha Leyden-Erskin, A.S.Beverij hamda Pave de Kurteyl tarjimalarining tahlili xorijiy tarjimalarning bir qancha manbalar yordamida davriy (xronologik) jihatdan hiyla to‘ldirilganini ko‘rsatsada, o‘z navbatida, ularda ham jiddiy nuqsonlar mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, Pave de Kurteylning shahodat berishicha, yillar izchilligidagi uzilishlar asl nusxada ham, forscha tarjimada ham mavjud. Bular inglizcha tarjimalarda ham o‘z aksini topgan. 1921-yilda Dublin universitetining arab va fors tillari fakulteti professori, hind tarixi mutaxassis, sharqshunos olim Lyukas Uayt King tomonidan «Boburnoma»ning ba’zi bir yangiliklar bilan boyitilgan, qayta tahrir qilingan, tavsiflangan nashri yuzaga keldi. Olim inglizcha tarjimani nisbatan mukammal bo‘lgan fransuzcha tarjima bilan qiyoslab chiqib, ancha to‘ldirishlar qiladi, ko‘pgina joylariga aniqlik kiritadi. Asarning yaxlitligini ta’minlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, u zabardast fotih Boburning O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab yurishlarini aks ettiruvchi xarita tuzib, kitobga ilova qiladi. Birgina L.U.King o‘zi tuzgan izoh va sharhlar 4000 dan oshib ketganligini

yuqorida qayd etib o‘tdik. U asardagi she’riy parchalar kimning qalamiga taalluqli ekanini, manbaini izlab topib, aniq izohlagan.

Hijriy 936-937 (1529-1530) yil voqealariga A.S.Beverijning qaydlari (Translator's note on 936 to 937 Al 1-1 529 to 1530 AD). «Vaqoe»dagi uzilish bu 936 hijriyning muharram oyiga o‘tgan kunning uchinchisidan (7.9.1529), hijriy 937 jumadul avval oltinchi kunigacha (26.12.1530), ya’ni Bobur vafot etgan kuniga qadar, hammasi bo‘lib 15 oyni o‘z ichiga oladi.

Bu Lacuna, ya’ni kemtikni (kitobning, matnning tushirib qoldirilgan, yetishmaydigan qismini) kerakli manbalar bilan to‘ldirish ancha mushkul ish bo‘lib qoldi. Bizga ma’lum bo‘lgan manbalar esa nihoyatda oz bo‘lib, ular ham tarjimayi hol bayoniga oid ma’lumotlardir. Kerakli dalil to‘plasa ham bo‘lar edi, biroq buning o‘rniga Ahmad Yodgordagi (Ahmad-i-Yadgar) qo‘sishimcha ilovalar, afg‘on sultonliklari orasida yashagan temuriylar tarixiga oid to‘plangan materiallarga duch kelasiz.

Erskin yevropalik boburshunoslar «kashshofi»

Yevropa ilm ahliga «Boburnoma»ni tanishtirgan olim Gollandiyalik Vitsen bo‘lgan. Vitsendan sal oldin 1697-yilda farang sharqshunosi, lug‘atshunos olim D.Derbelo «Sharq kutubxonasi yoxud sharq fuqorosining bilimiga doir qomus» nomli antiqa bir lug‘atga «Bobur» nomli maqola kiritadi. Lug‘atning antiqaligi shundaki, u bo‘yiga bir metr, eni oltmisht santimetrik hajmda yaratilgan bo‘lib, bir kishi zo‘rg‘a ko‘taradi. Bobur haqidagi maqola yaqin besh sahifani egallagan bo‘lib, imperator Bobur hazratlarining shakl-shamoyili, avlod-ajdodi, masofa yurishlari, O‘zbekiston, Afg‘oniston, Hindiston

haqida qolaversa, «Boburnoma» xususida qiziqarli, rang-barang ma'lumotlarni keltirgan. Hozirgi zamonaviy lug'atlarning yaqin o'n sahifasiga to'g'ri keladi. Bobur shaxsi haqida birinchi to'liq ma'lumot ham deyish mumkin. Hozirgi kunda mazkur noyob qomus Germaniya Federativ Respublikasining Berlin kutubxonasi nodir kitoblar bo'limida saqlanmoqda.

Gollandiyalik Vitsen 1705-yilda asardagi Farg'ona vodiysining jug'rofiyasiga oid tasvirlarni («Tatarlar mamlakatining sharqiy ham shimoliy qismining jug'rofiy ta'rifi») tarjima qilib, Amsterdamda nashr ettiradi. Ushbu tarjima tufayli bir tomondan, o'zbek xalqiniig boy adabiy merosi bilan Yevropa xalqlari tanisha boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan ingliz sharqshunoslari ta'riflagan «Boburiyana» davri ham boshlangan. Lekin Boburning Yevropadagi chinakam shuhrati roppa-rossa yuz yildan keyin, XIX asr boshlarida qaror topdi. Bu ishda ingliz sharqshunoslarning xizmati katta bo'ldi. Ular kitobni tarjima qilib, nashr ettirishdan tashqari, uni tadqiq etish, Bobur hayotini o'rganish ishini ham qizg'in davom ettirdilar. Umuman, Boburning hayoti, shaxsiy qobiliyatları Yevropa tadqiqotchilarini hayratda qoldirgan edi. Bobur siyosida ular ulkan sarkarda, mohir davlat arbobi, dilbar va dilkash insonni ko'rdilar. Tarixshunos Elfiniston Boburni **«Sharqning Yuliy Sezari»** deb atashi beziz emas. Leyn Puul bo'lsa: **«O'z portretini chizishdagi samimiylit, fazilat va kamchiliklarini haqqoniy tasvirlash, ochiq ko'ngillik va rostgo'yligini Boburning ajoyib xislati deb ta'riflaydi²⁰».** «Boburnoma» tarjimoni V.Erskin shunday yozadi: **«Bobur xarakterining mislsiz belgisi uning boshqa mulkdorlarnikiga**

²⁰ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент, 1960. –Б. 47.

o‘xshamasligidir. Osiyo tojdorlaridagi dabdaba, xarakter o‘rniga bizning ko‘z oldimizda Boburning xarakteri tabiiy, hayotni sevuvchi, samimi bo‘lib gavdalanadi. Bobur taxtda o‘tirishiga qaramay, oddiy turmushning eng yaxshi tuyg‘ularini va ishtiyoyqini o‘zida saqlab qoldi. Osiyo hukmdorlari orasida Bobur singari genial va iste’dodli kishilar kamdan-kam uchraydi. Uning faol aqliy qobiliyati va bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, saxovati, mardligi, fanga, san’atga muhabbatini va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi kishini lol qoldiradi»²¹.

«Boburnoma»ni inglizchaga tarjima qilgan Jon Leyden va Vilyam Erskinlar bir-biridan bexabar holda ish boshlagan edilar. V.Erskin fors adabiyoti bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar²² muallifi, Britaniya muzeyidagi ko‘pgina qo‘lyozmalarni to‘plagan va o‘rgangan atoqli sharqshunos, doktor Leyden esa fors tilidan tashqari, yana eski o‘zbek va hind tillarini o‘zlashtirgan bilimdon kishi bo‘lgan. Har ikki tarjimon ham «Boburnoma» bilan Hindistonda tanishganlar va uni shu yerda tarjima qilishga kirishganlar. V.Erskin Abdurahimxonning forsiy nusxasi asosida tarjimani 1811-yilda boshlab, 1817-yilda intihosiga yetkazadi. Ingliz sharqshunosi Anneta Beverij xonim aytganidek, Erskin «yevropalik boburshunoslari ichida «kashshof» edi», u dunyo kitobxonlari oldida katta xizmatni ado etdi. Biroq Erskin tarjimani nashr ettirishga shoshilmaydi. Bu orada u doktor J.Leyden ham «Boburnoma»ni inglizchaga o‘girganini eshitib qolib, bu tarjima bilan ham tanishishga oshiqadi. Shu o‘rinda Beverij xonimning J.Leydenni

²¹ Leyn Puul. Oksford, 1899. - B 9.

²² Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. L. Leyden, V. Erskin tomonidan inglizchaga o‘girilgan. I-II qism. – London, 1921. – B 8.

hayratga solgan narsa «Boburnoma»ning *shirador turkiy tili va muallif mahorati edi*, degan fikrini eslab o‘tish o‘rinlidir.

J.Leyden bevaqt vafot etib, tarjima adog‘iga yetkazilmay qolgan. V.Erskin Leyden tarjimasini qo‘lga kiritish va o‘ziniki bilan solishtirish maqsadida Londonga xat yozib, Leyden tarjimasi fotonusxasini yuborishlarini so‘raydi. Leydenning qo‘lyozmalari Angliyaga, uning uyiga jo‘natilgan edi. Kasbdoshi tarjimasining o‘zinikidan katta farqi borligini ko‘rgan Erskin hayron qoladi. Chunki Leyden *asl nusxadan o‘girgan edi*. Erskin tarjimalarini batafsil muqoyasa etib, ish davomida kontekstga mos kelmaydigan joylarni tuzatib, puxtalab boradi. Bu borada u «Boburnoma»ning turkiy aslini Elfinistondan so‘rab oladi va uning hammasini solishtirib chiqishni diliga tugadi, chunki Leyden turkiy tilni yaqin orada o‘rganganligi sababli tarjimaning ko‘p yerida sahv joylari bor edi. Shuning uchun ham Erskin diqqat va ehtiyyotkorlik bilan *turkiy hamda forsiy* qo‘lyozmalarni chog‘ishtira boshlaydi. *Shunday qilib «Boburnoma»ning qolgan qismini turkiy orginali, forsiy tarjima va Elfiston yordamida Dehlidan janob Metkalf orqali olgan nusxalar bilan solishtirib, ishni adog‘iga yetkazdik*», deb yozadi V.Erskin. Uning e’tirof etishicha, Metkalf nusxasi eng ishonchli manba hisoblangan.

«Mening chig‘atoyi turkiydan olgan bilimim «Boburnoma»ni aslidan o‘girishga yetarli emas edi, – deb yozadi tarjimon, shuning uchun forscha manbaga ko‘proq tayanib ish ko‘rdim. Baxtga qarshi Leydenga yordam bergen turk tili mutaxassis Ganj, Elfinistondan turkiy nusxani olgunimcha Bombaydan ketib qolibdi, shu tufayli sodiq do‘stim mulla Feruzning yordamiga tayanib, turkiy matn bilan

muqoyasa qilaroq, tarjimani chog‘ishtirib chiqishga muyassar bo‘ldim. O‘ylaymanki, tarjima ko‘p kamchiliklardan holi bo‘ladi²³».

V.Erskinning fikricha, mazkur tarjimaning yuzaga kelishida to‘rt qo‘lyozma asos bo‘lgan. Shularning ichida eng ahamiyatlisi va asl nusxaga yaqini Elfiniston qo‘lyozmasi yoki nusxasidir. Bu nusxani 1809-yilda ingliz olimi va Hindistondagi inglizlarning davlat apparatida yuqori lavozimlarni egallagan kishi Manstuart Elfiniston Peshavor shahridan sotib olgan. Shuning uchun bu qo‘lyozma «*Elfiniston qo‘lyozmasi*» yoki «*nusxasi*» deb yuritilgan.

Bu faktlar tarjimonning o‘z ishiga qanchalik mas’uliyat bilan qaraganligi, o‘z ishini ilmiy puxtaligini ta’minalash uchun nechog‘lik ko‘p mehnat sarflaganini ko‘rsatadi. V.Erskinning niyati «Boburnoma»ni shunchaki ingliz kitobxoniga tanishtirishgina emas edi, u asl nusxa o‘rnini bosadigan darajada puxta, ishonchli ekvivalent barpo etishni ko‘zlab ish ko‘rgan. Chuqur ilmiy-ijodiy mehnat samarasi bo‘lgan bu tarjima haqiqatan ham muvaffaqiyat qozondi va mutaxassislarning tahsiniga sazovor bo‘ldi. Chunonchi, sharqshunos Lord Jefreyning fikricha, Erskin, o‘z tarjimasiga *ajoyib hoshiyalar ilova qilgan, satr ostidagi tushuntirishlarni ham mohirona va shoirona bajargan*. Elfiniston esa tarjimaning puxtaligidan zavqlanib, bunday yozgan edi: «*Tarjima bamisolasi asl nusxaning o‘zginasi, uslubi ham jozibador, xuddi asliga qarab rasm olganday*».

Shunday qilib, V.Erskin, J.Leyden tarjimasini qayta ishlab chiqib ishni poyoniga yetkazadi va asar «Boburnoma» – Leyden-Erskin

²³ Z.M.Bobur. Boburnoma. J. Leyden., V. Erskn tomonidan inglizchaga o‘girilgan. –London, 1821. – B 37.

tarjimasida» nomi bilan 1826-yilda Londonda chop etildi²⁴. «Boburnoma»ning birinchi tarjimasini amalga oshirishda V.Erskinning hissasi ko‘proqdir²⁵. U asarning yarmidan ko‘pini tarjima qilgan, uni so‘zboshi, muqaddima, muhim izoh va sharhlar bilan boyitgan. Bundan tashqari V.Erskin tarjimani nashr ettirgan. Bobur o‘z umrining oxirgi 15 oyi haqida hech qanday ma’lumot qoldirmaydi. V.Erskinning tahsinga sazovor xizmati yana shundaki, u boshqa manbalarga suyanib xulosaga kelgan va ilovada bu haqida qator qo‘srimcha ma’lumotlar beradi. Bu axborotlar e’tiborga molikdir.

Tarjimaga yozilgan muqaddima katta ilmiy qimmatga egadir. Unda turkiy qabilalarning paydo bo‘lishi, O‘rta Osiyoning shahar va qishloqlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Bundan kitobxon «Boburnoma»ga oid qiziqarli materiallarni, tanqidiy matn tuzish uchun olib borilgan izlanishlar, qadimiylar ishonchli nusxalar, «Boburnoma» bilan shug‘ullangan sharqshunos olimlar tug‘risida keng ma’lumot oladi. Muallifning o‘zi bu so‘zboshining muhimligi haqida gapirib, Boburning izidan borish uchun bu yerdagi xalqlar haqida, shuningdek, ayrim mamlakatlarning geografik joylanishi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur, degan edi.

Har ikki noshir ham bu nodir asarni o‘z tilida tiklashda ko‘p manbalarga suyanganlar, Afg‘oniston va Hindistonga taalluqli geografik nomlar, hayvonot va o‘simplik dunyosi tamom o‘zga bir dunyo bo‘lganligi sababli bir qator Yevropa tarixshunoslarning asarlaridan foydalanganlar. Bunday asarlar orasida Leyn Puulning «Bobur»,

²⁴ Qarang: Hindiston tarixi. 9-nashr. London, 1905. – 429 bet.

²⁵ Z.M.Bobur. «Boburnoma». Hindiston imperatori tomonidan chig‘atoy-turkiy tilida yozilgan hamda J.Leyden va V. Erskinlar tomonidan inglizchaga o‘girilgan. –London, 1826.

«Avrangzeb» «Hindiston podshohlari», Malesonning «Akbar», V.Erskinning «Bobur tarixi», X.M.Elliotning «Hindiston tarixi» singari kitoblari va Hindiston, Afg'oniston faunasiga oid lug'atlar bor. Lekin Erskin asosiy yordamni yirik ingliz olimi Manstuart Elfinistondan olgan. Shu tariqa u katta qiyinchiliklarni yengib, butun aqlu zakovatini ishga solib, «Boburnoma»ning inglizcha tarjimasini yaratishga muyassar bo'lgan. Mazkur asarni o'rganish tarjimaning asl nusxaga yaqinligi, tarjimonning ishga ijodiy yondoshganligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, tarjima hamma qo'lyozmalardagidek, hijriy 899-yil ramazon oyidan, ya'ni 12 yashar Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishidan boshlab, 936-yil voqeasi bilan tamomlanadi.

1921-yilda Leyden-Erskin tarjimasini Dublin universitetining professori, sharqshunos olim Lyukas Uayt King tomonidan ba'zi bir mulohazalar bilan to'ldirib boyitilgan va qayta tahrir qilingan nashri yuzaga keldi²⁶. Noshir inglizcha tarjimani nisbatan mukammalroq bo'lgan fransuzcha tarjima bilan qiyoslab chiqib, ancha to'ldirishlar qiladi, ko'pgina sahv joylariga aniqlik kiritadi.

Ma'lumki, «Boburnoma» xronologik jihatdan to'liq emas. Asarda voqealarni yillar bo'yicha bayon qilishda qator uzilishlar bor. «Boburnoma»ning fransuz tarjimoni Pave de Kurteylning tasdiqlashicha, yillar izchilligidagi uzilishlar asl nusxada ham, forscha tarjimada ham mavjud. Bular inglizcha tarjimada ham o'z aksini topgan. Bu uzilishlarni bartaraf qilish maqsadida King hijriy

²⁶ «Boburnoma». Hindiston imperatori Z.M.Boburning o'z qo'li bilan chig'atoy va turk tillarida yozgan xotiralari. Jon Leyden va Vilyam Erskinlar tarjima qilgan. Dublin universitetida arab va fors tillari fakultetining professori, hind tarixi mutaxassis Lyukas King tavsiflagan va to'ldirgan.

908-yilning oxiridan 909-yilning so‘ngigacha (1503-1504), 914-yildan boshlab, 925-yilning boshigacha bo‘lgan voqealarni (1508-1519 va 926, 931, 934) aprel-sentyabr oylari, 936-937 -yillarga oid Bobur hayoti bilan bog‘liq tarixiy voqealarni boshqa manbalardan olib, «Boburnoma»ga kiritadi, asarning yaxlitligini ta’minlaydi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, asarning o‘zbekcha va ruscha nashrlari ham ana shunday to‘ldirishlarga muhtoj. Bundan tashqari, u Leyden va Erskinlarning tarjimayi holini, Boburning O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab yurishlarini aks ettiruvchi xarita tuzib, kitobga ilova kiladi.

«Boburnoma»dagi ko‘pdan-ko‘p joy nomlari, o‘simplik va hayvonot dunyosiga oid atamalarni ham tarjimonlar matn ichida, hoshiyada, tadqiqot qismida batafsil sharhlab, tushuntirib bergenlar. Birgina Lyukas Uayt Kingning o‘zi tuzgan sharh va izohlar 4000dan oshib ketadi. Asardagi she’riy parchalarning kimga taalluqli ekanini ham King manbaini izlab topib, aniq izohlab bergen. Shu bilan birga, qayd qilmoq lozimki, sharharning hammasini ham birday to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, asarning O‘rta Osiyo shaharlari tasviriga oid qismlariga bag‘ishlangan sharhlarida qusurlar ko‘p. Bu tarjimonlarning o‘lkamiz hayoti va tabiatini bilan bevosita tanish bo‘lmaganliklari oqibati bo‘lsa kerak.

Leyden-Erskinlarnnng sharq adabiyoti bo‘yicha olib borgan ishlari Britaniya muzeyida № 26555-26621 raqami ostida saqlanadi. Bu nodir qo‘lyozmalarni hamda Erskining turli fan sohalariga doir ishlarini 1865-yilda o‘g‘li Jeyms Klaud Britaniya muzeyiga sovg‘a qilgan. Mazkur majmua orasida ADD. 26608-26620 raqamida Humoyun va Jahongir davriga oid qo‘lyozmalar, ADD. 26620-26621 da Akbarshohga

doir, ADD. 26612 da Mirza Haydar Davlatning «Tarixiy Rashidiy» qo‘lyozmasi, ADD. 26607 da Abul Fozilning «Akbarnoma»si va boshqa o‘nlab qo‘lyozmalarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, Erskining arab, fors, turk, sanskrit, hind tillariga oid 436 dan ortiq ishlari ham Britaniya muzeyida ADD. 26119-26554 raqamlari ostida saqlanadi²⁷.

Yevropa sharqshunoslarining Z.M.Boburga bo‘lgan hurmati

Zahiriddin Muhammad Bobur zamondoshlari orasida Osiyoda ma’lum va mashhur shahzodalardan biri edi, desak xato qilmaymiz. Qudratli, har qanday harbiy mashqlarni yaxshi ko‘radigan zo‘r qilichboz uchun shunday ta’rif berishgankim, go‘yo u Sharqning an’anasiga aylangan ikki poshnalik poyafzal bilan devor qal’aning birinchi qiyasidan ikkinchisiga sakrab yurgan. Hattoki, u ikki kishini qo‘ltiqlab, qal’a devorining birinchi qismidan ikkinchisiga sakrashni teztez mashq qilgan. Yoshligidan davlat ishini boshqarishga o‘rgatilganligi sababli ongi yaxshi rivojlangan.

O‘n ikki yoshli chog‘idayoq taxtga o‘tirgan va hali yigirma yoshni qoralamasdan turib, mulkni taqsimlash sirlaridan xabardor bo‘lgan. Faqatgina kichik bir shaharning hokimi bo‘lib qolmasdan o‘zining oliv nafsoniyati quli ham edi. Qalbining har bir sadosiga odamlarni maftun eta olgan. Uni boylar va saroydagilar g‘olib odamdek kutishardi. Farg‘ona vodiysida va tog‘larida uyqusiz, huzur-halovatsiz yashirinib yurishiga majbur etishardi. Hayotining oxirgi damlarigacha biz uni yoshligidagi qadrdon do‘stlariga va yaqin insonlarga sadoqati va muhabbati bilan qolganining guvohi bo‘lamiz. Yoshligidan boshlab voqealar silsilasi uni yolg‘on gapirmaslikka, hur inson bo‘lib qolish,

²⁷ Ч.Рью. Британия музейида сақланаётган форсий кўлёзмалари каталоги. – Лондон, 1979, 1879, 1881, I-II-III кисмлар.

odamlarga nisbatan g‘amxo‘r va vafodor bo‘lish ruhida tarbiyalagan. Sadoqatli yigitlari bilan yashirinib yurgan paytlarida u boshqalar qatori bir inson ekanligini tushunib yetdi. Tabiatan ochiq ko‘ngilligi va xushchaqchaqligi tufayli atrofidagi hamma narsani tushunishga moyil edi. Qo‘sшинидаги сарбоз ва askarlar bilan do‘stona hamda oshkora so‘zlashardi. U vaziyat taqozosi bilan o‘zgaruvchan va har qanday muhoribada g‘olib chiqishga, shon-shavkatga chanqoq edi. Qaysidir faslda o‘tkazilayotgan bir tadbirda u jonini qurbon qilishga ham tayyor ekanligini ko‘rsatib, bor-budini sarflagan edi. Uning teran va boy ongiga hech vaqt rejalarining barbodligidan zahm yetmasdi. Odatda, bunday sharafga muyassar bo‘lganlar juda oz bo‘lib, ular ham oxir-oqibatda mag‘lubiyatga uchrar edilar. Uning kuch-quvvati hayotlik davrida yaqqol ko‘zga tashlanib turardi.

Bobur juda qiyin paytlarda ruboiylar yozar, xatarnok, tang kezlarda mahzun g‘azallar bitib, ularga kuy bastalab, orom olgan. Qanchalik jazolasa, shunchalik avf eta bilar, chapdast jangchi, ehtiyotkor, zukko qo‘mondon va o‘z askarlarini rag‘batlanadirigan, uzoqni ko‘ra oladigan sardor, hushyor rahbar bo‘lgan. Alqissa, Osiyo tarixini ko‘zdan kechirsak, haqiqatan ham, biron-bir shahzoda Boburchalik har tomonlama buzruk emas edi. Aql teranligida, sarosima paytlari shovqinsuronlarga bosiqlik bilan javob berishda, ruhan shikastlanmaganligida, odamgarchilik va himoyat yuzasidan mulkni taqsimlashda, yaxshi va yomonni ajratishda, nomalar va ularni qayta ko‘rib chiqishga bo‘lgan ishtiyoqmandlikda osiyolik shahzodalarining hech biri unga teng kela olmaydi. «*Uning matlabi zabit etish emas, balki asos soluvchilik edi*».

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beveridge A.S. The Haydarabad Codex of the Babar-nama. Part II. JRAS. 1906. No. IV I he Buk-hara VIS p 80.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. Hindiston imperatori tomonidan chig‘atoy-turkiy tilida yozilgan hamda J.Leyden va V.Erskinlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. – London, 1826.
3. Азимжонова С. “Хатти Бобурий” тўғрисидаги янги маълумотлар. –Москва, 1963.
4. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент, 1960.
5. Бевериж А. Бобурнома. Инглиз тилида. Туркий асл нусхадан инглиз тилига таржима. – Лондон, 1921.
6. Дмитриева А.С., Муминов А.. Муротов А. Описание тюркских рукописен института народов Азии. Москва, Изд-во «Наука», 1965.
7. Лейн Пуул. Бабур. Оксфорд, 1899.
8. Паве де Куртэйль. Алишер Навоий, Бобур, Абдулғозий Баҳодирхон асарлари учун тузилган шарқий-туркий тиллар луғати. -Париж, 1870.
9. Фриц Вюртле. Андижон шаҳзодаси. – Т.: Ўқитувчи, 2011.
10. Ч.Рью. Британия музейида сакланаётган форсий қўлёзмалари каталоги. – Лондон, 1979, 1879, 1881, I-II-III қисмлар.
11. Шайхзода М. Заҳириддин Муҳаммад Бобур // Гулистон, 1941. –№ 1.
12. Шукруллаева С. “Бобурнома”нинг қисқартирилган инглизча нашрлари. – Тошкент, 1977.
13. Эрскин В. Бобур ва Ҳумоюн даврида Ҳиндистон тарихи. I-II қисм. –Лондон, 1854. Бобур ҳаёти, Лондон, 1854.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. MUBORAK DASTXATLAR	
1-§. Mangulikka daxldor.....	5
2-§. Bobur Mirzoning o‘g‘li Humoyun Mirzoga o‘zining qanday qilib zaharlangani tashvish-tafsilotlarini bayon etuvchi maktubi.....	13
3-§. O‘zimni o‘zgalar orqali anglayman.....	15
4-§. In’ikos va in’ikos in’ikosi.....	16
5-§. So‘z ma’nolarida tarixiy turfalik.....	18
6-§. O‘zga bir olam.....	20
7-§. Miqdor va raqamlar tilga kirganda.....	21
II BOB. XAT USLUBI: MURAKKABLIK VA SODDALIK BAHSIDA	
8-§. Humoyun Mirzoga bitilgan maktub.....	27
9-§. Nasriddin Muhammad Humoyunga yo‘llangan maxfiy vasiyat.....	30
10-§. Komron Mirzoga xat.....	40
11-§. Turkona oliyjanoblik, temuriy g‘urur.....	42
12-§. Jono Xoliqdin o‘zga so‘z yo‘q.....	44
13-§. Tabdil. Hazrati Boburshoh G‘oziyining Hindistondan Qandahorga saodatmand Mirzo farzandiga yo‘llagan xayrli holnomasi.....	51
14-§. Tushunarli bo‘lgani uchun tushunarli emas.....	56
III BOB. XAYRLI HOLNOMALAR YEVROPALIK OLIMLAR NIGOHIDA	
15-§. «Boburnoma» ning Buxoro qo‘lyozmasi.....	58
16-§. Buxoro nusxasiga oid alohida jadval.....	64
17-§. Fathnomada ham ishora bor.....	65
18-§. Shunday bo‘lgani rost.....	66
19-§. Ogohlik – davr talabi.....	67
20-§. Faraz va haqiqat.....	68
21-§. Leyden-Erskin tarjimasida	77
IV BOB. «BOBURNOMA»NING FORSIY QO‘LYOZMALARI	
22-§. Manbaga qaytish so‘qmoqlari.....	79
23-§. Tarjimonlar milliy madaniyatlarning favqulodda va muxtor elchilari.....	84
24-§. Davriy farqlar va uslubiy tafovutlar.....	85
25-§. O‘n sakkiz yillik kemtik.....	87
26-§. Tarjimalar va tajribalar.....	88
27-§. Bormikan bu dunyoda bir bag‘ri butun.....	89
28-§. Qalamlariga hasanot.....	90
29-§. Erskin yevropalik boburshunoslarning «kashshofi».....	91
30-§. Yevropa sharqshunoslaring Z.M.Boburga bo‘lgan hurmati.....	99

**N.OTAJONOV, M.MIRSAYDULLAYEV,
U.ABDURASULOVA**

MUBORAK DASTXATLAR

**(Zahiriddin Muhammad Boburning saodatmand Mirzo
farzandlariga yo'llagan xayrli holnomalari)**